

**YUSUPOV N.M.**

**FUTBOL O'YINIDA  
JISMONIY TAYYORGARLIKNING  
MUHIM AHAMIYATI**



796.332 (045.8)

Yu 91

**JISMONIY TARBIYA VA SPORT ILMIY  
TADQIQOTLAR INSTITUTI**

**Yusupov N.M.**

**FUTBOL O‘YINIDA JISMONIY  
TAYYORGARLIKNING MUHIM  
AHAMIYATI**

*O‘quv qo‘llanma*

**“BEHZODBEK PRINT”  
TOSHKENT – 2023**

UO'K: 796.332(075.8)

KBK:75.578ya73

Yu 57

**Yusupov N.M. Futbol o'yinida jismoniy tayyorgarlikning muhim ahamiyati.** O'quv qo'llanma, –T.: «Behzodbek print», 2023. - 204 b.

O'quv qo'llanma jismoniy tarbiya va sport universiteti uchun Futbol nazariyasi va uslubiyati fani dasturi asosida tayyorlangan. O'quv qo'llanmada futbol o'yinining jismoniy tayyorgarligini oshirishlari, texnika, taktikasiga o'rgatish va o'quv mashg'ulot jarayonlarini olib borish uslubiyati yoritilgan. Avvalgi nashr etilgan adabiyotlardan farqli o'laroq mazkur o'quv qo'llanma O'zbekistonning issiq iqlim sharoitlari va shunday iqlim sharoitlarida futbol bilan shug'ullanishning o'ziga xos xususiyatlari inobatga olingan. O'quv qo'llanma O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar instituti ilmiy kengash tomonidan nashr etishga tavsiya etilgan.

Данное учебное пособие разработано в соответствии с типовой программой по Теории и методике футбола. В пособии раскрыты повышение физической подготовки, техники и тактики игры в футбол, организация процесса обучения упражнениям и методика их организации. В отличие от ранее изданной литературы, данное учебное пособие уделяет большое внимание особенностям занятий футболом в жарких климатических условиях Узбекистана. Учебное пособие рассмотрено на заседании научно-методической комиссии при научно-исследовательском институте физической культуры и спорта и рекомендовано к изданию.

O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi huzuridagi Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar instituti direktorining 2023-yil "16" - sentyabrdagi "33/d" - sonli buyrug'iga asosan nashrga tavsiya etilgan.

Ro'yxatga olish raqami O'Q-009

ISBN 978-9910-9633-6-0

© «Behzodbek print», 2023.



## **SO‘ZBOSHI**

### **“YASHASIN BELLASHUVLAR”**

U xoh jahon chempionati, xoh mahalliy futbol jamoalarining o‘yini bo‘lishidan qat’iy nazar, bellashuvlar har qanday o‘yinning eng og‘ir toshi bo‘lib hisoblanadi. Axir ular yakuniy natijani belgilaydi. Kitobning boshidayoq “Kim g‘olib chiqishini, kim esa mag‘lub bo‘lishini yutib olingan bellashuvlar soni hal qiladi” deya ta’kidlanishi bejizga bo‘lmaydi.

Har bir o‘yinchi o‘zining jamoasi g‘alaba qozonishidan umid qilgan holda, aksariyat bellashuvlarni boy berish ijobiy natijaga olib kelmasligini yaxshi biladi. O‘yinchi o‘yin davomida o‘zini qanchalik ishonchli tutsa va qanchalik aql bilan o‘ynasa, u to‘p uchun shunchalik yaxshi kurash olib boradi, o‘zining raqiblarini shunchalik yaxshi aldaydi. Bo‘lg‘usi g‘alabaga shunchalik ko‘p hissa qo‘shadi va shu tariqa o‘z jamoasining taqdirini belgilaydi.

Futbol ham xuddi boshqa sport o‘yinlari kabi bir-biri bilan chambarchas bog‘langan va jamoaning alohida olingan har bir o‘yinchisining mahoratini egallashiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan konstruktiv, ijodiy va intuitiv elementlardan tashkil topadi. Amalda har bir o‘yinchi to‘pni egallash uchun bo‘ladigan kurashlarda ishtirok etadi va uning mahorati qanchalik yuqori bo‘lsa, bu kurashlarning ijobiy natija bilan tugash ehtimoli shunchalik yuqori bo‘ladi. Jamoaning mahorati va uning g‘alabasi esa aynan alohida olingan har bir o‘yinchining mahorati qanchalik yuqori ekanligi bilan belgilanadi.

O‘yinda kurash to‘pning bir jamoa o‘yinchisidan boshqa jamoa o‘yinchisiga o‘tishining boshlang‘ich punktini o‘zida taqdim qiladi va o‘yin vaziyatining doimo o‘zgarib turishiga olib keladi. Futbolchi uchun kurash - bu avvalambor o‘zining imkoniyatlarini namoyon qilish va muvaffaqiyatga erishishdir. Tomoshabinlar uchun kurash - emotsiyalar va doimiy ehtiroslar manbaidir. Hakamlar uchun kurash - eng ko‘p e’tibor qaratish lozim bo‘ladigan nuqtadir. Ommaviy axborot vositalari uchun kurash - eng yaxshi reportaj tayyorlash uchun imkoniyatdir. Shunday qilib, kurash o‘zining barcha ko‘rinishlarida hamma uchun hal qiluvchi omil bo‘lib hisoblanadi.

Har bir futbolchi to‘pni egallab olgandan keyin kurashni davom

ettirishi kerakmi yoki undan qochish kerakligini aniq bilishi lozim. Axir o'yin davomida vujudga keladigan har xil vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qila olmaslik jamoaning umumiy g'alabasiga xalaqit berishi mumkin. Biroq shunga qaramasdan kurash to'p uchun kurashda eng og'ir tosh bo'lib qolaveradi. Shu sababli tayyorgarlik tizimiga kurashlar albatta kiritilgan o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish va shu tariqa har bir o'yinchining ushbu elementni egallash mahoratini doimo charxlab borish zarur bo'ladi.

# **I QISM. FUTBOLCHILARNING JISMONIY TAYYORGARLIGI**

## **I BOB. YUKLAMALARNI REJALASHTIRISH NAZARIYASI**

### **§1.1 Mikrotsiklda jismoniy mashqlarni bajarish hajmi va shiddatining ratsional birlashuvini matematik imitatsion modellash tirish uslubi bilan tadqiq qilish**

Ushbu bo'limning maqsadi - bajariladigan jismoniy mashqlar shiddati va hajmining (davomiyligining) turlicha birlashishining odam organizmining turli asosiy tizimlariga ta'sirini tizimli ravishda o'rganish va murabbiylik ishi uchun kompyuterli modellash tirishning amaliy ahamiyatini ko'rsatishdan iborat.

Muammolarni ilmiy tekshirish laboratoriyasida bir qancha sport mutaxassis olimlari tomonidan uzoq muddatli adaptatsion jarayonlarni imitatsiyalaydigan (xuddi o'ziga o'xshatadigan) kompyuterli matematik model ishlab chiqilgan. U o'zida muskullar, endokrin tizimi va immun tizimi faoliyat ko'rsatishining asosiy qonuniyatlari va parametrlarini tasvirlaydigan to'qqizta differensial tenglamalardan tashkil topgan tizimni taqdim qiladi. Kompyuter dasturining kirish joyiga jismoniy mashqlarni bajarish shiddati va davomiyligini berish mumkin. Chiqishda esa mashq qildiriladigan muskullarda mitoxondriyalar va miofibrillalar massasining o'zgarishini endokrin tizimi bezlarining massasining o'zgarishini, qondagi antigenlar konsentratsiyasini kuzatish mumkin.

Modelda 100% shiddat sifatida maksimal alaktat quvvat qabul qilinadi. Kislorodni maksimal darajada iste'mol qilish quvvatning 40%iga mos keladi. Anaerob ostonaning quvvati - 30%, aerobik ostonaning quvvati - 20%. Velosipedda yurish, chang'ida yugurish, eshkak eshish va boshqa siklik mashqlar (yugurishdan tashqari - katta hajmdagi yugurishlarni bajarishda tayanch-harakat apparati, aynan bog'lanishlar va paylar asosiy limitlaydigan zvenoga aylanadi) imitatsiyalash uchun ko'proq mos keladigan vosita bo'lib hisoblanadi. Ma'lum bir hajmlar va shiddatlarning birlashishining samaradorligini baholash uchun berilgan mikrosiklda bir yil shug'ullanish davomida

muskullardagi miofibrillalar va mitoxondriyalar massasining o'zgarishi va endokrin bezlar massasining o'zgarishi hisoblangan.

## **§1.2. sportchilarni jismoniy tayyorlash tamoyillari**

Uzluksizlik tamoyili. Vaqt birligida dam olish intervali davomiyligining ortishi yoki shug'ullanish mashg'ulotlari sonining kamayishi shug'ullanish jarayoni samaradorligining pasayishiga olib keladi. Bu barcha fiziologik tizimlarga tegishli bo'ladi.

Bizning holatimizda endokrin bezlarining massasi faqatgina mashqlarni bajarishning optimal davomiyligida yuqori 70-100% shiddatga ega bo'lgan mashqlarni qo'llashda ortadi. Dam olish inter-vali davomiyligining ortishi shug'ullanish mashg'ulotlari jarayonining samaradorligini shug'ullanish mashg'ulotlari har kuni bo'lganda 27% gacha, dam olish intervali 6 kundan oshiq bo'lganda 0% gacha pasaytiradi. Matematik modelning ishlash logikasi ma'lum. Shu sababli olingan natija bir qiymatli talqin qilinishga ega bo'ladi. Yuqori shiddat va optimal davomiylikka ega bo'lgan mashq endokrin bezlarda mavjud bo'lgan zahira gormonlarning ajralib chiqishini rag'batlantiradi. Ular turli to'qimalarning hujayralarida barcha strukturalarning, jumladan endokrin bezlarining ham sintezlanishini rag'batlantiradi. Anabolik gormonlar to'qimalarda ancha uzoq vaqt davomida - 1-3 sutkagacha stabilanib qoladi. Biroq ularning konsentratsiyasi asta-sekin pasayadi, gormonlarning metabolizmi sodir bo'ladi. Shu sababli dam olish intervali 1-2 sutka bo'lganda qon va to'qimalarda gormonlarning konsentratsiyasi ortadi va yuqori darajada barqarorlashadi. Bu hujayralarda sintezlanish jarayonlarining ustuvor bo'lishiga olib keladi. Dam olish davomiyligining ortishi konsentratsiyaning hatto hujayra darajasida erishilgan o'zgarishlarini ushlab turish uchun zarur bo'ladigan darajadan ham pasayishini chaqiradi. Shu sababli to'qimalarda adaptatsion qayta qurilishlar darajasi pasayadi. Shundan kelib chiqqan holda, shug'ullanish mashg'ulotlari holatida uzluksizlik prinsipi yanada yuqoriroq sport natijalariga erishish maqsadida hujayralarda adaptatsion qayta qurilishlarni o'stirish lozimligini bildiradi.

Adaptatsion jarayonlarning maxsusligi (spesifik) va geteroxronlik tamoyili. Matematik modelda bir paytning o'zida muskullar, endokrin

bezlari va orqa miyada (immun tizimining asosiy organida) o'zgarishlar boradi. Bunda miofibrillalarning giperplaziyalanishi uchun muskul tolalarining restrukturizatsiyalanishi, anaerob glikolizlanish va anaerobik gormonlarning oshirilgan konsentratsiyasi talab qilinadi. Mitoxondriyalarning giperplaziyalanishi uchun esa aerobik glikolizlanish talab qilinadi. Shu sababli shug'ullanish mashg'ulotlari jarayonlari bir-biridan sezilarli darajada farq qilishi lozim. Bizning holatimizda miofibrilla massasining maksimal o'sishi 80-100% shiddatga va kuch mashqlarining yig'indi davomiyligi 8-12 minutga teng bo'lgan har kunlik shug'ullanish mashg'ulotlarida kuzatiladi. Mitoxondriyalar o'sishining maksimumi ham har kunlik shug'ullanish mashg'ulotlarida, biroq 10-20% shiddat bilan o'tadigan shug'ullanish mashg'ulotlarida kuzatiladi. Shuningdek shuni ham qayd qilish mumkinki, mitoxondriyalarning berilgan giperplaziyalanish darajasini ushlab turish uchun har kunlik shug'ullanish mashg'ulotlari bilan, garchi endokrin bezlari hujayralarining giperplaziyasi uchun 4-5 kun talab qilinsada - miofibrillalar giperplaziyasining berilgan darajasini dam olish intervali hatto 6 kun bo'lganda ham ushlabturish mumkin.

Siklik tamoyili. Shug'ullanish mashg'ulotlari jarayoni odam organizmining barcha asosiy tizimlarini bir paytda rivojlantirishni hisobga olish bilan tuzilishi lozim. Bunda berilgan sport turi uchun qandaydir bir tizimni rivojlantirish biroz ustuvor bo'lishi mumkin. Masalan, sportning tezkor-kuch turlari uchun muskullardagi miofibrillalarning tezkor rivojlanishiga, sportning chidamlilik turlari uchun esa - muskullarning mitoxondriyalarning tezkor rivojlanishiga intilish lozim bo'ladi. Kurashda berilgan og'irlik kategoriyasi doirasida, endokrin tizimi bezlarining hujayralari, immun tizimi hujayralarining ratsional gipertrofiyasi, giperplaziyasida miofibrillalar va mitoxondriyalarning oshirilgan giperplaziyasini ushlab turish vazifasi qo'yiladi. Shu sababli ma'lum bir sikl (mikrosikl) doirasida turli xil shug'ullanish mashg'ulotlari vositalarini qo'llash ketma-ketligini rejalashtirish zarur bo'ladi. Bu sikl turlicha yo'naltirilgan shug'ullanish mashg'ulotlaridan keyingi qayta tiklanish jarayonlarining sinergik o'zaro harakatlari bilan xarakterlanishi lozim. U odamning organlari va tizimlarida ijobiy berilgan siljishlarga olib kelishi lozim.

Tejash tamoyili. Hujayralarda oqsillarning sintezlanish jarayon-

larining kuchayishi bilan bog‘lanadigan adaptatsion qayta qurilishlar qon va to‘qimalardagi gormonlarning konsentratsiyasiga bog‘liq bo‘ladi. Shundan kelib chiqqan holda ikki voqelikni hisobga olish lozim bo‘ladi:

- o‘ta zo‘riqish - stress holatida aynan maksimal shiddatda yoki umumiy va mahalliy uvishish bilan bog‘liq bo‘lgan og‘riqli hislarda gormonlar ko‘proq ajraladi;

- glyukoza va qon yetishmovchiligida, vodorod ionlarining oshirilgan konsentratsiyalarida kislorodni yuqori darajada iste‘mol qiladigan mashqlarni bajarishda oqsillar, shu jumladan gormonlar metabolizm uchun substrat bo‘lib xizmat qiladi.

Shundan kelib chiqqan holda, katta miqdordagi gormonlarning ajralib chiqishini rag‘batlantiradigan shug‘ullanish mashg‘ulotlaridan keyin organizmda maksimal metabolizmni, xususan anaerob ostona va undan yuqori darajadagi metabolizmni chaqiradigan shiddat bilan uzoq muddatli shug‘ullanish mashg‘ulotlarini o‘tkazish mumkin emas.

“Tejash” prinsipidan mezotsikllarni yaratish zarurati vujudga keladi. Mezotsikllar doirasida 14-21 kun davomida endokrin tizimiga yuklama berish va so‘ngra unga 7-10 kun davomida qayta tiklanish imkonini berish lozim bo‘ladi. Endokrin tizimiga yuklama berish rivojlanib boruvchi kuch yoki tezkor-kuch mashqlari bilan, yuklamadan xoli qilish esa - tonusni barqarorlashtiradigan mashqlar bilan amalga oshiriladi.

### **§1.3 jismoniy yuklamalarni klassifikatsiyalash uslubi**

Jismoniy yuklamalarni klassifikatsiyalash rejalashtirish uchun ham, bungacha bajarilgan shug‘ullanish ishlarining natijalarini baho-lash uchun ham zarurdir.

Voqeliklarni klassifikatsiyalash tashqi alomatlar bo‘yicha ham (ahamiyatga molik bo‘lmagan) va ma‘nosi bo‘yicha ham (ahamiyatga molik bo‘lgan) amalga oshirilishi mumkin. Hozirgi kunda jismoniy mashqlarning ko‘plab alomatlar bo‘yicha klassifikatsiyalari mavjud: siklik va atsiklik; alaktat, glikolitik, aralash, aerobik; maksimal, submaksimal, katta va mo‘tadil quvvatli va boshqalar.

Mashqlarni organizmga yuklama berish nuqtai-nazaridan maz-

mun bo'yicha klassifikatsiyalashni amalga oshirishda klassifikatsion alomat sifatida organlarning hujayralarida ma'lum bir organellalarning giperplaziyalanish jarayonini shartlaydigan I-RNK (informatsion ribonuklein kislota) ning hajmini tanlash lozim bo'ladi, ular mashq-larni bajarish paytida va qayta tiklanish davrida ko'proq faol ravishda faoliyat ko'rsatadi. Bu masalani hal qilish uchun odam organizmining konseptual va matematik modeliga ega bo'lish zarur bo'ladi.

Konseptual model adaptatsion jarayonlarning borishini hayolan imitatsion modellash tirish, jismoniy mashqlarning tizimlar, organlar va hujayralar strukturalariga ta'sirini sifat jihatidan baholash, shuningdek bunday ta'sirlarning ekspertlar tomonidan miqdoriy baholanishi uchun zarur bo'ladi (O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetida o'qish - malakali ekspertlarni tayyorlashdan iborat bo'lishi lozim). Matematik modeldan xulosalarning haqqoniylik mezoni sifatida foydalanish lozim. Shunday qilib, murabbiyning bilimlari jismoniy mashqlarning tizimlar va organlarga ta'sir ko'rsatish uslubiyatini, ya'ni jismoniy mashqlarning asosiy turlarining sportchi organlari va tizimlariga ta'sir ko'rsatish darajasining klassifikatsiyasini, shuningdek matematik imitatsion modellash tirish va yondosh, biologik fanlardagi tadqiqotlardan olingan to'g'ridan-to'g'ri o'lchashlarning qo'llanilishi tufayli fikr-mulohazalarning mosligini isbotlashni o'z ichiga olishi lozim.

Jismoniy mashqlarning adaptatsion jarayonlarning borishiga ta'sirini baholash uslubiyati quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- odam organizmining anatomiya, bioximiya, gistologiya, fiziologiya va biomexanika bo'yicha bilimlarni, mazkur sportchi to'g'risidagi konkret informatsiyani birlashtiradigan hayoliy modeli;
- mashqning to'liq tasvirlanishi: shiddati, davomiyligi, qayta bajarishlar o'rtasidagi dam olish intervali, mashqlar seriyasining soni;

- mashqlarni hayolan imitatsiyalash, ya'ni biokimyoviy va fiziologik jarayonlarning tasvirlanishi;

- turli hujayralarda hosil bo'lgan I-RNK miqdorini ularning ma'lum bir organellalarning sintezlanishiga ta'sirini hisobga olish bilan ekspert baholashi.

Jismoniy mashqni tahlil qilishga misol keltiramiz. Aytaylik,

maksimal alaktat quvvat, 100% shiddatga ega bo'lgan jismoniy mashq quvvatni 10% ga tushirishgacha bajariladi; faol dam olish intervali (maksimal alaktat quvvatning 5% i) - 30 sekund; bu sikl uch marta takrorlanadi.

Maksimal shiddat asosiy muskul guruhlaridagi barcha DE larni rekrutlashni talab qiladi. Barcha muskul tolalarida ATF (adenazin-trifosfat kislota)ning muskul qisqarishlariga sarflanishi boshlanadi. Qisqarish va bo'shashish davomida ATF zahiralari kreatin-noorganik fosfat hisobiga to'ldiriladi. Shu sababli mashqning "bajarishdan bosh tortguncha" davomiyligi harakat siklida qisqarish va bo'shashish davrlarining nisbatiga bog'liq bo'ladi. Ma'lumki muskulning maksimal izometrik zo'riqishining davomiyligi 2 sekunddan oshmaydi, 130 N qarshilikka ega bo'lgan veloergometrd pedalni aylantirish 7,6 sekundni, 55 N qarshilikli veloergometrd - 10 sekundni, qarshiliksiz veloergometrd - 25 sekundni tashkil qiladi.

Kreatin-noorganik fosfat zahiralari mashqni bajarish davomiyligini belgilaydi va zahiralari 50% ga kamayganda quvvat keskin pasayadi. Muskul tolalarida erkin kreatin va noorganik fosfat hosil bo'ladi. Bu glikologik muskul tolalarida (rus. GMV) ya'ni tez muskul tolalarida (rus. BMV) anaerob glikolizlanishni va oksidlovchi muskul tolalarida (rus. OMV), ya'ni sekin muskul tolalarida (rus. MMV) aerobik glikolizlanishni rag'batlantiradi, shu sababli mashqni bajarish davomida va dam olish intervallarida kreatin-noorganik fosfat zahiralari to'ldiriladi. Biroq to'ldirilish to'liq bo'lmaydi, chunki bu jarayon-larning quvvati muskul qisqarishini energiya bilan ta'minlashning maksimal quvvatidan 2-3 marta kam bo'ladi.

Takroriy mashq kichikroq quvvat bilan bajariladi, "bajarishdan bosh tortish" kreatin-noorganik fosfat zahiralarning ko'proq tugashida sodir bo'ladi. Glikolitik muskul tolalarida laktat va N (vodorod ionlari yoki proton) hosil bo'ladi va qonga chiqadi. Vodorod ionlari qonning bufer tizimlari bilan o'zaro ta'sirlarga kirishadi. Bu nometabolik SO<sub>2</sub> (uglekislota gazi) hosil bo'lishini chaqiradi. Nometabolik SO<sub>2</sub> tomirlar, karotid tanalari va nafas olish markazining xemoretseptorlariga ta'sir ko'rsatadi (tomirlarning kengayishi, nafas olishning tezlashishi va yurak ishlashining faollashuviga olib keladi).

Uchta sikl davomida (mashq qilish - dam olish) erkin kreatin va N ionlarining oshirilgan konsentratsiyasi tez muskul tolalarining

hujay-ralarida 100120 sekund davomida saqlanadi. Bu vaqt davomida kreatin va N ionlari yadroga suqilib kiradi. Kreatin yadro mitoxon-driyalarining faoliyatini faollashtiradi. Transkripsiyani tezlashtiradi, N ionlari membranalarning labillashishini chaqiradi va oqsil molekula-larida, jumladan DNK molekulalarida ham (dezoksiribonuklein kislota) elektrostatik bog‘lanishlarni uzadi. Bularning barchasi gormonlardagi nasliy informatsiyaga yetib borishni osonlashtiradi. Shundan kelib chiqqan holda, bunday seriyalar davomida va Shundan keyin 60 sekund davomida RNK ning faol tarzda sintezlanishi boradi. Bu keyinchalik miofibrillalar, sarkoplazmatik retikulumlarning sintezlanishini ta‘minlaydi. I-RNKlarning hayot kechirish davomiyligi minutlar bilan cheklanadi (Viru, 1977, 1981). Shu sababli I-RNK lar hosil bo‘lishini qo‘llab-quvvatlash uchun mashqlarning bir nechta seriyasini bajarish zarur bo‘ladi.

Oksidlovchi muskul tolalarida birinchi mashqdan keyinoq aerobik jarayonlarning shiddati ortadi. Shu sababli ularda erkin kreatin mavjud bo‘ladi, biroq N ionlarining konsentratsiyasi minimal bo‘ladi, chunki aerobik jarayonlar N ionlarining yutilishi bilan tutashib ketadi. Shu sababli oksidlovchi muskul tolalarida transkripsiya jarayonlari faollasha olmaydi.

Mashqni bajarish davomida glikolitik muskul tolalari va qonda katta miqdorda N ionlari va laktat to‘planadi, biroq bu jarayon seriyadan keyin ham davom etadi, chunki glikolitik muskul tolalarida kreatin-noorgani fosfatning resintezlanishi anaerob glikolizlanish hisobiga boradi.

Tasvirlangan shug‘ullanish mashg‘ulotlarining I-RNK hosil bo‘lishiga ta‘sir darajasini aniqlash uchun har qanday jismoniy mashq barcha organlar va tizimlarni u yoki bu darajada ishga jalb qilishini, biroq ma‘lumki, skelet muskullari, yurak- qon tomir tizimi, nafas olish tizimi va endokrin tizimi ko‘proq shiddat bilan faoliyat ko‘rsatishini hisobga olish lozim bo‘ladi. Bu tizimlar organlarining har bir hujayrasida organellalarning uchta asosiy tizimini ajratish mumkin (jismoniy mashqlarni bajarishda faollik nuqtai-nazaridan):

- sarkoplazmatik retikulumga ega bo‘lgan miofibrillalar;
- mitoxondrial tizimlar, mioglobin va muskul tolasining bu organellalarning massalari bilan bog‘lanadigan kapillyarlanishi;

- hujayraning energetik resurslari, avvalambor glikogen.

Bu qaydlarni hisobga olish bilan 1.2-klassifikatsion jadval taklif qilinadi. U organ, hujayra, organella va mashq “grafa”larini o‘z ichiga oladi. “Organ” grafasida jismoniy faollikni ta‘minlaydigan barcha asosiy organlar sanab o‘tilgan. Ro‘yxatda markaziy asab tizimi ko‘rsatilmagan, chunki mashqlar avtomatlashgan harakat ko‘nikmasidan foydalanish bilan bajariladi deb taxmin qilinadi. Shuningdek markaziy asab tizimi strukturalarining adaptatsiyalanish muammolarini texnik tayyorgarlik nazariyasida ko‘rib chiqish taklif qilinadi. “Hujayra” grafasida tizimlarning mos keluvchi organlari hujayralarining nomlari ko‘rsatilgan. Shuni qayd qilamizki, yurak muskulining faollashuvida qisqarish aktida uning barcha miokardiotsit-hujayralari ishtirok etadi. Diafragma yoki skelet muskullarining faollashuvida boshqa manzara vujudga keladi. Bu organlar uchun muskul tolalarining rekrutlanish qoidasini hisobga olish bilan muskul hujayralarining turlari bo‘yicha (glikolitik, oksidlovchi va oraliq muskullar) ko‘proq detalli klassifikatsiya taklif qilinadi. Endokrin tizimi va immun tizimiga ta‘sir ko‘rsatadigan yuklamalarni klassifikatsiyalashda murakkabliklar vujudga keladi. Bu tizimlar jismoniy mashqlarga nisbatan o‘zlarining spetsifik reaksiyalariga ega bo‘lgan ko‘plab organlarga ega bo‘ladi. Klassifikatsiya amaliy foydalanishda qulay bo‘lishi uchun ikkita tizimni birlashtirishga qaror qilingan. Bunda quyidagiga amal qilingan: endokrin tizimi organlarining (bezlarning) gipertrofiyasi va mitoziga ko‘maklashuvchi jismoniy mashqlar orqa miyada, shuningdek immun tizimining boshqa organlarida tana hujayralarining ko‘payishini faollashtirishi lozim. Bunday bog‘lanish endokrin tizimining funksional imkoniyatlarining ortishi barcha to‘qimalarda, jumladan immun tizimi organlarida anabolik jarayonlar-ning borishi uchun qulay fon yaratishi sababli zarurdir. Aniq fikrga kelish uchun hayoliy (yoki matematik) modellashtirish obyekti sifatida buyrak usti to‘qimalari - bezlar tanlangan, ularning hujayra-laridagi endoplazmatik to‘rda taxminan 50tacha gormonlar ishlab chiqariladi. Ular orasida kortikosteroidlar (atrof-muhitning ta’sirlariga adaptatsiyalanish uchun mas’ul), androgenlar va ekstrojenlar (anabolik effektga ega) mavjud bo‘ladi. Gipotolamogipofizik buyrak usti to‘qimalari tizimi umumiy adaptatsion sindromning rivojlanishi uchun mas’uldir (Virus, 1978, 1987).

Jismoniy mashqlarni bajarishda organlarning hujayralariga berila-digan jismoniy yuklamalarni klassifikatsiyalashni bajaramiz: (shiddat -100%, davomiylik - 10 sekund, dam olish intervali - 30 sekund, 3 marta bajariladi).

1.2-klassifikatsion jadvalni to'ldiramiz. Bunday mashqda yurak qisqarishlari soni bilan faqat ikkinchi marta yondashuvdan keyin ishlaydi. Bunday holat dam olish intervalida, uchinchi mashqni bajarishda va seriyadan keyingi dam olishda yana 60 sekundgacha saqlanadi. Shundan kelib chiqqan holda yurak maksimal yurak qisqarishlari soni bilan 110 sekund faoliyat ko'rsatadi. Maksimal yurak qisqarish soni diastola "nuqsoni" kuzatiladi ya'ni diastola paytida miokardga kirib keladigan qon vaqtning kamligi tufayli miokardning kislorodga bo'lgan talabini to'liq ta'minlash uchun etarli bo'ladigan kislorod miqdorini olib kelmaydi. Gipoksiya anaerob glikolizlanishning rivojlanishiga, miokardiotsitlarda erkin kreatinning paydo bo'lishiga ham, N ionlarinig konsentratsiyasining ortishiga ham olib keladi. Shundan kelib chiqqan holda RNK hosil bo'lishi bilan birgalikda o'tadigan transkripsiya shiddatliroq kechishi lozim bo'ladi. Bu 1.2-jadvalning birinchi qatoriga keyinchalik miofibrillalar va miokardiotsitlarda sarkoplaziatik retikulumning sintezlanishi uchun I-RKN hosil bo'lishining 110 sekundga teng bo'lgan davomiyligini yozish uchun asos bo'ladi.

Mashqning samaradorligi - bu ichki jarayonlarning I-RNK hosil bo'lishiga ta'sir ko'rsatish darajasi va hujayralar organellalarining N ionlar bilan yemirilishidir. Samaradorlik 1 dan (berilgan organella maksimal samarali bo'lgan mashq) -1 gacha (vodorod ionlarining hujayra organellalariga maksimal yemiruvchi ta'siri) o'zgarishi mumkin.

Bizning holatimizda samaradorlikni faqatgina mashqning 110 sekunda 1 ga teng deb qabul qilish mumkin. Bunday shug'ullanish mashg'ulotini bajarishning natijasi quyidagiga teng bo'ladi:

$$N = D \times S = 110 \times 1 = 110 \text{ s.}$$

Yurakdagi mitoxondriyalar butun mashq davomida -180 sekund shiddat bilan "nafas oladi". Biroq mashqning samaradorligi, ya'ni miokardiotsitlardagi mitoxondriyalarning giperplaziyalanishi miofibrillalarning giperplaziyalanish darajasi bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'lanadi. Shu sababli 1.2-jadvalga faqatgina miofibrillalarning giperplaziyalanishi uchun foydali bo'lgan vaqtni yozish taklif qilinadi.

Strukturaviy qayta tuzilishlar o'rtasidagi bunday chambarchas bog'lanishni hisobga olish bilan 1.2-jadvalni soddalashtirish mumkin va yurakning to'g'risidagi qatorda (organella grafasida) faqatgina bitta -Miofibrilla + Sarkoplazmatik retikulum + Mitoxondriya +Miogloblin +Kapillyarlar qatorni qoldirish mumkin. Ya'ni miokardiotsitlarda miofibrillalarning giperplaziyalanish darajasini oshirish uchun mo'l-jallangan shug'ullanish mashg'ulotlari kelgusida muqarrar ravishda boshqa strukturalar - sarkoplazmatik retikulum, mitoxondriyalar, miogloblin, kapillyarlar va boshqalarning giperplaziyalanishini chaqi-radi (simmorfoz nazariyasiga ko'ra). Miokar-diotsitlardagi gliko-gen sarflanadi va qonda laktatlar paydo bo'lishi bilanoq ekzogen energiya manbai ustuvor ahamiyatga ega bo'ladi. Shundan kelib chiqqan holda shunday deb yozamizki - yurak 110 sekund davomida shiddatli faoliyat ko'rsatgan, yurakda glikogen sarfining samaradorligi xuddi ta'sirning natijasi kabi 0 ga teng.

Diafragma, xuddi yurak kabi, 110 sekund maksimal shiddat bilan faoliyat ko'rsatadi, MT-1 da (muntazam rekrutlanadigan muskul tolalarida) gipoksiya holati vujudga kelmaydi. Shu sababli Miofibrilla + Sarkoplazmatik retikulum qatoriga quyidagicha yozamiz: davomiylilik - 180 sekund, samaradorlik - 0 (chunki sarkoplazmada N ionlarinig oshirilgan konsentratsiyasi mavjud bo'lmaydi), natija - 0; Mitoxondriya + Miogloblin + Kapillyarlar qatoriga quyidagini yozamiz: davomiylilik - 180 sekund, samaradorlik - 0 (chunki aftidan miofibrillalarning soni bilan mitoxondriyalarning massasi o'rtasida to'liq mos kelish mavjud bo'ladi), natija 0; glikogen qatoriga quyidagini yozamiz: davomiylilik - 180 sekund, samaradorlik - 0 (chunki glyukoza va qon laktatidan foydalaniladi), natija - 0.

Diafragmaning MT-2 sida jarayonlar biroz boshqacharoq boradi. Ular faqatgina maksimal yoki shunga yaqin o'pka ventilyasiyasida rekrutlanadi. Bu MT-2 lar kamdan-kam hollarda faollashishi tufayli piruvatning oksidlovchi fosforillanishining quvvati uning mahsulotining glikolizlanish davomida o'sish kuchidan kam bo'ladi. Shu sababli MT-2 da miofibrillalar va mitoxondriyalarning giperplaziyalanishi, glikogenning to'planishi uchun shart-sharoitlar vujudga keladi, shunda miofibrillalar, Mitoxondriyalar va Glikogen uchun quyidagini yozish mumkin bo'ladi: davomiylilik - 110 sekund, samara-dorlik - 1, natija 110 sekund. Endokrin tizimi (buyrak usti

to'qimalari) maksimal jismoniy faollikda qonga eng ko'p miqdordagi gormonlarni ajratib chiqaradi. Shu sababli 1.2-jadvalga uchta mashqning sof vaqtini yozamiz:  $D = 3 \times 10 \text{ s} = 30 \text{ s}$ , samaradorlikni esa oddiygina formuladan aniqlaymiz  $S = Sh \times Sh = 1 \times 1 = 1$  (boshqa holda, masalan, mashqning shiddati kislorodni maksimal yoki 0,4 darajada bo'lganda samaradorlik  $3 = 0,4 \times 0,4 = 0,16$  ni tashkil qiladi). Kvadratik bog'lanish mashqning quvvati bilan qondagi gormonlar (masalan, adrenalin yoki noradrenalin, Viru, 1987) o'rtasidagi bog'lanishni yaxshi tasvirlaydi.

**1.2-jadval. Jismoniy yuklamalarni organellalarning  
giperplaziyalanishi uchun I-RNK ning sintezlanishi  
bo'yicha klassifikatsiyalash**

| Organ                                            | Hujayra                           | Organella             | Davom-<br>iylik | Samarador-<br>lik | Natija |
|--------------------------------------------------|-----------------------------------|-----------------------|-----------------|-------------------|--------|
| Yurak                                            | Miokardiotsit                     | MF+SPR+<br>MX+MG+K    | 110             | 1                 | 110    |
| Diafragma                                        | MT-1<br>MT-2                      | MF+SPR                | 180             | 0                 | 0      |
|                                                  |                                   | MX+MG+K               | 180             | 0                 | 0      |
|                                                  |                                   | MF+SPR                | 110             | 1                 | 110    |
|                                                  |                                   | MX+MG+K               | 110             | 1                 | 110    |
| Endokrin<br>tizimi -<br>buyrak usti<br>to'qimasi | Adrenokor-<br>tikal               | Endoplazmatik<br>to'r | 30              | 1                 | 30     |
| Muskul                                           | Oksidlovchi<br>muskul to-<br>lari | MF+SPR                | 180             | 0                 | 0      |
|                                                  |                                   | MX+MG+K               | 180             | 0                 | 0      |
|                                                  |                                   | Glikogen              | 180             | 0                 | 0      |
|                                                  | Oraliq muskul<br><br>tolalari     | MF+SPR                | 180             | 0,5               | 90     |
|                                                  |                                   | MX+MG+K               | 180             | 1                 | 180    |
|                                                  |                                   | Glikogen              | 180             | 1                 | 190    |
|                                                  | Glikolitik<br>muskul<br>tolalari  | MF+SPR                | 180             | 1                 | 180    |
|                                                  |                                   | MX+MG+K               | 180             | 0,5               | 90     |
|                                                  |                                   | Glikogen              | 180             | 1                 | 180    |

**Eslatma:** MF+SPR - miofibrillarlar va sarkoplazmatik retikulum; MX+MG+K - mitoxondriyalar, mioglobin va kapillyarlar; MT - muskul tolasi; O, O, va G - oksidlovchi, oraliq va glikolitik muskul tolasi; D - mashqning hujayraga ta'sir ko'rsatish davomiyligi; S - mashqning I-RNK hosil bo'lishiga ta'sir ko'rsatishining samaradorligi; N - mashqning natijasi.

Maksimal fiziologik faollik, muskullarning ritmik qisqarishi va bo'shashishi bilan mexanik ishni bajaradigan muskullar qon bilan yaxshi ta'minlanishga ega bo'ladi (yurakka muskul nasosi yordam beradi), shu sababli sekin muskul tolalarida kreatin-noorganik fosfor konsentratsiyasi kamaygandan keyin oksidlovchi fosforillanishning shiddati ortadi. Shu sababli o'zining N ionlari ham, qondan kirib keladigan N ionlar ham metabolizatsiyalanadi (suvga).

Oraliq muskul tolalarida vodorod ionlarining qandaydir bir to'planishi sodir bo'lishi mumkin. Tez muskul tolalarida esa mashqlar davomida, ayniqsa dam olish intervallarida bunday hodisa kuzatilishi mumkin. Shuni eslatamizki, I-RNK faqatgina muskul tolalarida erkin kreatin va vodorodning yuqori konsentratsiyalari birlashganda faol tarzda hosil bo'lishi lozim. Shu sababli 1.2 - jadvalga quyidagini yozishimiz mumkin: MF+SPR SMT D = 180 s, S = 0, N = 0; MF+SPR PMTD = 180 s, S = 0,5, N = 90 s; MF TMTD = 180 s, S = 1, N = 180 s.

Mitoxondriyada sekin muskul tolalari faqatgina yangi miofibrillalar atrofida hosil bo'lishi mumkin. Shu sababli quyidagini yozamiz: MX + MG + K SMTD = 180 s, S = 0, N = 0. OMTda quyidagini yozish mumkin: D = 180 s, N = 1, N = 180 s. GMTda vodorod konsentratsiyasi keskin ortadi. Bizga ma'lumki, mitoxondriyalarning shishishiga, kristlarning yo'qolishiga, funksional imkoniyatlarning yo'qolishiga olib keladi (Lenindjer, 1966: Shmeling va hammualliflar, 1985: N.N. YAKovlev, 1974; Hoppeler, 1987). Shu sababli quyidagicha yozish lozim bo'ladi: D = 180 s, S = 0.5 (chunki uvishish hali eng chekka darajada emas), N = 90 s. Bu yozuvdan ko'rinib turibdiki, mashq GMT ning aerobik imkoniyatlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi lozim.

Glikogen — barcha muskul tolalarida metabolizmning substratidir. Shu sababli u sarflanadi va qayta tiklanish davomida o'ta kuchli qayta tiklanishni kutish mumkin. Shunday qilib, to'ldirilgan 1.2-jadval ishda qaysi organlar va tizimlar harakatga keltirilganligini va I-RNK ning hosil bo'lishini ta'minlaydigan ta'sir ko'rsatish darajasi qandayligini ko'rsatadi, I-RNKning bo'lishi qayta tiklanish davomida uzoq muddatli adaptatsion jarayonlarning rivojlanishini (yuqori qayta tiklanish), hujayralarda organellalarning giperplaziyalanishining rivojlanishini ta'minlaydi. Hayoliy imitatsion modellash-tirish (fiziologik mulohaza yuritish) ko'nikmalarini hosil qilish uchun

muntazam ravishda mashq qilish zarur bo‘ladi. Kriteriy sifatida sport fiziologisi va bioximiyadan olingan tadqiqot ma’lumotlari xizmat qilishi mumkin. Biroq bunday taqqoslash katta miqdordagi informatsion materialning bo‘lishini talab qiladi, shu sababli matematik imitatsion modelashtirish katta istiqbollar va imkoniyatlarga ega bo‘lib hisoblanadi, unda alohida muskul tolalarida ham, muskulning o‘zida ham aksariyat biokimyoviy va fiziologik jarayonlarni kuza-tishga muvaffaq bo‘linadi.

### **Nazorat savollari**

1. Qanday jismoniy tayyorlash prinsiplarini bilasiz?
2. Uzluksizlik tamoyili deganda nimani tushunasiz?
3. Adaptatsion jarayonlarning maxsusligi (spetsifik) va geteroxronligi prinsipi deganda nimani tushunasiz?
4. Tejash prinsipi deganda nimani tushunasiz?

## **II BOB. FUTBOLCHILARNING MAXSUS JISMONIY TAYYORGARLIGI**

### **Musobaqaviy harakat faoliyati**

Futbolchilarning jismoniy tayyorgarligini rejalashtirishning maqsad va vazifalarini tanlash masalasini hal qilish uchun ularning o'yinlardagi harakat faolligini o'rganib chiqish zarur bo'ladi.

#### **§ 2.1. Futbolchilarning o'yindagi faolligi**

Futbolchilar qoidalarga ko'ra 45 daqiqadan ikki qism o'ynaydilar. Ularning orasida 15 daqiqa tanaffus beriladi. Uzluksiz harakatlar hajmini qayd qilish uchun turlicha uslubiyatlardan foydalaniladi. Harakat hajmlarini dastlabki baholash vizual ekspert baholashi asosida bajarilgan (Knowles, Brooke, 1974). Aniqlik, ishonchlilik va informativlikni oshirish uchun futbolchilarning harakatlanish xarakterini aniqlaydigan instrumental uslublar ishlab chiqilgan. Futbolchining o'zini qanday tutganligi to'g'risidagi hikoyani magnitofonga yozib olish futbolchilarning harakatlarini qayd qilishning eng sodda instrumental varianti bo'lib hisoblanadi (Reilly, Thomas, 1976). Futbolchining harakatlarini videotasvirga yozish murakkabroq uslub bo'lib hisoblanadi (kionyozuv: Agnevik, 1970; Saltin. 1973; Van Gool et al. 1988; videoyozuv: Withers et al., 1982 -bitta kamera; Smaros, 1980 — ikkita kamera; Bangsbo et al, 1991 — to'rtta kamera). Futbolchilarning harakatlanishini aniqlashning avtomatlashtirilgan tizimi yaponiyalik tadqiqotchilar tomonidan ishlab chiqilgan (Ohashi et al, 1988). Videokameralar burchaklardagi bayroqchalar atrofiga o'rnatilgan. So'ngra operator yozuvni ko'rish bilan elektr burchak o'lchagichlarni boshqarish yordamida konkret o'yinchining qanday harakatlanishini kuzatishi mumkin bo'lgan. O'yinchining ko'chishi-ning ikkita burchagining ma'lumotlari bo'yicha ikkita monitorda sof geometriya bo'yicha har 0,5 s da masofani va shundan kelib chiqqan holda futbolchining ko'chish tezligini hisoblash mumkin bo'lgan.

Futbolchilarning harakat faolligini tahlil qilish natijasida shu narsa aniqlanganki, o'yin davomida bitta qismda ular pasttezliklar bilan (0 dan 2.5 m/s gacha; yurish, sekin yugurish) 2,3 km atrofida, o'rtacha

tezliklar bilan (2,5 dan 6 m/s gacha) -2,3-2,8 km, yuqori tezliklar bilan (6 m/s dan maksimumgacha) - 300 — 500m masofani bosib o'tadilar (Arestov, Godik, 1980). Futbolchi o'yin davomida jami bo'lib o'rtacha 10-12 km masofani bosib o'tadi. O'yin faolligining hajmi bo'yicha birinchi va ikkinchi taym umuman olganda bir-biridan farq qilmaydi.

Turlicha shiddat bilan ko'chishlarning yig'inda davomiyligini tahlil qilish (Yamanaka et al., 1988) shuni ko'rsatadiki, turli xil malaka darajasiga ega bo'lgan jamoalar o'rtasida faqatgina maksimal shiddat bilan harakatlanish tezligi o'rtasida sezilarli farqlar mavjud bo'ladi: universitet jamoasi — 104s(b=53s), oliy liga jamoasi - 262s (b=28,3s). Boshqa kichikroq tezliklar bilan harakatlanish davomiyliklari ham farq qiladi. Biroq faqat 10-20% ga farq qiladi.

Ko'rinib turibdiki, sprintcha tezlanish o'yinning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Tezlanishlarni amalga oshirishda, qoidaga ko'ra, taktik va strategik vazifalar (topshiriqlar), ya'ni to'pni olib qo'yish, olib yurish, aldab o'tish, bo'sh joyga chiqish, raqib jamoaning hujumiga qarshi kurash olib borish, himoyachilarning hujumchilarni ta'qib qilishi va boshqalar bajariladi. Sprintcha tezlanishlar sonidan eng ko'pi 18 (45 %) va 32 m (30%) kesmalarga to'g'ri keladi. Uzoqroq masofalarga tezlanishlar quyidagicha: 44 m gacha - 10 %, 55 m gacha — 5 % va 55 m dan oshiq — 5 %. Musobaqaviylik faoliyatiga bunday bahoni ko'pgina mualliflar beradilar (Withers et al., 1982; Mayhew et al., 1985; Yamanaka et al., 1987; Van Goo! et al., 1988; Ohashi et al., 1988). Shuni qayd qilamizki, tezlanishlarning nisbiy qiymati ma'lum bir uzunlikdagi kesmalarning yig'indi uzunligining o'yin davomidagi barcha tezlanishlar umumiy uzunligiga nisbatini bildiradi (Withers et al., 1982).

Futbolchilar faolligining xarakteri bajariladigan texnik harakatlarining hajmiga ta'sir ko'rsatadi. Ular butun futbol jamoasiga o'rtacha 500 tadan 1000 tagacha to'g'ri keladi. Shulardan: uzatishlar  $494 \pm 10$  (qisqa masofaga  $318 \pm 48$ , o'rta masofaga  $147 \pm 18$ , uzoq masofaga  $19 \pm 5$ ), to'pni olib yurish  $138 \pm 21$ , aldab o'tishlar  $51 \pm 8$ , darvozaga zarbalar  $19 \pm 8$ , to'pni olib qo'yish  $117 \pm 14$ . Futbolchi (himoyachi) taxminan o'rtacha 78 texnik harakatlarni bajaradi: uzatishlar - qisqa masofaga -16, o'rta masofaga —13, uzoq masofaga —9, to'pni olib

yurishlar — 15, to'pni olib qo'yishlar — 12, to'pni egallab olishlar — 5, aldab o'tishlar - 5, to'pni boshi bilan o'ynash - 3 {Arestov, Godik, 1980; Kirillov, 1985).

O'yin davomida maksimal shiddat bilan yugurib o'tiladigan kesmalarning yig'indi soni va texnik harakatlar sonini oliy malakali futbolchilarning jismoniy va texnik tayyorgarligini takomillashtirish uchun hech qanday qanoatlanarli deb bo'lmaydi. Shu sababli musobaqa faoliyatini (o'yinlarda ishtirok etishni) futbolchilarning jismoniy va texnik tayyorgarligini oshirish uchun samarali deb bo'lmaydi.

## **§ 2.2 Musobaqa yuklamasiga fiziologik reaksiya**

O'yin davomida o'rtacha yurak qisqarish soni daqiqasiga 157 zarbani yoki maksimumal yurak qisqarishlar sonining 70-80% ini tashkil qiladi (Godik, 1980). O'yin davomida sut kislotasining (laktatning) konsentratsiyasi ma'lum bir dinamikaga ega bo'ladi. Birinchi qismda 20-25 minut davomida sut kislotasining to'planishi sodir bo'ladi. Birinchi qismning o'rtalarida sut kislotasining konsentratsiyasi maksimumga -  $7 \pm 2$  mM/l ga erishadi. So'ngra esa uning barqarorlashuvi kuzatiladi. Tanaffus paytida sut kislotasining konsentratsiyasi 2-3 mM/l gacha pasayadi. Ikkinchi qismda sut kislotasining konsentratsiyasi biroz kamroq bo'ladi va  $4,68 \pm 2$  mM/l ni tashkil qiladi (Gerish va hammualliflar, 1987).

Futbolchi organizmining reaksiyasini quyidagicha tushuntirish mumkin: nafas olish va yurak-qon tomir tizimlari hali yetarlicha shiddat bilan faoliyat ko'rsatmaydigan birinchi taymda tezlanishlarni amalga oshirish natijasida sut kislotasi to'planadi. So'ngra anaerob glikolizlanish mahsulotlari organizmning suyuq muhitining gomeos-tazini ta'minlaydigan barcha tizimlarning faoliyatini qo'shimcha ravishda shiddatlantiradi - nafas olish kuchayadi, yurak qisqarishlari chastotasi ortadi, oksidlovchi muskul tolalarida aerobik jarayonlarning shiddati ortadi. Fiziologik reaksiyalarning bunday kechishi natijasida sut kislotasi konsentratsiyasining asta-sekin ortishi, so'ngra esa barqarorlashuvi kuzatiladi. Shuni qayd qilib o'tish lozimki, o'yin faolligini futbolchi tomonidan o'z-o'zicha tartibga solish omili ham o'z o'rniga ega bo'ladi. Qonda sut kislotasining

konsentratsiyasi 7-9 mM/l ga, oyoq muskullarida esa bundan ham anchagina yuqori darajaga yetganda muskullarning mahalliy toliqishi kuzatilishi sababli to'laqonli tezlanishni amalga oshirishning iloji bo'lmaydi. Ya'ni GMT da shunchalik ko'p vodorod ionlari, laktat to'planadiki, natijada bu muskul tolalarining qisqarishi qiyinlashib qoladi. Nermansen (1981) ning taxmin qilishicha, vodorod ionlari aktda kalsiy qo'shilishi lozim bo'lgan joyni egallaydi. Natijada ko'ndalang ko'prikchani hosil bo'lishining iloji bo'lmaydi. Muskul to'liq kuchini namoyon qila olmaydi. Bu o'yinchi tomonidan mahalliy toliqish sifatida his qilinadi. U o'yinchini o'yin faolligini pasaytirishga majbur qiladi. Natijada GMT rekrutlanishdan to'xtaydi. Qonda sut kislotasi konsentratsiyasi-ning ortishiga chek qo'yiladi.

O'yin davomida GMT ning rekrutlanishini talab qiladigan tezlanishlarni amalga oshirish ularda glikolizlanishning shiddatlanishiga olib keladi. Sut kislotasi GMT glikogenidan hosil bo'ladi. So'ngra u qo'shni oksidlovchi muskul tolalariga kirib keladi. Bu yerda sut kislotasi qaytadan piruvatga aylanadi va oksidlovchi fosforillashga tortiladi. Sut kislotasining bir qismi qonga o'tadi so'ngra laktat butun organizmga tarqaladi. Miokard, diafragma, boshqa muskullarda oksidlanishning substrati bo'lib qoladi. Sut kislotasi asosan faoliyat ko'rsatuvchi muskullarda oksidlanadi. Shuni qayd qilamizki, passiv dam olishda sut kislotasi 60 minutdan oshiq muddat davomida organizmda qoladi. Yuqorida keltirilganlardan shu narsa kelib chiqadiki, oksidlovchi muskul tolalari va glikolitik muskul tolalarining glikogeni oksidlanishning asosiy substrati bo'lib hisoblanadi. Biopsiya (muskul to'qimalaridan namunalar) olish bilan o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'yin davomida glikogen zahiralari 10-60% ga kamayadi. Bu 600 grammgacha glikogen sarfiga mos keladi (Bishops K., Gerard X.-V. 2003). Bu ma'lumotlar ishonarli tarzda shuni tasdiqlaydiki, o'yin davomida GMT ning rekrutlanishini talab qiladigan tezlanishlarni amalga oshirish shunga olib keladiki, oksidlovchi muskul tolalari va glikolitik muskul tolalarining glikogeni muskul-larda ATF ning resintezlanishi uchun asosiy energiya manbai bo'lib hisoblanadi.

Shunday qilib, samarali futbol o'ynash uchun sportchi oyoq muskullarining yuqori darajadagi funksional tayyorgarligiga, aynan esa kuch va muskullarning yurakning faoliyat ko'rsatishi hisobiga

mos ravishda kislorod bilan ta'minlanishida kislorodni iste'mol qilish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim. Shu sababli asab-muskul apparati, yurak-qon tomir tizimi va odamning boshqa organlarining tuzilishi-ning o'ziga xos xususiyatlarini bilish murabbiyning ijodiy tarzda ishlashi uchun zaruriy talab bo'lib hisoblanadi.

### **§ 2.3 Futbolchi modeli**

Bizning boshqarish obyektimiz - futbol o'ynaydigan sportchilardir. Tadqiqotning predmeti yuklamalarni rejalashtirishning shunday variantini ishlab chiqish bo'lib hisoblanadiki, bunda shug'ullanish mashg'ulotlari jarayoniga vaqt sarfining berilgan hajmida jismoniy va texnik tayyorgarlikning eng yaxshi natijalariga erishilsin. Shundan kelib chiqqan holda, yuklamalarni rejalashtirishni boshlashdan oldin o'yinchi to'g'risidagi tasavvurlarimizni oydinlashtirib olamiz. Ko'rinib turibdiki, quyidagilar o'yin harakatlarini ta'minlaydigan asosiy tizimlar bo'lib hisoblanadi:

- pastki tugallanishlarning tayanch-harakat apparati (suyaklar va muskullar),

- yurak-qon tomir va nafas olish tizimlari,

- boshqarish apparati (markaziy asabtizimi).

Futbolchilar organizmining qayta tiklanish davridagi adaptatsiyalanish jarayonlari quyidagilarning faoliyati bilan bog'lanadi:

- endokrin tizimi,
- immun tizimi,
- ovqathazm qilish apparati.

Shuni qayd qilamizki, sportchi organizmining asosiy tizimlarini sanab o'tish bilan mualliflar kitobxonlarni ular anatomiya, fiziologiya, bioximiya, biomexanika kurslaridan olgan bilimlarini esga olishga chaqiradilar, chunki endilikda gap yuqorida sanab o'tilgan fanlarda keltirilgan ma'lumotlar va qonuniyatlar bazasi asosida boradi. Ideal modelni (o'rtacha odam, futbolchining) aniqlashtirish uchun birinchi qismda bu fanlardan asosiy ma'lumotlar keltirilgan, aynan esa sportchining hayoliy modeli yaratilgan.

### **Nazorat savollari**

1. Musobaqaviy harakat faoliyati degan tushuncha to'g'risida nimalar bilasiz?
2. Musobaqa yuklamasiga fiziologik reaksiya deganda nimalar tushunasiz?
3. O'yin davomida sut kislotasining o'zgarishi bo'yicha qanday ma'lumotlarga egasiz?
4. Futbolchi organizmining reaksiyasi deganda nimalar tushunasiz?
5. Futbolchi modeli to'g'risida nimalar bilasiz?
6. Futbolchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligi bo'yicha qanday ma'lumotlarga egasiz?

### **III BOB. JISMONIY TAYYORGARLIKNING SAMARADORLIGINI NAZORAT QILISH**

#### **§ 3.1 Futbolchilar tayyorgarligining morfologik va fiziologik o'ziga xos xususiyatlari**

Futbolchilarni antropometrik tadqiq qilishlar shuni ko'rsatadiki, ular o'rtacha 176 sm (167-186) bo'yga, 76 kg (67-86) massaga, 9,5 (8-13) % yog' massasiga ega bo'ladilar. O'lchashlar Mateyka uslubi bo'yicha bajarilgan.

Futbolchilarning funksional imkoniyatlari instrumental laboratoriya uslublari va nazorat testlari yordamida baholanadi. Aerobik imkoniyatlar, qoidaga ko'ra, veloergometr yoki tredmillda bosqichli testni bajarish davomida qayd qilinadigan kislorodni maksimal darajada iste'mol qilish bo'yicha baholanadi. Kislorodni maksimal darajada iste'mol qilishning o'zgarish diapazoni futbolchilarda 59-63 ml/kg/minutni tashkil qiladi. Veloergometrda minutiga 170 zarbada 60 yoki 75 ayl/min sur'at bilan pedalni aylantirishdagi quvvatni o'lchash sobiq Ittifoqda e'tirof etilgan boshqa bir test hisoblanadi. Oliy liga o'yinchilarida M-170  $1500 \pm 150$  (1000-1900) kgm/minutni (Verxoshanskiy YU.V. 1988) yoki  $250 \pm 25$  Vt ni yoki 42 ml/min/kg ni tashkil qiladi.

Futbolchilarning jismoniy tayyorgarligini baholash uchun quyidagi nazorat testlaridan foydalaniladi. Balandlikka sakrash: 56 sm (angliyalik futbolchilar), 49 sm (sovet futbolchilari); sovet futbolchilarida bir oyoqdan ikkinchisiga besh marta sakrash - 12,80 m (12,20 - 13,80); yuqori startdan 30 metrga yugurish - 4,1 s (angliyalik futbolchilar),  $4,248 \pm 0,3$  (sovet futbolchilari); Kuper testi; 12 minut davomida 3,0-3,6 km ga yugurish (Godik, 1980).

Sport o'yinlarida mokisimon yugurish testi keng tarqalishga ega bo'lgan. Futbolchilar tomonidan 3-5 minut qondagi laktat yoki vodorod ionlari konsentratsiyasini o'lchash bilan 7x50 m yugurish testi e'tirof qilingan. Oliy malakali futbolchilar 7x50 m (350 m) masofani zabt etishga 58-64 s vaqt sarflaydilar. Ya'ni bu mashqning energiya bilan ta'minlanishi kreatin-noorganik fosfat zahiralari, sekin muskul tolalaridagi (oksidlovchi muskul tolalaridagi) aerobik jarayonlar, tez muskul tolalaridagi (glikolitik muskul tolalaridagi)

anaerob jarayonlar hisobiga boradi. Shu sababli mashq tugagandan keyin sut kislotasining hosil bo'lishi va to'planishi asosan faoliyat ko'rsatuvchi muskullarning glikolitik muskul tolalarining massasi va ularning testni bajarishda harakatga kelish darajasi bilan aniqlanadi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, 7x50 m masofani bosib o'tish bilan laktat konsentratsiyasi chiziqli bog'lanishga ega, bunda bu chiziqning egilish burchagi barcha sportchilarda deyarli bir xil, jismoniy tayyorgarlik ortib borishi bilan esa bu chiziqning balandligi, ya'ni tenglamaning So (So - yoyilmasini kitobdan qidirib topmadim) erkin a'zosining qiymati o'zgaradi:

$$T = So + 0,013 \text{ (laktat)} \quad T = So + 6,5 \times (7,45 - rN)$$

Shunday qilib, mokisimon yugurish testining har qanday shiddatida futbolchining jismoniy tayyorgarlik darajasini aniqlash imkoniyati mavjud. O'z- o'zidan tushunarliki, maksimal aniqlikka erishish uchun eng yaxshisi maksimal shiddat bilan bir marta yugurishni amalga oshirish yoki ikkita - 20-30 minut dam

olish intervali bilan o'rtacha va maksimal shiddat bilan yugurishni amalga oshirgan ma'qul.

Soning qiymatiga kuch va oksidlovchi muskul tolalarining, ya'ni oksidlovchi fosforillanish glikolizlanishning borishida piruvatning hosil bo'lish tezligidan ortiq bo'ladigan muskul tolalarining aerobik quvvati ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli oksidlovchi muskul tolalarida aerobik glikolizlanish sodir bo'lishi to'g'risida gapirish mumkin. Bu shuni bildiradiki, Co anaerob ostonada (anaerob ostonada yugurish tezligi) bilan bog'langan bo'lishi lozim.

Tez muskul tolalari kuchining ortishi yugurish tezligining ham, ulardagi anaerob glikolizlanish shiddatining ham ortishiga olib kelishi lozim. Shu sababli chiziqning balandligi, yoki Co, o'zgarmasligi lozim.

Shundan kelib chiqqan holda, 7x50 testini o'tkazishda quyidagilarni baholash mumkin:

- anaerob ostonada darajasida yugurish tezligi (Co), ya'ni futbolchi muskullarining aerobik imkoniyatlari va oksidlovchi muskul tolalarining kuchi;
- futbolchi muskullarining tezlik Co dan yoki  $dV = 0,013 \times (\text{laktat})$  dan ortishi bo'yicha kuch imkoniyatlari;

| Familiya | Unvoni                                                  | Natija,<br>sek | (rN) | Co,<br>m/s | T mak,<br>m/s | Co/<br>T mak |
|----------|---------------------------------------------------------|----------------|------|------------|---------------|--------------|
| S-v      | Xalqaro toifadagi sport yarim himoyachi ustasi          | 62,0           | 7,28 | 4,54       | 5,64          | 0,80         |
| P-i      | Xalqaro toifadagi sport hujumkor yarim himoyachi ustasi | 63,2           | 7,08 | 3,16       | 5,54          | 0,57         |
| L-y      | Xizmat ko'rsatgan sport hujumkor yarim hamoyachi ustasi | 59,6           | 7,11 | 3,66       | 5,87          | 0,62         |
| B-v      | Xizmat ko'rsatgan sport qanot hujumchisi ustasi         | 62,3           | 7,19 | 3,93       | 5,62          | 0,70         |
| S-v      | Xizmat ko'rsatgan sport hujumkor yarim hamoyachi ustasi | 60,2           | 7,13 | 3,73       | 5,81          | 0,64         |
| G-v      | Xizmat ko'rsatgan sport hujumchi ustasi                 | 59,2           | 7,15 | 3,96       | 5,91          | 0,67         |
| Z-v      | Xizmat ko'rsatgan sport hujumchi ustasi                 | 65,0           | 7,19 | 3,69       | 5,38          | 0,68         |
| R-s      | Xizmat ko'rsatgan sport yarim hamoyachi ustasi          | 61,8           | 7,25 | 4,36       | 5,66          | 0,77         |
| X-n      | Xizmat ko'rsatgan sport yarim hamoyachi ustasi          | 64,1           | 7,25 | 4,16       | 5,46          | 0,76         |

- Co/T mak tezliklarning nisbati, ya'ni muskul kompozitsiyasining mitoxondriyalarda oksidlovchi metabolik reaksiyalarning quvvati kriteriysi bo'yicha bilvosita integral ko'rsatkich;

Eng yaxshi futbolchilarni tekshiruvdan o'tkazishning (2.1-jadval) ko'rsatishicha, professional tanlov va shug'ullanish mashg'ulotlarining spetsifikasi natijasida hujumchilar Co kattaligining nisbatan kichikroq qiymatlariga ega bo'ladi. Bu bizning talqinimizda

shuni bildiradiki - bu sportchilar yarim himoyachilarga qaraganda glikolitik muskul tolalarining (GMT) ko'proq ulushiga ega bo'ladi. Agar bu nisbat 0,70 dan katta bo'lsa, u holda bunday sportchilarda oksidlovchi muskul tolalari (OMT) ustuvor bo'ladi. Mantiq shunga ishora qiladiki, himoyachilar va hujumchilar ko'proq tezkor bo'lishi lozim (ular maydon bo'ylab kamroq ko'chadi, ulardan bir-biri bilan kurashda eng yuqori tezliklarni namoyish qilish talab qilinadi). Yarim himoyachilar esa o'rta masofalarga yaxshi yuguradigan bo'lishlari, ya'ni yuqori anaerob ostona bilan, ya'ni soning absolyut qiymati bilan "sekin" (muskul kompozitsiyasi bo'yicha) bo'lishi lozim. 2.1-jadvaldagi ma'lumotlar bizning tasavvurlarimizni tasdiqlaydi, masalan, hujum-chilar "tez", yarim himoyachilar "sekin" bo'lib chiqdi, Co esa aerobik imkoniyatlarning darajasini xarakterlaydi va o'zining qiymatlari bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri o'lchashlar davomida olingan anaerob ostona tezliklarining baholariga yaqin bo'ladi. Gerish et al. (1987) ning ma'lumotlariga ko'ra, oliy malakali futbolchilarda anaerob ostona 3,8 - 4,2 m/s tezliklarda kuzatiladi (bunday yugurish tezligida sut kislotasining konsentratsiyasi 4 mM/l ni tashkil qiladi).

Futbolchilar muskullarining biopatlarida o'tkazilgan gistologik testlar quyidagilarni ko'rsatadi. Sonning to'rtboshli muskulida (yon tomondagi boshcha) 40% sekin muskul tolalari va 60% tez muskul tolalari mavjud bo'ladi; sekin muskul tolalari 5500 mkm<sup>22</sup>, tez muskul tolalari 7000 mkm<sup>22</sup> ko'ndalang kesim maydoniga ega bo'ladi. Malakasi pastroq bo'lgan futbolchilarda bu ko'rsatkich mos ravishda 5000 va 6500 mkm<sup>22</sup> ni tashkil qiladi (Jacobs, 1982). Har bir muskul tolasiga 6 ta kapillyar to'g'ri keladi. Futbolchilarda muskullarning kuch imkoniyatlarini oshirish uchun zahira bor. Chunki shtangachilarda sekin muskul tolalari 6600 mkm<sup>22</sup>, tez muskul tolalari 11000 mkm<sup>22</sup> ko'ndalang kesim maydoniga ega bo'ladi, Tessch (1998) ning ma'lumotlariga ko'ra esa 25000 mkm<sup>22</sup> gacha ko'ndalang kesim maydoniga ega bo'ladi. Ya'ni sekin muskul tolalari va tez muskul tolalarining kuchi 30-500% gacha oshirilishi mumkin.

Oyoqning boldir muskulda 56% sekin muskul tolalari mavjud bo'ladi, sekin muskul tolalari 5000 mkm<sup>22</sup>, tez muskul tolalari 6000 mkm<sup>22</sup> ko'ndalang kesim maydoniga ega bo'ladi.

Shuni qayd qilamizki, Vengriyalik milliy terma jamoaning 15-

16 yoshli futbolchilarida kislorodni maksimal darajada iste'mol qilish - 66 ml/kg/min, sonning yon muskulida sekin muskul tolalari - 48,6%, sekin muskul tolalarining ko'ndalang kesim maydoni 4000 mkm<sup>2</sup>, tez muskul tolalarining ko'ndalang kesim maydoni 4300 mkm<sup>2</sup>, oyoqning boldir muskulda sekin muskul tolalari - 55,8%, sekin muskul tolalarining ko'ndalang kesim maydoni 2848 mkm<sup>2</sup>, sekin muskul tolalarining ko'ndalang kesim maydoni 3770 mkm<sup>2</sup> ni tashkil qiladi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, futbolchilarning malakasi ortib borishi bilan sekin muskul tolalari va tez muskul tolalarida ko'ndalang kesim maydoni ortadi. Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, sekin muskul tolalari va tez muskul tolalari kuchining ortishi futbolchilarning jismoniy tayyorgarligining o'sishiga olib keladi. Kislorodni maksimal darajada iste'mol qilish ko'rsatkichi bo'yicha biror-bir sezilarli farqlarni ko'rmaymiz - barcha sportchilar 56-66 ml/kg/min ko'rsatkichga ega. Shundan kelib chiqqan holda kislorodni maksimal darajada iste'mol qilishga o'tkazilgan test oliy malakali futbolchilarning jismoniy tayyorgarligini baholash uchun informatsiya bera olmaydi.

Futbolda joyidan turib 30 yoki 50 m ga yugurish, joyidan turib uzunlikka sakrash va oyoqdan-oyoqqa besh marta sakrash natijalari kuch-tezlik tayyorgarligining, 2000-3000 m ga yugurish yoki 12 minutlik Kuper testining natijalari chidamlilikning informativ ko'rsatkichlari bo'lib hisoblanadi.

Misol sifatida angliyalik yuqori malakali va yuqori mala-kali bo'lmagan futbolchilarni (2.2- jadval), shuningdek angliya premer ligasining asosiy va o'rinbosarlar tarkiblari o'yinchilarini testdan o'tkazish ma'lumotlarini (2.3-jadval) keltirish mumkin (Ayrapetyans L.R. Godik M.A.1991).

## 2.2-jadval. Turlicha malakali futbolchilarning jismoniy rivojlanish va funksional tayyorgarlik darajasi.

| Ko'rsatkich                                                 | yuqori malakali<br>n = 37 | yuqori malakali bo'lmagan<br>bo'lmagan<br>n = 40 |
|-------------------------------------------------------------|---------------------------|--------------------------------------------------|
| Yoshi, yil                                                  | 23,5                      | 26,8                                             |
| Bo'yi, sm                                                   | 181                       | 175                                              |
| Tana og'irligi, kg                                          | 82,6                      | 76,5                                             |
| Bo'y/vazn indeksi                                           | 25,3                      | 24,9                                             |
| Joyidan turib uzunlikka sakrash, m                          | 2,44                      | 2,28                                             |
| Joyidan turib balandlikka sakrash, sm                       | 59,4                      | 51,6                                             |
| Kislorodni maksimal darajada iste'mol qilish, ml/kg/min     | 54,1                      | 51,4                                             |
| Kuper testi, m                                              |                           |                                                  |
| 100 m ga yugurish, sekund (2 min dam olish intervali bilan) | 2990                      | 2866                                             |
| 5 marta urinishdan o'rtacha natija)                         | 13,44                     | 14,11                                            |

## 2.3-jadval. Angliya premer ligasi klublarining asosiy va o'rinbosarlar tarkiblari futbolchilarining jismoniy tayyorgarligi.

| Ko'rsatkichlar                                          | Asosiy tarkib | O'rinbosarlar tarkibi |
|---------------------------------------------------------|---------------|-----------------------|
| Tana og'irligi, kg                                      | 77,7          | 69,6                  |
| Yog'lar, %                                              | 12,6          | 13,1                  |
| Egiluvchanlik, sm                                       | 12,9          | 12,7                  |
| Joyidan turib 30 m ga yugurish                          | 3,94          | 4,08                  |
| Kislorodni maksimal darajada iste'mol qilish, ml/kg/min | 60,7          | 58,1                  |

**Eslatma:** Egiluvchanlik o'tirgan ho lalatda aniqlangan, barmoqlarning uchlari bilan oyoq kaftlari tiralib turgan vertikal yuza o'rtasidagi masofa o'lchangan.

Yog‘ massasi teridagi yog‘ burmalari bo‘yicha o‘lchangan.

Keltirilgan jadvallardan yuqori malakali o‘yinchilar gavda tuzilishi bo‘yicha ham, tezkor-kuch mashqlarini (sakrashlar, sprint va boshqalar) bajarish qobiliyati bo‘yicha ham anchagina kuchli ekanligi ko‘rinib turibdi. Kislorodni maksimal darajada istemol qilish qiymati bo‘yicha ishonarli farqlar kuzatilmaydi. Biroq bu ko‘rsatkich nisbatan bir kelib chiqishli sinovdan o‘tkaziluvchilarni tanlashda informativ emas.

### **§ 3.2 Jismoniy tayyorgarlikni baholashning fiziologik asoslangan uslublari**

Hozirgi kunda laboratoriya sharoitlarida maksimal alaktat quvvatni, shuningdek anaerob ostona darajasida kislorodni maksimal darajada iste‘mol qilish ko‘rsatkichini va tredban yoki veloergometrda bosqichli testni bajarishda kislorodni maksimal darajada iste‘mol qilish ko‘rsatkichini aniqlash qabul qilingan. Bu ko‘rsatkichlarni tanlashning asosiy sababi Shundan iboratki, ularning har biri aniq fiziologik talqin qilinishga ega va faol muskul tolalari va miokardda organellalarning (giperplaziyaning) rivojlanish darajasi to‘g‘risida bir qiymatli guvohlik berishi (baholashi) mumkin.

#### **3.2.1 Alaktat quvvat**

Maksimal alaktat quvvat rekrutlangan muskul tolalarining soniga, ulardagi miofibrillalar soniga va ulardagi miozinning o‘rtacha ATF-faolligiga bog‘liq bo‘ladi. Bundan tashqari maksimal alaktat quvvatning qiymatiga mashqni bajarish texnikasi ham ta‘sir ko‘rsatadi. Biroq veloergometrda 120-150 ayl/min sur‘atda qayd qilinadigan quvvat kattaligida bu omilning ulushi unchalik sezilarli emas.

Maksimal alaktat quvvat bir nechta testlar bilan aniqlanadi, masalan, Margariya zinapoya testi, veloergometrda 30 sekundlik test (Vingeyt), veloergometrda mashqni bajarishda eng yaxshi aylantirish-ning maksimal quvvati.

Margariya zinapoya testida sportchilar 6 m atrofida yuguradilar, so‘ngra zinapoya pog‘onalari bo‘ylab yuqoriga qarab yuguradilar. Fotofinish yordamida sportchining ma‘lum bir balandlikka yugurib

chiqish vaqti qayd qilinadi. Bunday holda sportchi rivojlantirgan quvvatni formula yordamida aniqlash mumkin bo'ladi:

- $MAQ = (h \times mass \times 9,81) / dt$ .
- bunday - OTSMT ning ko'tarilish balandligi (m), sportchining massasi (kg), dt-zaruriy balandlikkacha yugurib chiqish vaqti (s). Masalan,  $h=2$ ,  $mass = 80$ ,  $dt= 1,5s$  bo'lsin. Shunda
- $MAQ = (2 \times 80 \times 9,81) / 1,5 = 1040 \text{ Vt}$  yoki  $13 \text{ Vt/kg}$ .

Malakali futbolchilarni testdan o'tkazishda  $16,2 \text{ Vt/kg}$  qiymatlar olingan (Korobeynikov N.1989). 14- 18 yoshli o'smirlarda  $14-16 \text{ Vt/kg}$  qiymatlar olingan.

Maksimal alaktat quvvatni tenzoplatforma (dinamometrik platforma) yordamida 15sek davomida ko'p martalik maksimal sakrashlar balandligini o'lchashlar ma'lumotlari bo'yicha aniqlashni taklif qiladi. Bunday holda maksimal alaktat quvvat  $27 \text{ Vt/kg}$  ni tashkil qilgan. Maksimal alaktat quvvatni baholashning katta qiymati yerga qo'nish paytida sportchilar tomonidan muskullarning egiluvchanlik deformat-siyasining energiyasidan foydalanilishi bilan shartlanadi. Bu sakrash-larning yuqori balandligi va quvvatini belgilaydi.

Yevropada 30 sekundlik eng chekka Vingeytttest keng tarqalishga ega bo'lgan. Bunday holda sinovdan o'tkaziluvchilar 30 sek davomida veloergometrda maksimal shiddat bilan ish bajaradilar. Bunday testda futbolchilarda o'rtacha quvvat  $10-13 \text{ Vt/kg}$  ni tashkil qiladi.

Ilmiy tekshirish-ishlab chiqarish laboratoriyasida 70-yillardan boshlab veloergometrda sprintercha tezlanishning maksimal tezligini o'lchash amaliyotga kirgan. O'lchash priborlari bo'lmagan taqdirda 3 dan 7 sekundgacha tezlanish bilan 10 ta eng tez aylantirishlar vaqti o'lchanadi. Bizdagi ma'lumotlarga ko'ra maksamal alaktat quvvat futbolchining tayyorgarlik darajasiga bog'liq bo'ladi va 10 dan  $16 \text{ Vt/kg}$  gacha o'zgarishi mumkin. Veloergometrda maksimal alaktat quvvatni o'lchashda pedalni aylantirishning maksimal tezligini baholash lozim bo'ladi. Agar aylantirish sur'ati  $150 \text{ ayl/min}$  dan oshiq bo'lsa, u holda ishonarli ma'lumotlarni olish qiyin bo'ladi. Chunki test natijalariga pedalni aylantirish texnikasi ta'sir ko'rsatadi (malakasiz sportchilar veloergometrning egarida sakray boshlaydilar, bu ener-giyaning sarflariga olib keladi). Pedalni yuqori sur'at bilan aylantirishda energiyaning bir qismi oyoqlarni ko'chirishga

sarflanadi, shu sababli fvqatgina sportchi yengib o'tadigan tashqi quvvatni emas, balki ichki quvvatni ham hisoblash lozim bo'ladi. V.N.Seluyanov va I.A.Savelb- evning (1978) tadqiqotlariga ko'ra, oyoqlarni ko'chirish uchun talab qilinadigan ichki quvvatni quyidagi formula bo'yicha hisoblash mumkin:

Ichki quvvat=  $k \times \text{massa} \times \text{sur'at} = 0,2 \times 70 \times 23 = 112 \text{ vt}$ ,

Bunda  $k=0,2$  empirik koeffitsient, massa — sportchining tana og'irligi, 70 kg; sur'at - pedalni aylantirishning maksimal sur'ati, ayl/s.

Bir marta aylantirishda son tezlik oladi va uni nolgacha yo'qotadi, Shundan kelib chiqqan holda, oyoqlarni ko'chirish uchun baja-riladigan ish kinetik energiyaning o'zgarishiga bog'liq bo'lishi lozim bo'ladi:

$$A = m \times V \text{ mak}^{2/2}$$

V mak tezlik pedalni aylantirish sur'atiga bog'liq bo'lganligi, quvvat esa ishning sur'atga ko'paytmasiga teng bo'lishi sababli ichki quvvat kub darajasiga ko'tarilgan sur'atga va oyoqlar yoki tananing og'irligiga bog'liq bo'lishi lozim.

### **3.2.2 Aerob imkoniyatlar**

Anaerob ostona quvvatini (muskulning anaerob ostonasi) aniqlash uchun veloergometrda bosqichli test o'tkaziladi. O'zgarmas pedalni aylantirish sur'atida har ikki minutda yuklama oshiriladi. Mos ravishdagi informatsiyani olish uchun pedalni 75 ayl/min sur'at bilan aylantirish (agar 60 ayl/min sur'at tanlansa, u holda mahalliy muskul toliqishi boshlanishi mumkin), tashqi yuklamani 37.5 Vt dan (yoki 0.5 kGs dan) o'zgartirish tavsiya qilinadi. Bunday holda I Kr = 10 N qarshilik o'rnatilganda futbolchi 75-78 Vt quvvatga erishadi. Bu 1l/min kislorod iste'mol qilishga mos keladi. Chunki barcha sportchilarda foydali ish koeffitsienti amalda bir xil -FIK =22-24% bo'ladi. Shundan kelib chiqqan holda, tashqi qarshilik bo'yicha sportchilar tomonidan kislorod iste'mol qilinishini bilvosita baholash mumkin bo'ladi. Ish quvvatini o'lchashdan tashqari yurak qisqarishlari chastotasi va o'pka ventilyasiyasini o'lchash lozim bo'ladi. Ba'zan har bir bosqichning oxirida qondagi laktat konsentratsiyasini o'lchash mumkin. Tadqiqot natijasida bayonnoma ma'lumotlari

bo'yicha yurak qisqarishlari chastotasi, o'pka ventilyasiyasi, laktat konsentratsiyasining quvvatga bog'liq ravishda o'zgarish grafigi tuziladi.

Veloergometrda bosqichli testni bajarishda futbolchi organizmining faoliyat ko'rsatish ko'rsatkichlarining o'zgarish sxemasi.

Aerobik ostonaning paydo bo'lish momentidagi o'pka ventilyasiyasi, yurak qisqarishlari chastotasi va qondagi laktat konsentratsiyasining egri chiziqlari rivojlanish xarakterini sezilarli darajada o'zgartiradi. Anaerob ostona qondagi laktat konsentratsiyasi 4 mm/l ga etgan momentda paydo bo'ladi. Xuddi shu momentda nafas olish va uglekislota gazining ajralishi tezlashadi.

Yurak qisqarishlari chastotasi pedalni aylantirishning qandaydir bir quvvatigacha chiziqli ravishda o'sishi mumkin. So'ngra esa tezroq o'sa boshlaydi. Bu moment qonda laktat to'planishining boshlanish momenti bilan mos keladi va aerobik ostona nomini olgan. Xuddi shu momentda o'pka ventilyasiyasining grafigida ham tezlanishni ko'rish mumkin. O'pka ventilyasiyasining grafigida ikkinchi sinish qonda laktatning 4 mM/l gacha to'planish momenti bilan mos keladi va bu moment anaerob ostona nomini olgan. Bu voqeliklarning quyidagicha fiziologik talqin qilinishi ko'proq to'g'ri bo'ladi. Aerobik ostona — faol muskullarda barcha oksidlanuvchi muskul tolalarining rekrutlanish momenti va glikolitik muskul tolalarining 4 ta asosiy muskul-larida rekrutlanishning boshlanish momenti (shu sababli qondagi laktat konsentratsiyasi orta boshlaydi). Anaerob ostona -muskullarda (glikolitik muskul tolalarining faol qismi bilan) laktat ishlab chiqarilishi bilan uning faol muskullar, yurak va nafas muskullarining oksidlovchi muskul tolalari tomonidan iste'mol qilinishi o'rtasidagi eng chekka dinamik muvozanat momentidir. Qonda laktat konsentratsiyasining, va demak vodorod ionlarining ortishi qonda oshiqcha uglekislota gazining paydo bo'lishiga olib keladi. Uglekislota gazining bu eksessi nafas olishni rag'batlantiradi. Shu sababli o'pka ventilyasiyasi va yurak qisqarishi chastotasining past - 100-140 zarba/min qiymatlarida yurak qisqarishi chastotasining tezkorlik bilan o'sishiga olib kelishi mumkin. Shundan kelib chiqqan holda glikolitik muskul tolalari bo'lmaganda edi, yurak qisqarishlari chastotasi tezkorlik bilan o'smasligi lozim bo'lardi. Chiziqqa mos ravishda bir tekis o'sishda davom etgan bo'lardi.

Agar 190 zarba/min yurak qisqarishlari chastotasida chiziqning 190 zarba/min yurak qisqarishlari chastota-sidan keladigan gorizontal chiziq bilan kesishish nuqtasida quvvat o'Ichansa, u holda qonning ivishi mavjud bo'lmagan taqdirda yurak-qon tomir tizimining maksimal unumdorligini baholash mumkin bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, yurakning maksimal imkoniyatini (berilgan holat uchun maksimal mumkin bo'lgan bir minutdagi qon aylanish hajmini) baholash mumkin bo'ladi. Rossiya futbolining ikkinchi ligasining (50 ta sinovdan o'tkaziluvchi), birinchi ligasining (30 ta sinovdan o'tkaziluvchi), oliy ligasining (30 ta sinovdan o'tkaziluvchi) va Yevropa ligasining (5 ta sinovdan o'tkaziluvchi) futbolchilarini tadqiq qilish natijasida funksional tayyorgarlikning quyidagi me'yorlari o'rnatilgan 2.4-jadval).

**2.4-jadval. Veloergometrda laboratoriya testidan o'tkazish natijalari bo'yicha futbolchilarning funksional holatini baholash uchun me'yorlar.**

| <b>Malaka</b> | <b>Ball</b> | <b>Maksimal alak-tat quvvat, Vt/kg</b> | <b>Anaerob ostona, ml/min/ug</b> | <b>Kislородni potensial maksimal darajada is-te'mol qilish, ml/min/kg</b> |
|---------------|-------------|----------------------------------------|----------------------------------|---------------------------------------------------------------------------|
| Ikkinchi liga | 2           | 10                                     | 35                               | 55                                                                        |
| Birinchi liga | 3           | 11                                     | 40                               | 60                                                                        |
| Oliy liga     | 4           | 12                                     | 45                               | 65                                                                        |
| Osiyo ligasi  | 5           | 13                                     | 50                               | 70                                                                        |

Konkret futbolchilarni testdan o'tkazishda tezkorkuchi (maksimal alaktat quvvat) va bardoshlilik (anaerob ostona) tayyorgarligining bir xil bo'lmagan darajasi aniqlanadi. Himoyachilar va hujumchilar tezkor-kuch ko'rsatkichida g'olib chiqadi. Yarim himoyachilar esa bardoshlilik ko'rsatkichida g'olib chiqadi. Shu sababli tayyorgarlikni integral baholash uchun olingan natijalarni quyidagi formula bo'yicha hisoblash lozim bo'ladi:

Tayyorgarli darajasi =  $0,5 \times \text{maksimal alaktat quvvat} + 0,1 \times \text{anaerob ostona} - 7,5$

Masalan, futbolchi maksimal alaktat quvvat - 13 Vt/kg; anaerob ostona - 35 ml/min/kg ko'rsatkichlarni ko'rsatdi. Shunda tayyorgarlik darajasi quyidagiga teng bo'ladi

Tayyorgarlik darajasi =  $0,5 \times 13 + 0,1 \times 35 - 7,5 = 3,5$  ball.

Aksariyat hollarda futbolchilarning yuragi sezilarli darajada gipertrofiklangan bo'ladi. Ya'ni chap qorinchaning qalinlashgan miokardi va cho'zilgan qorinchalarga ega bo'ladi. Shu sababli aksariyat hollarda kislorodni potensial maksimal darajada iste'mol qilishning potensial (prognozlanadigan) qiymati 80% dan oshiqroq hollarda 65 ml/min/kg dan oshiq bo'ladi. Ba'zi bir hollarda kislorodni potensial maksimal darajada iste'mol qilish qiymatini 80-100 ml/min/kg atrofida qayd qilish va baholash mumkin. Bunda bunday yuqori ko'rsatkich turlicha tayyorgarlik darajasiga ega bo'lgan futbolchilarda uchrashi mumkin. Sport bilan shug'ullanish uzoq vaqt davomida to'xtab qolganda, masalan, og'ir jarohat olinganda va keyinchalik operatsiya qilinganda va harakatlanish chegaralanganda u sezilarli darajada pasayadi (20-30% gacha). Agar faol ravishda shug'ullanadigan futbolchida kislorodni potensial maksimal darajada iste'mol qilish 50-55 ml/min/kg dan oshmasa, u holda bu shuni bildiradiki, muskullarning aerobik imkoniyatlari ortishi bilan anaerob ostonada yurak qisqarishlari soni ortadi va o'yin paytida pulbs 200 zar/min dan oshiq qiymatgacha yetadi. Bunday yurak qisqarishlari sonida "diastola nuqsoni" vujudga keladi. Aynan esa diastolaning davomiyligi shunchalik qisqa bo'lib qoladiki, bunda qon miokard orqali qiyinchilik bilan o'ta boshlaydi. Miokardning gipoksiyasi boshlanadi va anaerob glikolizlanish avj oladi. Vodorod ionlarining to'planishi miokardiotsitlarning to'g'ridan-to'g'ri yemirilishiga, shuningdek lizosomalarga ta'sir ko'rsatish va ulardan proteinkinazlar - oqsillarni emiradigan fermentlarni halos qilish yo'li bilan bilvosita yemirilishiga olib keladi. Bunda sportchida tezda miokard distrofiyasi vujudga keladi. Shu sababli bunday futbolchi katta futbolda istiqbolga ega bo'la olmaydi.

Masalan, tayyorgarlik davrinig boshida 10-15 yil shug'ullanish stajiga ega bo'lgan (yoshi 25,1+2,2 yosh, bo'yi 179+2,8sm, ogdrligi 76,4+ 2,1 kg, tinchlik holatida yurak qisqarish soni  $61 \pm 6$  zarb/min)

17 ta malakali futbolchi EKG ni klinik qayd qilish bilan tekshiruvdan o'tkazilgan. Natijada sinovdan o'tkaziluvchilarning 75% ida o'tkazuv-chanlikning buzilishi - Gis tutamining o'ng yoki chap oyoqchasinig blokadasi bilan chap qorinchaning gipertrofiyasi aniqlangan. 15% holatlarda miokard infarktining alomatlarini kuzatilgan.

Shunday qilib, shug'ullanish mashg'ulotlari va musobaqalarda qatnashish futbolchilarda miokardning jiddiy organik shikastlanishlarini chaqiradi.

2.5-2.6-jadvallarda ikkinchi va oliy (prem'er) liga jamoalarini tekshiruvdan otkazishga misollar keltirilgan. Ko'rinib turibdiki, ikkinchi ligada past tezkor-kuch (9-12Vt/kg) va past aerobik (24-48 ml/min/kg) tayyorgarlik darajasiga ega bo'lgan yoshi katta futbolchilar o'ynaydi. Yurak-qon tomir tizimining rivojlanish darajasi bo'yicha katta rang-baranglik kuzatiladi. Kislorodni potensial maksimal darajada istemol qilish bo'yicha yuqori va juda past potensialga ega bolgan o'yinchilar bor. Ya'ni ikkinchi ligada yurak-qon tomir tizimi yetarlicha rivojlanmagan ko'plab futbolchilar o'ynaydi. Oliy ligada futbolchilar tezkor-kuch va aerobik tayyorgarlikning yuqoriroq darajasiga ega. Biroq yurak-qon tomir tizimining potensial imkoniyat-larining past darajasiga ega bo'lgan futbolchilar yo'q. O'z- o'zidan ko'rinib turibdiki, bu futbolchilar nisbatan past pulsda ikkinchi liga futbolchilariga qaraganda yuqori shiddat bilan o'ynay oladi. Bu ma'lumotlar Shundan dalolat beradiki, oliy liga jamoasini jamlashda avvalambor yurak-qon tomir tizimining holatiga e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Garchi shug'ullanish mashg'ulotlari to'g'ri tashkil qilinganda yurakning zarba berish hajmini ikki martagacha oshirish mumkin bo'lsada, bu tizim, aynan esa yurakning o'lchamlari ko'p jihatdan nasldan-naslga meros qilib olinadi.

### **3.3.3 Pedagogik testdan o'tkazish**

Yig'in sharoitlarida, zaruriy asbob-uskunalar bo'lmagan taqdirda testdan o'tkazish nazorat mashqlari - masalan, joyidan turib sakrashlar, besh martalik sakrashlar ko'rinishida, shunigdek bosqichli yugurish testi ko'rinishida o'tkazilishi mumkin. Veloergometrda tezkor-kuch testi bilan joyidan turib besh martalik sakrash testining natijalari o'rtasida chambarchas korrelyasion bog'lanish mavjud ( $r = 0,85$

0,95). Tayyorgarlik darajasini quyidagi formula bo'yicha baholash mumkin: Tezkor-kuch tayyorgarlik darajasi =  $175/\text{bo'y} \times (\text{natija}-9)$

Masalan, sportchining bo'yi 190 sm ga teng, joyidan turib ikki oyoqda besh martalik sakrashda 14 m ga sakragan bo'lsin, shunda u quyidagi tezkor-kuch darajasiga ega bo'ladi: Tezkor-kuch tayyorgarlik darajasi =  $175/190 \times (14-9) = 4,6$  ball.

## 2.5-jadval. Ikkinchi liga jamoasini funksional testdan o'tkazish natijalari,

2017 yil, dekabr

| №                          | Familiya | PQ  | Ци<br>bl) —<br>O | Yosh | MAQ, Vt/kg | Anaerostona<br>ml/min/kg | Yurak qisq<br>chast z/min | KRMDIQ<br>ml/min/kg | KPMDIQ<br>ml/min/kg |
|----------------------------|----------|-----|------------------|------|------------|--------------------------|---------------------------|---------------------|---------------------|
| Himoyachilar (n = 7)       |          |     |                  |      |            |                          |                           |                     |                     |
| 1                          | B        | 179 | 64               | 19   | 10,7       | 43                       | 158                       | 78                  | 78                  |
| 2                          | I        | 188 | 90               | 24   | 9,3        | 32                       | 158                       | 50                  | 61                  |
| 3                          | D        | 178 | 72               | 20   | 10,2       | 30                       | 150                       | 62                  | 70                  |
| 4                          | M        | 182 | 77               | 23   | 10,0       | 39                       | 150                       | 58                  | 71                  |
| 5                          | S        | 187 | 82               | 31   | 11/5       | 37                       | 135                       | 61                  | 72                  |
| 6                          | S        | 189 | 82               | 28   | 11,5       | 36                       | 150                       | 58                  | 63                  |
| 7                          | M        | 180 | 73               | 23   | 12,0       | 48                       | 170                       | 58                  | 82                  |
|                            | X        | 183 | 77               | 24   | 19/7       | 37,8                     | 153                       | 60,7                | 71,0                |
|                            | b        | 4,6 | 8,4              | 4,2  | 0,97       | 6,2                      | 10,7                      | 8,5                 | 7,4                 |
| Yarim himoyachilar (n =11) |          |     |                  |      |            |                          |                           |                     |                     |
| 8                          | S        | 177 | 75               | 24   | 10,5       | 37                       | 140                       | 60                  | 67                  |
| 9                          | L        | 178 | 68               | 24   | 10,7       | 32                       | 145                       | 47                  | 70                  |
| 10                         | R        | 169 | 65               | 22   | 12,0       | 31                       | 160                       | 43                  | 61                  |
| 11                         | R        | 182 | 80               | 21   | 10,8       | 31                       | 130                       | 47                  | 88                  |
| 12                         | S        | 174 | 76               | 23   | 11,5       | 26                       | 150                       | 52                  | 72                  |
| 13                         | B        | 182 | 72               | 25   | 12,0       | 35                       | 150                       | 67                  | 67                  |
| 14                         | P        | 176 | 65               | 18   | 13,0       | 31                       | 150                       | 50                  | 77                  |
| 15                         | N        | 182 | 71               | 26   | 14,0       | 42                       | 150                       | 70                  | 85                  |
| 16                         | K        | 177 | 80               | 26   | 12,0       | 31                       | 157                       | 50                  | 50                  |
| 17                         | T        | 186 | 84               | 20   | 10,5       | 24                       | 150                       | 52                  | 65                  |

|                       |    |     |     |     |      |      |     |      |      |
|-----------------------|----|-----|-----|-----|------|------|-----|------|------|
| 18                    | M  | 174 | 66  | 22  | 14,0 | 26   | 160 | 46   | 46   |
|                       | X  | 177 | 71  | 22  | 11,5 | 31,8 | 146 | 52,3 | 71,7 |
|                       | b  | 4,5 | 5,7 | 2,3 | 0,9  | 3,4  | 9,4 | 8,4  | 8/7  |
| Hujumchilar (n = 3)   |    |     |     |     |      |      |     |      |      |
| 19                    | X  | 175 | 74  | 27  | 10,5 | 34   | 142 | 52   | 65   |
| 20                    | K  | 178 | 76  | 13  | 13,0 | 33   | 130 | 52   | 85   |
| 21                    | M  | 187 | 74  | 24  | 11,5 | 30   | 130 | 54   | 75   |
|                       | X  | 180 | 74  | 21  | 11,7 | 32,3 | 135 | 52,7 | 75   |
|                       | b  | 6,2 | 1,1 | 7,3 | 1,2  | 2,1  | 6,0 | 1,1  | 10   |
| Darvozabonlar (n = 2) |    |     |     |     |      |      |     |      |      |
| 22                    | SH | 192 | 87  | 26  | 10,7 | 28   | 158 | 51   | 51   |
| 23                    | S  | 183 | 76  | 30  | 9,5  | 23   | 130 | 52   | 52   |

| Familiya           | Yosh | Massa, kg | Bo'yi, sm | Anaer. ostona ml/min/kg | Yurak q <sup>u</sup> q chast z/min | KPM-DIQ ml/min/kg | MAQ, Vt/kg | Yog', % |
|--------------------|------|-----------|-----------|-------------------------|------------------------------------|-------------------|------------|---------|
| Hujumchilar        |      |           |           |                         |                                    |                   |            |         |
| K                  | 19   | 69        | 171       | 62,3                    | 175                                | 75,3              | 12,5       | 9       |
| K                  | 26   | 74,0      | 181       | 58,1                    | 170                                | 67,5              | 12,4       | 8       |
| K                  | 18   | 84        | 183       | 52,5                    | 170                                | 61,5              | 11,2       | 6       |
| L                  | 22   | 72,2      | 177       | 45,1                    | 145                                | 80,3              | 11,4       | 6       |
| O                  | 28   | 74        | 178       | 48,6                    | 140                                | 72,2              | 12,1       | 7       |
| S                  | 25   | 84,4      | 187       | 47,4                    | 160                                | 64,0              | 11,1       | 11      |
| S                  | 18   | 69        | 190       | 63,8                    | 175                                | 72,8              | 11,3       | 3       |
| X                  | 22,2 | 74,9      | 181       | 53,9                    | 162                                | 70,5              | 11,7       | 7,1     |
| B                  | 4,1  | 6,5       | 6,4       | 7,5                     | 14,3                               | 6,5               | 0,6        | 2,5     |
| Yarim himoyachilar |      |           |           |                         |                                    |                   |            |         |
| V                  | 25   | 79/2      | 179       | 55,5                    | 160                                | 75,7              | 11,6       | 7       |

|               |      |      |     |      |     |      |      |     |
|---------------|------|------|-----|------|-----|------|------|-----|
| D             | 19   | 76,8 | 181 | 46,9 | 162 | 67,7 | 10,1 | 9   |
| G             | 25   | 74,4 | 178 | 50,4 | 150 | 73,9 | 11,9 | 10  |
| G             | 23   | 68,4 | 174 | 64,3 | 165 | 86,2 | 13,2 | 8   |
| K             | 23   | 77,4 | 181 | 48,4 | 162 | 67,2 | 12,2 | 9   |
| L             | 24   | 70,8 | 176 | 52,9 | 150 | 87,5 | 11,6 | 5   |
| P             | 20   | 66,2 | 177 | 60,4 | 165 | 80,1 | 15,1 | 6   |
| R             | 22   | 71,8 | 176 | 52,2 | 163 | 78,0 | 12,2 | 9   |
| T             | 24   | 73,8 | 179 | 57,6 | 150 | 78,6 | 11,4 | 9   |
| X             | 22,7 | 73,2 | 178 | 54,2 | 158 | 77,2 | 12,1 | 8,1 |
| B             | 4,3  | 4,3  | 2,3 | 5,7  |     | 7,0  | 1,3  |     |
|               | 2,1  |      |     |      | 6,6 |      |      | 1,8 |
| Himoyachilar  |      |      |     |      |     |      |      |     |
| K             | 26   | 72,6 | 174 | 51,6 | 175 | 68,9 | 11,6 | 6   |
| B             | 25   | 74,2 | 179 | 53,9 | 160 | 75,5 | 10,8 | 5   |
| D             | 20   | 75,2 | 183 | 53,2 | 150 | 77,1 | 9,9  | 5   |
| K             | 20   | 76,8 | 180 | 55,3 | 175 | 65,1 | 12,2 | 7   |
| L             | 26   | 76,8 | 172 | 48,8 | 150 | 76,8 | 11,4 | 11  |
| P             | 19   | 74,6 | 179 | 59   | 160 | 81,7 | 12,6 | 6   |
| X             | 26   | 77,6 | 186 | 48,3 | 160 | 72,1 | 9,4  | 6   |
| CH            | 24   | 77,8 | 186 | 50,1 | 158 | 71,9 | 10,4 | 9   |
| SH            | 25   | 73,0 | 177 | 53,4 | 155 | 82,2 | 11,8 | 8   |
| X             | 23,4 | 75,4 | 179 | 52,6 | 160 | 74,6 | 11,1 | 7,0 |
| B             | 2,9  | 1,9  | 4,8 | 3,3  | 9,2 | 5,7  | 1,1  | 2,0 |
| Darvozabonlar |      |      |     |      |     |      |      |     |
| A             | 28   | 84   | 190 | 47,6 | 135 | 67   | 11,2 | 8   |
| N             | 28   | 85,4 | 186 | 35,1 | 130 | 70   | 11,3 | 12  |
| S             | 18   | 73,6 | 190 | 43,5 | 160 | 67   | 10,7 | 7   |

**Izoh:** Yo - yosh, yil; M -tana massasi, kg; B - bo'y, sm; AeO - aerobik ostona darajasida kislorodni iste'mol qilish, oksidlovchi muskul tolalarining kuch tayyor-garligi baholanadi, ml/min/kg;

AeO YUQS - aerobik ostona darajasida yurak qisqarish soni, zar/min;

AnO - Anaerob ostona darajasida kislorodni iste'mol qilish, oksidlovchi mkskul tolalari va oraliq muskul tolalarinig aerobik tayyorgarligi baholanadi, ml/min/kg;

AnO YUQCH - Anaerob ostona darajasida yurak qisqarishlari chastotasi, zar/min;

KRMDIQ - kislorodni real maksimal darajada, testdan o'tkazish momentida iste'mol qitlish, ml/min/kg;

KPMDIQ - oksidlovchi muskul tolalarining kuch va aerobik imkoniyatlari ortishi mumkin bo'lgan holatda kislorodni paotensial maksimal darajada iste'mol qilish, ml/min/kg;

YUMZH - yurakning maksimal zarba berish hajmi, ml;

MAQ - maksimal alaktat quvvat, Vt/kg;

Aerobik imkoniyatlarni baholash uchun futbolchiga yurak qisqarish sonini o'lchaydigan pribor mahkamlanadi (eng yaxshisi VaritageNV Polar Electro), juda bo'lmaganda barmoqlar yordamida pulsni o'lchash mumkin. Agar jamoaning barcha o'yinchilari priborlarga ega bo'lsa, u holda testni butun jamoa uchun bir paytda o'tkazish mumkin. Butun jamoa darvoza chizig'i bo'ylab saflanadi. Sportchilardan biri yetakchi bo'lishi mumkin. Murabbiyning komandasi bo'yicha hamma sportchilar yurak qisqarish soni o'lchash va puls qiymatlari soatning xotirasida eslab qolinishi uchun priborlarni yoqadi. So'ngra yugurishni boshlash to'g'risida komanda beriladi. YUgurish butun maydon bo'ylab oldinga va orqaga bajariladi (maydonning o'lchami aniq ma'lum bo'lishi lozim). Birinchi aylanish davomiyligi 1 min 40 sekund - 1 min 50 sekundni tashkil qilishi lozim. So'ngra yugurish tezligi oshiriladi. Ikkinchi masofasi futbolchilar 1 min 10 sekund - 1 minut 20 sekundda bosib o'tishlari lozim. Uchinchi masofasi 400 m ga oshirilgan bo'lishi lozim. Uni bosib o'tish vaqti esa 1 minut 50 sekund - 2 minut 00 sekundni tashkil qilishi lozim. To'rtinchi masofasi 1 minut 20 sekund - 1 minut 30 sekundda bosib o'tiladi. Beshinchi masofa faqatgina yurak qisqarish soni 150 zarba/min dan kam bo'lgan taqdirda yugurib o'tiladi. Barcha futbolchilar eng kamida 5 marta aylanib yugurishlari lozim. Oxirgi marta aylanishda yurak qisqarishlari chastotasi 150-170 zar/min ni tashkil qilishi lozim. Test o'tkazilgandan keyin priborlar yig'ib olinadi va xotiradagi ma'lumot yoki qo'lda yoki avtomatik tarzda - interfeys

orqali kompyuterda hisoblab chiqiladi. So'ngra yurak qisqarish soni bilan yugurish tezligi o'rtasidagi bog'lanishlarning grafiklari tuziladi.

Oliy malakali futbolchilar uchun yurak qisqarish bilan yugurish tezligi o'rtasidagi bog'lanish 2,5 m/sek tezlikda yurak qisqarish soni 120 zarba/min atrofida qayd qilinadigan, yurak qisqarishlari chastotasi 170 zarb/min ga yetganda esa 4,6 m/sek tezlik qayd qilinadigan chiziqqa mos keladi. Shundan kelib chiqqan holda, agar sportchi 4,6 m/sek tezlik bilan yugursa, 400 m masofada 170 zar/min yurak qisqarish soni qayd qilinsa, keyinchalik yurak qisqarish soni asta-sekin o'sib borishi va 12-minutga borib 190 zar/min ga yetishi lozim. Kuper testini yugurib o'tishda ham futbolchi organizmi deyarli shunday ko'rsatkichlarni beradi. Shu sababli 12 minutda (720 sekund) 4,6 m/sek tezlik bilan yugurganda sportchi 3312 m masofani yugurib o'tishi mumkin. Biroq bunday natijaga anaerob ostonada yurak qisqarish soni 150 zar/min ni tashkil qilgan taqdirda erishish mumkin. Anaerob ostonada yurak qisqarish soni 150 zar/min dan oshganda futbolchi Kuper testini yuqoriroq tezlik va o'rtacha yurak qisqarish soni bilan yugurib o'tishi mumkin. Agar anaerob ostonada yurak qisqarishlari chastotasi bor-yo'g'i 120 zar/min ni tashkil qilsa, u holda 4-5 minutga borib sportchi maksimal yurak qisqarishlari chastotasiga erishadi. O'ta toliqadi va yugurishni to'xtatishi lozim bo'ladi. Shundan kelib chiqqan holda, bosqichli testda aniqlangan - 170 zar/min ga mos keladigan yugurish tezligi (PWC170) Kuper testining natijasini oldindan aniq aytish imkonini bermaydi.

PWC170 ko'rsatkich avvalambor yurakning nisbiy o'lchamlari (yurakning zarba berish hajmi), oksidlovchi va glikolitik muskul tolalarining nisbiy massasi, shuningdek qondagi gemoglobin miqdori va hokazolar bilan belgilanadi. Masalan, chap qorinchaning o'lchami (hajmi) oshganda yurak qon va kislorodning zaruriy miqdorini pastroq yurak qisqarish soni bilan hayday oladi. Shu sababli yurakning o'lchamlari ortishi bilan "Yurak qisqarish soni - yugurish tezligi" chizig'i o'ng tomonga siljiy boshlaydi. Agar yurakning o'lchamlari o'zgarmasa, oyoq muskullarning aerobik imkoniyatlari (oksidlovchi muskul tolalarining massasi) esa oshsa, u holda "Yurak qisqarish soni - yugurish tezligi" chizig'i egilishni

o'zgartirishi, soat strelkasi yo'nalishi bo'yicha o'ng tomonga burilishi lozim. Ba'zi bir hollarda yurak qisqarishlari soni chizig'i egilishni sezilarli darajada o'zgar-tirishi, masalan chap tomonga burilishi mumkin. Bunday holda yurakning yuklamaning ortishiga javob aks ta'sirining individual o'ziga xosligi namoyon bo'ladi, bu o'ziga xoslik zarba berish hajmi-ning o'sishi hisobiga emas, balki yurak qisqarishlari soni ortishi hisobiga namoyon bo'lishi mumkin.

Murabbiy uchun VI70 ko'rsatkich avvalambor o'yin paytida yurakning zo'riqib ishlashini baholash uchun muhim bo'ladi. Ko'rinib turibdiki, VI70 ning past qiymatlarida, 3,0 -- 3,6 m/sek oraliqlarda, oliy ligadagi o'yinlar davomida bunday sportchilar muntazam ravish-da 180 zar/min darajasiga chiqadilar. Aynan ana shu futbolchilar "diastola nuqsoni"ni, miokardning oshiqcha zo'riqishini, ish qobiliya-tining pasayishini boshdan kechirishlari mumkin. Agar bunday futbolchi jamoa uchun qandaydir bir qimmatga ega bo'lsa (o'z vaqtida va aniq pas beradi, kuchli hujumchi), u holda murabbiy shaxsan musobaqa faoliyatining miokardni ayaydigan xarakterini aniqlashi lozim bo'ladi.

Jismoniy tayyorgarlik darajasini nazorat qilishdan tashqari, elektrokardiografik uslublar yordamida miokardning holatini o'rganish lozim bo'ladi.

Shuni qayd qilish lozimki, bir qator hollarda yaxshi tayyorgarlik ko'rgan futbolchilarda VI70 ning past ko'rsatkichlari qayd qilinadi. Masalan futbolchilarda oshiqcha shug'ullanganlik holati bo'lgan va ekstrasistologiya qayd qilingan. Shu sababli berilgan yuklamada kichik puls o'rniga yuqori yurak qisqarish soni qayd qilinadi. Boshqa bir holatda futbolchi kichik tana og'irligiga, anaerob ostona va yurak o'lchamining yuqori darajasiga ega bo'lgan. Shu sababli u 200 zar/min dan oshiq yurak qisqarish soni Kuper testini juda yaxshi yugurib o'tadi. Birinchi futbolchini yaxshilab davolashga to'g'ri kelgan, ikkinchi futbolchining oliy liga darajasida futbol o'ynash istiqboli juda kam.

### 3.2.4 Og'irlik

Futbol amaliyotida sportchining jismoniy holatini baholash ko'rsatkichlaridan biri sifatida futbolchining og'irligidan foydalaniladi. Og'irlik dastakli tibbiyot tarozisida 50g xatolik bilan o'lchanadi. Shuni qayd qilish lozimki, bu tarozida sportchining og'irligi emas, massasi aniqlanadi. Og'irlik kuch kattaligi bo'lib hisoblanadi va Xalqaro birliklar tizimida (SI) nyutonlarda o'lchanadi. Polga o'rnatilgan prujinali tarozidan foydalanilganda sportchining taroziga ko'rsatadigan bosim kuchi o'lchanadi. Biroq priborning shkalasida tana massasining kg lardagi qiymati ko'rinadi. Ilmiy nuqtai-nazardan bu to'g'ri emas, biroq amaliyotda sportchining og'irligi bilan massasi o'rtasidagi farqlar hisobga olinmaydi. (Ma'lumki odamning og'irligi yerning turli joylarida farq qiladi, massa esa har doim o'zgarmasdan qoladi).

Futbol bo'yicha ko'pgina qo'llanmalarda yozilishicha (Akramov R.A. 2000), futbolchilar tana uzunligi va tana massasi uyg'unligining turlicha variantlariga ega bo'lishi mumkin. O'yinchilarni tanlash, ularning millatiga bog'liq ravishda ularning tana uzunligi o'rtacha 174-183 sm ni, tana massasi esa 69-77 kg ni tashkil qilishi mumkin. Ko'rinib turibdiki, konkret futbolchining ideal og'irligini baholash uchun bu ma'lumotlar to'g'ri kelmaydi. Bo'y bilan 100 o'rtasidagi farq ideal og'irlikni hisoblashning eng oddiy usuli bo'lib hisoblanadi. Masalan,  $177\text{sm} - 100 = 77\text{ kt}$ . Biroq tananing o'rtacha proporsiyalariga ega bo'lgan shaxslar uchun bunday hisoblash to'g'ri bo'lishi ham mumkin. Biroq oyoqlar nisbatan uzun yoki kalta bo'lganda, ko'krak qafasi nisbatan katta yoki kichik bo'lganda va o'rtacha proporsiyalardan boshqa chetlashishlar bo'lganda, bunday hisoblash usuli yaroqli bo'lmaydi.

Shu sababli tananing zaruriy massasini baholash uchun antropometrik ko'rsatkichlar va kriteriylarning katta sonidan foydalanish lozim bo'ladi.

Shunday qilib, tayyorgarlik bosqichida futbolchilarning shug'ullanish mashg'ulotlari jismoniy tayyorgarlik vositalarini ham, oziq-ovqat qo'shimchalarini qabul qilish tipidagi qayta tiklash vositalarini ham ratsional birlashtirishni talab qiladi. Oziq-ovqat qo'shimchalaridan yoki glikolizlanishning asosiy fermentlarini ingibirlash yo'li bilan organizmning uvishish darajasini kamaytirish uchun, yoki mitoxondriyalar faoliyatining faolligini oshirish, oksidlovchi fosforil-lanishni faollashtirish uchun foydalaniladi.

Shug'ullanish mashg'ulotidan oldin va shug'ullanish mashg'u-

lotidan keyin natriyssitratni qabul qilish (haftasiga 3 marta 5 g dan) aerobik va anaerob almashinish darajasida kislorod iste'mol qilishning ortishiga ko'maklashadi.

Aksiloksidantlarni qabul qilish (o'yin boshlanishidan oldin 1 kapsula va o'yin tugagandan keyin 2 kapsula) yog'lar almashinishining faollashuviga aerobik ostonada darajasida kislorod iste'mol qilishning ortishiga ko'maklashadi.

### **Nazorat savollari**

1. Futbolchilarning shug'ullanish mashg'ulotlari jarayonida ovqatlanishi ahamiti qanday?

2. Biokorrektorlarni shug'ullanish mashg'ulotlari jarayonining zaruriy tarkibiy qismi sifatida qo'llash texnologiyasi bo'yicha ma'lumotlarni bilasizmi?

3. Ovqatlanishda oziq-ovqat qo'shimchalari bo'yicha qanday ma'lumotlarga egasiz?

4. Musobaqa oldi bosqichi shug'ullanish mashg'ulotlari jarayonida futbolchilarning funksional tayyorgarligiga ta'siri bo'yicha qanday maxlumotlarga egasiz?

5. Futbolchilarni funksional tayyorlashning samaradorligiga ta'siri etadigan dori darmonlar to'g'risida nimalar bilasiz?

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Айрапетянц Л.Р. Годик М.А. Споривные игры. - Ташкент Ибн-Сина, 1991. -136 с.

2. Акромов Р.А. Игровые и тренировочные нагрузки в футболе. Учебное пособие. Т., Абу Али ибн Сино. 2000.

3. Арестов Ю.М., Годик М.А. методика оценки оревновательной деятельноСи в спортивных играх.: Учебное пособие для слушателей ВШТ. -М.: ГЦОЛФИК, 1980, -127 с.

4. Верхошанский Ю.В. Основы специальной физической подготовки спортсменов. М., ФиС. 1988. - 331 с.

5. Годик М.А. Контрол тренировочных и сореvнователных нагрузок. М., ФиС, 1980.

6. Г одик М.А. Физическая подготовка футболистов. - М., 2006. - 270 с.

7. Гончарова О.В. Ёш спортчиларнинг жисмоний крбилият-

ларини ривожлантириш. 2004 й. Тошкент.

8. Исеев Ш.Т. Футболчиларни йиллик йиклда тайёрланишни режалаштириш Т., 2005. -458 б.

9. Зациорский В.М. Физические качества спортсмена. М., Советский спорт. 2009.- 189 с.

10. Селуянов В.Н., Сарсания С.К., Сарсания К.С. Физическая подготовка. - Москва: ТВТ Дивизион, 2006. - 191 с.

11. Селуянов В.Н., Сарсания С.К., Конрад А.Н., Мя-кинченко Е.В.,

Классификация физических нагрузок в теории физической подготовки//Теория и практика физической культуры.-1990.-12. С. 2-8.

12. Платонов В.Н. Теория и практика спортивной тренировки. Киев: Виуа школа, Голов. Изд-во, 1984. - 256 с.

13. Керимов Ф.А. Умаров М.Н. Спортда прогнозлаштириш ва моделлаштириш. 2000 й. Тошкент.

14. Коробейников Н. Физическое воспитания. Учебник. Москва. 1989

15. Курбанов О.А., Нуримов Р.И., Усманов А.М. Скоростно-силавая подготовка футболистов. Т., Лидер Пресс, 2009.

16. Нуримов Р.И. ва бoshка. Спорт ва миллий уйинлар (ФУТБОЛ). Дарслик. ГТА-PRESS. 2015. -179 б.

17. Юсупов Н.М. Юкори малакали футболчи кизлар тезлик-куч тайёгалигининг восита ва усуллари. Услубий кулланма. Т.,

18. Родионов А. В. Практика психология спорта. Учебное пособие. 2001 Ташкент.

19. Саломов Р.С. Спорт машгулотларининг назария асослари. 2000й. Тошкент.

20. Школа испанского футбола: [перевод с испанского Кочетковой Е.]. - Масква : Эксмо, 2015.-192 с. - (Спорт. Лучший мировой опыт).

21. Isroilov SH.X., YUsupov N.M, SHermuhamedov A.T, Artiqov A.A, Bektorov O.YO. Sport pedagogik mahoratini oshirish (futbol). Darslik. Iqtisod moliya. 2015. -151 B.

22. Nurimov R.I. va boshqa. Futbol nazariyasi va uslubiati. Darslik. ITA- PRESS. 2015. -362 b.

23. Bangsbo J. (1992) Time motion cyaracterictecs of compotition

football. Sci. Footbal 6. 34-42

24. Gerhard Frank. Soccer Training Programs. Maidenhead: Meyer & Meyer Sport (UK) 2nd Edition 2009. 213

25. Henriksson J., Reitman Time course of changes in human skeletal muscle succinate dehydrogenase and cytochrome oxidase activity and inactivity. Acta Physiol Scand 99:91 - 97, 1997/

26. Hoff J, Wisloff V, Engen LC, et al. Soccer specific aerobic endurance training. Br J Sport Med 2002 Jun; 36 (3): 218-21.

27. Hoff J, Wisloff V, Engen LC, et al. Soccer specific aerobic endurance training. Br Sport Med 2002 Jun; 36 (3): 218-21

28. Mike saif. Tactics of top pro teams & players world class coaching 2012. 74 p

29. <https://www.premiersoccerinstitute.com/wp-content/uploads/2014/11/ModernSoccerSystems.pdf>

30. [http://www.eng11.com/uploads/5/7/7/9/57799873/tactics\\_of\\_top\\_pro\\_teams.pdf](http://www.eng11.com/uploads/5/7/7/9/57799873/tactics_of_top_pro_teams.pdf)

31. [http://footballgc.com.au/uploads/files/Coaching%20the%20Attacking % 204-4-2.pdf](http://footballgc.com.au/uploads/files/Coaching%20the%20Attacking%204-4-2.pdf)

## **II QISM. FUTBOLDA YAKKAKURASH**

### **VII BOB. BELLASHUVDAGI YAKKAKURASHLAR - FUTBOLDAGI MUHIM Y O‘ NALISHDIR VA STATISTIKADA**

#### **§7.1 Bellashuvdagi yakkakurashlar - futboldagi muhim yo‘nalishdir va u statistikada**

Futbol - bu ikkita jamoaning bir-biriga qarshi kurashidir, unda kurash tushunchasi muhim tarkib toptiruvchi element bo‘lib hisoblanadi. Bundan tashqari bu - g‘alabaga olibboradigan yo‘odir. Axir jamoa maydonda yaxshi jismoniy formada bo‘lsa, u holda uning o‘yinchilari maydonning har qanday nuqtasida, o‘yinining har qanday momentida kurashga kirishishga tayyor bo‘ladilar. Futbol bo‘yicha Rossiya milky terma jamoasining sobiq bosh murabbiyi Valeriy Lobanovskiy shunday debta’kidlaydi: “O‘yinchilari o‘yin davomida 150-200 ta yakkakurashga kirishishga qodir bo‘lgan jamoa - g‘alabaga yaqin bo‘ladi”.

Jamoaning hamma o‘yinchilari ham turli sabablarga ko‘ra kurashlarda ishtirok etavermaydi. Kimgadir nazariy bilimlar yoki amaliy tajriba etishmaydi, boshqasiga jismoniy tayyorgarlik yoki ruhiy shaylik etishmaydi, uchinchilari uni ahamiyatga molik bo‘lmagan omil debhisoblaydilar. Biroq professinallarning fikriga ko‘ra aynan kurash alohida e’tibor qaratishni talab qiladi. Bu borada futbol bo‘yicha Germaniya terma jamoasining murabbiyi shunday deydi: “Biz uchun o‘yin paytida eng muhimi - o‘yinda ishtirok etish va mumkin qadar ko‘proq kurashlarni yutib olishdan iboratbo‘ladi, shu tufayli biz g‘alaba sari eltadigan kalitga ega bo‘lamiz”. Jamoaning maydondagi g‘alabasi umuman olganda jamoaning mahoratiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq bo‘ladi, u jamoaning alohida o‘yinchilari-ning kurashlarni yutib chiqishiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatadi. Biroq alohida olingan har bir o‘yinchi ham o‘z jamoasining taqdirini belgilaydi. Chunki agar o‘yinchi kurashni tezda va jangsiz yutqazib qo‘ysa va keyinchalik vaziyatni yaxshi tomonga o‘zgartirish uchun harakat qilmasa, u holda u jamoaning g‘alabaga bo‘lgan irodasini falaj qilib qo‘yish bilan jamoaning emotsional holatiga juda katta

ziyon etkazadi. Tomas Xelbmerning fikriga ko'ra, zamonaviy futbolda son jihatidan ko'pchilik bo'lish prinsipi ustivorlik qiladi. Chunki o'yin paytida to'pga egalik qilibturgan o'yinchiga ikkita yoki undan ham ko'proq raqib o'yinchisi qarshi turadigan vaziyatlar juda ko'p bo'ladi. Agar o'yinchi raqibning ustivor bo'lgan kuchlari bilan kurashga kirishsa, bunday holda kurash elementlarini qo'llash - faqatbiroz murakkabroq formada qo'llash zarur bo'ladi.

Alohida o'yinchilar tomonidan kurash olib borishning individual prinsiplari bilanbir qatorda umumjamoaviy prinsiplar ham amal qiladi, ularga o'yinchilar ham, o'yinchilar guruhi ham (hujumchilar, markaziy himoyachilar) amal qiladi. Bellashuvdagi yakkakurashish - bu g'alabaga erishishning hal qiluvchi omilidir, shu sababli unga alohida e'tibor qaratish zarur bo'ladi. O'yinning bu elementini unga nisbatan bo'lganbarcha nuqtai-nazarlardan ko'rib chiqish, o'quv mashg'ulotlarini o'tkazishning barcha aspektlarini hisobga olish bilan tahlil qilish lozim bo'ladi. Jamoaning har bir o'yinchisi oldiga konkret, aniq va bajarsa bo'ladigan vazifalarni qo'yish lozim bo'ladi, bunda ularning individual qobiliyatlarini albatta hisobga olish lozim bo'ladi. Shu tariqa jamoaning har bir o'yinchisiga kurashda ishtirok etish imkoniyati taqdim qilinadi. Bundan tashqari o'yin jarayoni davomida vujudga kelishi mumkin bo'lganhar bir konkret vaziyatni tahlil qilish va batafsil ajrim qilish lozim bo'ladi. Futbol uchrashuvining taqdiri barcha ana shu masalalarning qanday echim topishiga bog'liq bo'ladi.

Zamonaviy futbol himoyada ham, hujumda ham mahoratni talab qiladi, chunki yaxshi tayyorgarlik ko'rgan o'yinchi har bir yo'qotilgan to'pni tezda qaytadan tortib olishga, har bir urilgan goldan keyin to'pni yana egallab olishga qodir bo'ladi. Bellashuvlarning muvaffaqiyatli tugashi mumkinligi to'g'risidagi statistik informatsiya faqatgina jamoaning murabbiyi uchun emas, balki jamoaning alohida olingan har bir o'yinchisi uchun ham juda foydali bo'lishi mumkin.

## **§7.2 Umumiy fikrlar**

G'alaba yoki mag'lubiyat jamoaning alohida olingan har bir o'yinchisiga ham, umuman jamoaning mahoratiga ham bog'liq bo'ladi. Jamoalardan qaysi biri o'yin paytida o'zining o'yin konseps-

siyasini amalga oshira olishi hal qiluvchi omil bo'lib hisoblanadi.

O'zini raqibga qaraganda kuchsiz debhisoblaydigan jamoa xatoga yo'l qo'yadi - o'yinni mudofaadan boshlaydi. O'yinchilari yuqoridan uchib kelayotgan to'pni boshi bilan qaytarishga qodir bo'lgan jamoa o'yinda ustunlikka, ayniqsa darvoza oldida katta ustunlikka ega bo'ladi.

Aksariyat gollar ikkinchi taymning boshida yoki oxirida uriladi. Bu fenomen g'alaba qozonishga bo'lgan katta ishtiyoq bilan izohlanadi, unga hatto o'yinchilardagi kuchli charchoq ham ta'sir ko'rsata olmaydi.

Urilgan gollar aksariyathollarda muvaffaqiyatli yakkakurashlarning uzluksiz zanjirining natijasi bo'libhisoblanadi.

Agar maydon markazida himoyalanishda yakkakurashlar o'yinchining individual taktikasiga zid bo'lgantomonga qarab boradigan shtatsiz vaziyatni vujudga keltirsa, u holda bunday vaziyatni nazorat qilishni o'zining jamoasining yaqinroqda turgan boshqa bir o'yinchisiga topshirgan ma'qul. Bu vujudga kelgan vaziyatdan chiqishning eng yaxshi yo'li bo'ladi.

Jamoadagi o'yinchilarni almashtirish yetarlicha asoslangan bo'lishi va jamoadagi barcha o'yinchilarning roziligi bilan amalga oshirilishi lozim. Chunki har bir o'yinchi jamoa tarkibidagi individual zveno bo'libhisoblanadi va o'yinchini o'ylanmagan tarzda almashtirish jamoaning umumiy o'yiniga putur yetkazishi mumkin. Taktik tayyor-garlik paytida diqqatni zaiflashtirish o'yinda yanglishishlar va xatolarga olib kelishi mumkin, ularning soni aynan boy berilgan kurashlarning soni bilan belgilanadi.

### **§7.3 Maxsus fikrlar**

Agar himoyachi 55% va undan yuqori darajada kurashlarga kirishishga tayyor bo'lsa, u holda uni jamoaning eng yaxshi himoyachilari qatoriga kiritish mumkin. Agar hujumchi barcha kurashlarning yarmida ishtirok etsa, u holda uni buyuk muvaffaqiyatlarga erishgan o'yinchi debhisoblash mumkin.

Kuchsiz jamoa o'yin maydonida te-tez o'yin qoidalarini buzadi va shu tariqa o'zini noqulay vaziyatlarga solib qo'yadi. Qoidalarga amal qilish esa jamoaga foyda keltiradi, u shu tariqa intizomli jamoa

imidjini (qiyofasini) qo'lga kiritadi. 2010 yilgi Jahon Chempionatida Angliya, Germaniya va Italiya terma jamoalari ana shunday jamoalar bo'lgan.

Yakkakurash olib borish qoidalarining aksariyat buzilishlari birinchi va ikkinchi taymlarning boshida qayd qilinadi. Bu murabbiy-ning jamoa bilan muloqot qilishi va o'yinchilarga o'zining emotsional ta'sirini o'tkazishi natijasida sodir bo'ladi.

Kurashlarni olibborish qoidalarining aksariyat buzilishlari darvozadan chamasi 30 metr masofada sodir bo'ladi.

Zamonaviy futbolda oldindan bilibbo'lmaydigan o'yin vaziyatlarining ko'p bo'lishi sababli kurashlar soni doimo o'sibboradi. Masalanto'pni yo'qotgan hujumchilar va markazdagi o'yinchilar jamoaning birinchi himoyachilariga aylanadi. O'yin vaziyatining shu tariqa o'zgarishi kurashlarning yangi sonini dunyoga keltiradi. O'yinchilarning jismoniy tayyorgarligining va o'yinning old yo'llanmalarining yaxshilanishi o'yin sur'atining ortishiga olib keladi. To'p futbol maydonining turli uchastkalarida bir jamoadan boshqasiga juda tez o'tadi. To'pni egallab olgan o'yinchi shiddat bilan raqib darvozasiga qarab intiladi. Bunda u qarama-qarshi jamoa o'yinchi-larining qarshi harakatlariga duch keladi. SHu tariqa to'pni egallagan o'yinchiga bir nechta raqib o'yinchisi qarshi turadi. Klassik kurash chegaralaridan anchagina tashqariga chiqadigan vaziyat vujudga keladi.

Pressingning raqibning himoya zonasiga ko'chishi bir-biriga qarshi turgan har ikkala jamoa uchun pozitsion o'zgarishlarni chaqirish bilan kurashlarning butun maydon bo'ylab avj olishiga olib keladi. Bu kurashlar hujumchilarga ham, himoyachilarga ham teng darajada taalluqli bo'ladi. Maydondagi vaziyat ulardan yuqori diqqat e'tiborni, raqibning harakatlarini to'g'ri idrok qilishni, vujudga kelgan vaziyatni yashin tezligida baholashni, tezkorlik bilan qarorlar qabul qilishni va kechayotgan barcha voqe'liklarga mos ravishda reaksiya ko'rsatishni talab qiladi.

Kurash, o'zining mohiyatiga ko'ra, turlicha boshlang'ich o'yin vaziyatlari o'rtasidagi etarlicha oddiy jarayondir. Aynan esa, bitta o'yinchi hujum qiladi - to'p unda bo'ladi, ikkinchisi esa - uning raqibi, himoyachi - to'psiz o'ynaydi. To'pni egallabturgan o'yinchi qo'l keladigan u yoki bu momentdan foydalanish bilanto'pni

darvozaga yo'llashga yoki o'z jamoasining boshqa o'yinchisiga oshirishga harakat qilayotgan bir paytda himoyachi bu harakatlarga chek qo'yishga va to'pni egallab olishga intiladi.

#### **§7.4 O'yinda muvaffaqiyat uchun kurash**

O'tgan asrning 70-yillarda 90 minutlik uchrashuv davomida o'yinchi tomonidan bosib o'tiladigan yo'l taxminan 3 km ni tashkil qilgan, 90-yillarda esa bu ko'rsatkich 7-9 km gacha etgan xozirda esa bu ko'rsatkich 10-12 km etib keldi.

O'yinchi bitta o'yin davomida bosib o'tadigan masofaning bunday keskin ortishi sportchilarning yaxshi jismoniy tayyorgarligi bilan izohlanadi. Chunki o'yinchining jismoniy tayyorgarlik darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, uning o'yin davomida tez-tez kurashlarga kirishish imkoniyati shunchalik ortadi. Va to'p yo'qotilgan taqdirda o'yinchi to'pni mumkin qadar tezroq qaytadan egallab olishi uchun unda kuchlar etarli bo'ladi. Shu tariqa u o'zining raqibdan ustun ekanligini namoyish qiladi, shu tariqa u g'alabani yaqinlashtiradi.

#### **§7.5 O'yinchilarning alohida guruhlarining harakatlari**

1. Darvozabon. Darvozabonning himoya chizig'ining oxirgi o'yinchisi sifatida kurashda yutib chiqishi himoyalanişda asosiy omil bo'lib hisoblanadi. Hujumni boshlab beradigan birinchi o'yinchi sifatida darvozabon himoyani hujumga qayta qurishning asosiy momentlarini belgilab beradi.

Kelayotgan to'pni ushlab olish yoki qaytarib yuborish uchun darvozabon to'pning uchish tezligi va yo'nalishini to'g'ri aniqlay olishi lozim, buning uchun u darvoza chizig'i yonida turib maydonni yaxshi ko'ra olishi lozim. Bundan tashqari u o'yin davomida jarima chizig'idan chiqishda o'z darvozasining himoyalanganlik darajasini xatosiz baholay oladigan bo'lishi lozim.

2. Shaxsan qo'riqlaydigan o'yinchi.

Raqibhujum qilayotganda shaxsan qo'riqlaydigan o'yinchi konkret raqibning harakatlarini qo'ldan keladigan barcha vositalar bilan blokirovkalashi lozim bo'ladi. Buning uchun maydonning unga ishonib topshirilgan sektorida u avvaldan ishlab chiqilgan ma'lum

bir taktikadan foydalanadi. Uning asosiy maqsadi raqibning barcha harakatlarini blokirovkalash va unga darvozaga qarabharakatlanish imkonini bermaslikdan iborat bo'ladi.

### **Zona himoyasi o'yinchisi.**

Zona himoyasi o'yinchisiga futbol maydonining unga ishonib topshirilgan uchastkasida qarama-qarshi jamoaning o'yinchilariga hujum uyushtirish va o'z jamoasining hujumchisini o'z himoyasi ostiga olish, bundan tashqari o'zining harakatlari bilan oldinda turgan himoyachini qo'llab quvvatlash vazifasi yuklanadi.

Jamoa to'pni egallab olgandan keyin himoya taktikasini hujum taktikasiga o'zgartirish bilan qayta qurilishi lozim. Bunday holda himoyadagi o'yinchi (erkin himoyachi, qanothimoyachisi) hujumchiga aylanadi, uni maydon markazidan raqib darvozasi tomonga shiddat bilan olib o'tadi, uni o'z jamoasining boshqa o'yinchisiga uzatadi yoki to'pni bo'sh kenglikka qaytarib yuboradi. Biroq raqib jamoa hujumga o'tgan taqdirda o'zining darvozasining daxlsizligini himoya qilish uning asosiy vazifasi bo'lib qolaveradi.

#### **4. O'rta chiziq o'yinchilari.**

Maydonning o'rta chiziq o'yinchilari himoyada turish bilan ham, hujum qilish bilan ham maydonning har xil uchastkalarida o'z jamoasi uchun son jihatidan ustunlikni yaratadilar. Bu ulardan ayniqsa yaxshi jismoniy tayyorgarlikka ega bo'lishni talab qiladi. Chunki ular o'yin paytida eng katta masofalarni bosib o'tishlariga to'g'ri keladi. Qarama-qarshi jamoaning o'yinchilari hujum qilayotgan paytda o'rta chiziq o'yinchilari himoyaning birinchi chizig'ini tashkil qilish bilan birinchi bo'lib kurashga kirishadilar. Hujum qilish paytida esa ular to'pni o'zlarida mumkin qadar ko'proq ushlab turishi, o'yinni cho'zishi, raqibni chalg'itishi va shu tariqa raqib darvozasi tomonga qarabharakatlanishi lozim bo'ladi. Darvoza oldida esa ular gol urishga yordam beradigan vaziyatni yaratishlari zarur bo'ladi. Agar o'ylangan reja amalga oshmay qolsa, ular raqibning mumkin bo'lgan hujumini qaytarish uchun tezda orqaga qaytishlari zarur bo'ladi. Hujum chizig'i o'yinchilari.

Jamoaning taktik konsepsiyasiga bog'liq ravishda mazkur guruh o'yinchilarining soni 2 tadan 3 tagacha o'zgarishi mumkin. Hujumchilar kurashlarda ishtirok etish, to'pni devor usulida o'ynash yoki o'yin qoidalarida yo'l qo'yiladigan boshqa usullarni qo'llash

bilan to'pni darvoza yaqiniga olibboradilar va gol urishga harakat qiladilar. To'p yo'qotilgan taqdirda hujum guruhining o'yinchilari o'z jamoasi-ning birinchi himoyachilariga aylanadilar.

Har bir jamoaning murabbiyi har qanday o'yindan oldin har bir jamoa a'zosining o'yin maydonida o'zini qanday tutish strategiyasi va taktikasini ishlab chiqadi. Tanlash turli xil old yo'llanmalar va oldinda turgan o'yinning xarakteriga bog'liq bo'ladi. Jamoadagi o'yinchi-larning jismoniy tayyorgarlik darajasi va ularning kurashlarga kirisha olish qobiliyati e'tiborga olinadi. Bundan tashqari raqiblarning kuchli va zaif tomonlari hisobga olinadi. Murabbiy o'zining konsepsiyasini quyidagilar hisobiga amalga oshiradi: Jamoada o'yinning qanday yo'lga qo'yilganligiga bog'liq ravishda ma'lum bir pozitsiyalarga o'yinchilarni tanlash.

O'yinchilarning zimmasiga ular o'yin paytida bajarishlari lozim bo'lgan ma'lum bir vazifalarni yuklash.

Ularga yuklangan vazifalarni to'la hajmda bajara olmagan o'yinchilarni almashtirish.

### **§7.6 Asosiy maqsad - to'pga egalik qilish**

To'pni egallab olish maydondagi o'yin vaziyatini o'zgartirish imkonini beradi, tashabbuskorlikni rag'batlantiradi va o'yinchilarning erkin mentalitetini yaratadi. To'pning jamoa tasarrufida bo'lishi o'yin-chilarni uni mumkin qadar ko'proq o'zlarida ushlab turishga undaydi. Bunda doimiy ravishda kurashlar vujudga keladi va har bir o'yinchi o'zining imkoniyatlarini maksimal darajada yuzaga chiqarishi lozim bo'ladi. Taxmin qilinadigan vaziyatlar o'quv mashg'ulotlari paytida oldindan ishlab chiqilgan bo'lishi mumkin.

O'yin texnikasiga keladigan bo'lsak, to'pni egallab olgandan keyin uni mumkin qadar uzoqroq ushlab turish uning asosiy elementi bo'libhisoblanadi. To'p o'yinchining oyog'ida bo'ladimi, yoki uni boshqa o'yinchiga uzatish amalga oshiriladimi, yoki o'yinchi aldamchi harakatlarni bajarish bilan to'pni maydonda olib yuradimi- bundan qat'iy nazar - unga a'lo darajadagi periferik ko'rish qobiliyati zarur bo'ladi, bu qobiliyat o'quv mashg'ulotlari paytida rivojlantiriladi.

Muvaffaqiyatli kurash olibborish uchun jamoaning har bir o'yinchisi jismoniy tayyorgarlikning ham, psixologik tayyorgarlikning

ham tezkor reaksiya, harakatchanlik, kuch, muvozanat, chidamlilik va boshqa shu kabi qobiliyatlarni rivojlantirishi zarur bo'ladi.

O'yinchilarning o'yin maydonida taktik jihatdan o'zini qanday tutishi o'yin vaziyatlari bilan belgilanadi va sodir bo'layotgan vaziyat-da o'yinchining diqqat-e'tiboriga, to'g'ri reaksiya ko'rsatishiga, vaziyatni to'g'ri baholay olishiga va shaxsiy tajribasiga bog'liq bo'ladi.

Bundan tashqari kurash o'yinchida mental qo'yilmaning bo'lishini ko'zda tutadi, u o'yinchi xarakterining chizgilari, aynan esa iroda kuchi, o'zini qo'lga ola bilishi, chidamlilikligi, diqqatni jamlay olishi, intellektualligi, raqibga qo'pol munosabatda bo'lmasligi, ijodiylik qobiliyati, o'zining harakatlarini o'z jamoasining boshqa o'yinchilarining harakatlari bilan muvofiqlashtira olishiga bog'liq bo'ladi.

Bundan tashqari kurash kognitiv aspekti, ya'ni o'yinchi o'zining harakatlarining ham, raqibning harakatlarining ham mumkin bo'ladigan oqibatlarini bilishi zarurligini o'z ichiga oladi.

Kurashni belgilaydigan barcha tipik alomatlar barcha vaziyatlarni muvozanatlashni talab qiladi, vaziyatlarni muvozanatlashni qo'llash jamoani g'alaba tomonga boshlabboradi.

Agar jamoa to'pni yo'qotsa, u holda uni qaytarib olish uchun kurashlarga kirishish momenti etib keladi. Buning uchun har bir o'yinchining barcha nazariy va amaliy bilimlaridan foydalanish va o'yin qoidalariga zid bo'lmagan barcha usullarni (raqibni blokirovkalash, podkat, sakrashlar, bosh bilan o'ynash va hokazolar) qo'llash lozim bo'ladi.

### **Nazorat savollari**

1. Nima uchun bellashuvdagi yakkakurashlar futboldagi muhim yo'nalish hisoblanadi?

2. Maxsus fikrlar va umumiy fikrlar nima deganda nimalar tushunasiz?

3. O'yinda muvaffaqiyat uchun kurash deganda nimalar tushunasiz?

4. O'yinchilarning alohida guruhlarining harakatlari o'z ichiga nimalarni oladi?

5. To'pga egalik qilish asosiy maqsad nimadan iborat?

6. O'yinchilarning maydondagi vazifalari bo'yicha nimalar bilasiz?

## **VIII BOB. BELLASHUV VA JAMOA**

Jamoa o'yinchilarining jismoniy va psixologik holati, ulaming jamoa ichidagi o'zaro munosabatlari jamoaning strukturasini belgilaydi. Va agar har bir alohida olingan o'yinchi jamoaning g'alabasi uchun "jonini jabborga berib" o'ynashga tayyor bo'lsa, agar har bir o'yinchi o'zini jamoaning bir qismi debhis qilsa, agar har bir futbolchi har bir kurashdan keyin o'zining xatolarini hisobga olsa va ya na kurashga kirishishga shay bo'lsa, u holda bunday jamoa o'zida yaxlitlikni taqdim qiladi va g'alaba qozonishga qodir bo'ladi.

Bunday hamjihat jamoada har bir o'yinchi boshqalarning imkoniyatlari va vazifalarini, aynan esa: murabbiyning g'alaba qozonishga yo'naltirilgan, ixtisoslashtirilgan ishini; jamoaning etakchi o'yinchilarining oldiga qo'yilgan vazifalarni; o'yin maydonida har bir alohida olingan o'yinchining oldiga qo'yilgan konkret vazifalarni; maydonda ergashuvchi o'yinchilarning majburiyatlarini;

U hohboytajribaga ega bo'lgan futbolchi bo'lsin, hoh jamoaga endigina kelgan futbolchi bo'lsin - har bir o'yinchiga chizibberilgan vazifalar va majburiyatlarning shajarasini yaxshi biladi va o'yin paytida ularni e'tiborga oladi.

Jamoaning alohida olingan har bir o'yinchisining kurashda o'zini qanday tutishi jamoaning pozitsion guruhlarining (himoya, hujum, maydon markazi) keyingi taktik harakatlarini belgilaydi, bu umuman olganda uchrashuvning natijasini belgilaydigan asosiy taktika bo'lib hisoblanadi.

### **§8.1 Himoyani shakllantirish**

Uchrashuv paytida o'yin maydonida har qanday jamoaning himoyasi shaxsan va zonal himoyadan ham, bu ikkita tizimning kombinatsiyasidan ham tarkibtopishi mumkin. Har qanday kurashning muvaffaqiyatli tugashi uchun taktik harakatlarning.

Uchrashuv paytida o'yin maydonida har qanday jamoaning himoyasi shaxsan va zonal himoyadan ham, bu ikkita tizimning kombinatsiyasidan ham tarkibtopishi mumkin. Har qanday kurashning muvaffaqiyatli tugashi uchun taktik harakatlarning.

| Shaxsan qo'riqlash                                                                                                                                                                                                                                   | Zonal himoya                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                          |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1. Bitta jamoaning himoyadagi o'yinchisi raqib jamoaning har qanday o'yinchisiga qarshi qo'yiladi. Bunda har ikkala o'yinchining barcha kuchli va kuchsiz tomonlari hisobga olinadi. Kurashning qanday yakun topishi shu o'yinchiga bog'liq bo'ladi. | 4. Raqiblar maydonning ma'lum bir uchastka-larida to'p uchun kurash olibboradilar va shu tariqa kurashlarning butun boshli zanjirini hosil qiladilar. Bitta o'yinchi o'z jamoasining barcha a'zolarining harakatlari ustidan nazoratni amalga oshirishi juda qiyin kechadi. Bu undan ham yuqori psixologik tayyorgarlikni, ham yuqori jismoniy tayyorgarlikni talab qiladi. Chunki aksariyathollarda xuddi o'sha bitta jamoaning bir nechta o'yinchilari bir paytning o'zida kurashda ishtirok etadi. |
| 2. Himoyadagi o'yinchi qarama-qarshi jamoaning ma'lum bir o'yinchisini "qo'riqlaydi".                                                                                                                                                                | 5. O'yinchining diqqati raqib jamoaning bir nechta o'yinchilariga taqsimlanadi. U qaysi raqib bilan kurashga kirishishini hal qilishi                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                 |
|                                                                                                                                                                                                                                                      | lozim bo'ladi, bunda o'z jamoasining boshqa o'yinchilari bilan "kelishuv" bo'lishi kerak bo'ladi.                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                     |
| 3. Qarama-qarshi jamoaning o'yinchisi bilanbevosita kontaktga kirishish, to'pni egallab olishning qoidalarda yo'l qo'yiladigan barcha usullaridan foydalanish, to'pni o'zining darvozasidan uzoqlashtirish.                                          | 6. Zonal himoyalani sh paytida raqib bilanbevosita jismoniy kontakt mavjud bo'lmaydi. Shu sababli bunday holda kurashga kirishining maxsus priyomlari: sakrashlar, podkatlar va hokazolardan foydalanish zarur bo'ladi. Zonal himoyalani sh paytida raqibning to'pni egallab olishiga xalaqitberadigan harakatlarni amalga oshirish imkoniyati har doim ham mavjud bo'lavermaydi.                                                                                                                     |

## § 8.2 "To'pni nazorat qilish" o'yin aksiyasi

Bugungi kunda kurashga o'yin aksiyasi sifatida qaralganda to'pni qanday qilib va qanday mo'ljal bilan egallab olish mumkinligi masalasi ochiqlichaqolmoqda. Bu aksiyaning afzalligi - kurashda ishtirok etayotgan raqiblar o'rtasida to'g'ridan- to'g'ri konfrontatsiyaning kamayishidir. Futbolchi kurashda ishtirok etmasligi, to'pni boshqa o'yinchidan qabul qilib olishi va keyinchalik yana boshqa o'yinchiga oshirishi ham mumkin. Bu harakat uchun maydonning

har ikkala jamoaning o'yinchilari kamroq to'plangan uchastkalaridan foydalanish lozim bo'ladi. To'pni yo'qotmaslik uchun paslar tizimini qo'llash yoki aldamchi harakatlardan foydalanish bilan to'pni olib yurish mumkin bo'ladi. O'yin maydonida bunday harakatlar vaqtdan yutish va qayta guruhlashish uchun qo'llaniladi.

### § 8.3 Hujum uyushtirishning maxsus formasi “pressing”

Hujum uyushtirishning bunday formasida hujum qilish guruhining o'yinchilari maydonning 30-40 metr kenglikdagi uchastkasida joylashadilar. Murabbiy Ottmer Xilfsed bu haqda shunday deydi: “Pressing mudofaaning eng yaxshi usullaridan biri bo'lib hisoblanadi”.

Agar pressing qo'llash zarurati vujudga keladigan bo'lsa, u holda harakatlar shoshilinch ravishda maydonning raqibtomondagi yarmiga o'tadi, bu qandaydir bir muddatga raqibni karaxt qilib qo'yadi.

#### Pressing

| Hujum chizig'i                                                                                   | Maydon markazi                                                                                                                                                                                          |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Mo'ljal<br>To'pni qaytarib olish                                                                 | Mo'ljal<br>To'pni qaytarib olish                                                                                                                                                                        |
| Strategiya<br>a. Raqib jamoa o'yin maydonining o'ziga tegishli bo'lgan qismida bosimga tortiladi | Strategiya<br>a. Raqib jamoani bosimga tortish                                                                                                                                                          |
| b. Raqiblar uchun o'zining o'yinini qurishga halaqitberadigan to'siqlar yaratiladi               | b. Raqiblar uchun o'zining o'yinini qurishga halaqitberadigan to'siqlar yaratish<br>v. Yon chiziqning yonida erkin                                                                                      |
|                                                                                                  | kenglikni yaratish mumkin emas g.O'zining himoyasini tashkil qilish va to'p tomonga qarab siljish d. To'pni egallabturgan qarama-qarshi jamoa o'yinchisini “o'yindan tashqari holat” ga siqib chiqarish |

|                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                      |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                   |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <p style="text-align: center;">Harakatlar</p> <p>a. O'yin zonasi bo'ylamasiga ham, eniga ham kamayadi</p> <p>b. Raqibning harakatlari blokirovkalanadi</p> <p>v. To'pni egallabturgan o'yinchi tajovuzkorlik bilan hujum qiladi</p> <p>g. Raqibning o'zining hujumini boshlashga bo'lgan barcha harakatlari qirqib qo'yiladi</p> <p>d. Darvozabon jarima chizig'ida yuqoridan kelayotgan to'plarni egallab oladi</p> | <p style="text-align: center;">Harakatlar</p> <p>a. Jamoa ixcham tarzda o'rta chiziqda joylashadi</p> <p>b. Raqib to'p bilan birgalikda yon chiziqqa siqib qo'yiladi</p> <p>v. Qanot o'yinchisi tashqi yo'lakka chiqishni blokirovkalaydi, to'pni egallabturgan raqibga hujum qiladi va uni to'pni orqaga uzatishga majbur qiladi</p> <p>g. Raqibning to'pni egallashiga halaqit beradigan vaziyatni yaratish bilan qanot o'yinchilarini aniq belgilab olish zarur bo'ladi</p> <p>d. Darvozabon 11 metrlik jarima belgisida joylashish bilan yuqoridan kelayotgan uzatmalarni blokirovkalaydi</p> |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|

#### §8.4 To'p yo'qotilgandan keyin qarshi hujum uyushtirish

Agar jamoa to'pni egallab olgandan keyin shiddat bilan raqib darvozasi tomonga qarab harakatlansa va hujumkorlik ruhiga ega bo'lsa, u holda kutilmaganda to'pni yo'qotish raqib jamoaga ezuvchi ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bunday holda voqealarning bunday tus olishini kutmagan jamoa o'zining mudofaasini qayta guruhlashtirishi, avvaldan ishlab chiqilgan taktikani qo'llashi va raqibni gol urish imkoniyatidan mahrum qilishi lozim bo'ladi.

Himoyadagi o'yinchilar vanchalik tez qayta guruhlashish qobiliyatiga ega bo'lsalar, ularda yuzaga kelgan vaziyatning tagiga etish va o'zining harakatlarini belgilab olish shunchalik tez sodir bo'ladi, ular voqealarning bunday tus olishini engib chiqqa oladimi yoki yo'qmi, vaziyatni o'zlarining foydasiga o'zgartira oladimi yoki yo'qmi - hammasi ana shunga bog'liq bo'ladi. Amaliyotda bu shuni bildiradiki, raqibning qarshi hujumga o'tishi raqibning himoyadan hujumga o'tishi uchun o'z saflarini qayta qurish uchun zarur bo'ladigan vaqtga qaraganda himoyaning shiddatliroq harakatlari bilan sezilarli darajada zaiflashtirilishi lozim bo'ladi.

### **Nazorat savollari**

1. Futbolchilarning maydondagi bellashuvlari kerakmi?
2. Himoyani shakllantirish harakatlari bo'yicha qanday ma'lumotlarga egasiz?
3. "To'pni nazorat qilish" degan tushuncha bo'yicha qayday ma'lumotlarga egasiz?
4. Pressing taktik harkatlar o'yin jarayonida qanday ahamiyatiga ega?
5. To'p yo'qotilgandan keyin qarshi hujum uyushtirish harakatlari deganda nimalar tushunasiz?
6. Qanday pressing turlarini bilasiz?

## IX BOB. BELLASHUV VA MURABBIYNING ROLI

Kurash maydondagi uchrashuvlarning eng og'ir toshi bo'lib hisoblanishi sababli jamoalar bu o'yin elementiga alohida e'tibor bilan qarashlari zarur bo'ladi. Bunga faqatgina murabbiy yordam bera oladi. Chunki hech kim butun jamoani va alohida olinganhar bir o'yinchini murabbiychalik yaxshi bilmaydi. Unga o'zining jamoasining barcha kuchli va kuchsiz tomonlari yaxshi ma'lum bo'ladi. U barcha o'yinchilarning jismoniy, emotsional va psixologik holatini yaxshi biladi. U shularning barchasidan kelib chiqqan holda kurashlarni olibborish taktikasini belgilaydi, alohida olingan har bir o'yinchi va butun jamoaning oldiga ma'lum bir vazifalarni qo'yadi.

Murabbiy ishining natijaviyligi o'yinda ham, o'quv mashg'ulotlarida ham murabbiy bilan jamoadagi barcha o'yinchilarning o'zaro munosabatlariga, uning bu masaladagi profess-sional layoqatiga, uning psixologik va pedagogik imkoniyat-lariga, shuningdek o'quv mashg'ulotlarini uslubiy tarzda o'tkazish qobiliyatiga bog'liq bo'ladi. Murabbiy jamoaning har bir o'yinchisiga e'tibor qaratishi lozim bo'ladi, har bir o'yinchi murabbiy uning sport mahoratini takomil-lashtirish uchun qo'ldan keladigan barcha ishni qilishini yaxshi bilishi lozim. Shu sababli alohida olingan har bir o'yinchining oldiga ham, o'yinchilar guruhining oldiga ham ma'lum bir vazifalarni qo'yishda mazkur o'yinchilarning mental, o'yin va taktik momentlarini hisobga olish lozim bo'ladi.

Murabbiyning jamoadagi har bir o'yinchiga individual yondashuvi tufayli o'yinchilarda alohida kurashlarni ham, butun o'yinni ham yutishga bo'lganishtiyoq va intilish paydo bo'ladi. Kurashda ishtirok etish va uning qanday yakun topishi esa jamoaning o'yin maydonidagi muvaffaqiyati yoki muvaffaqiyatsizligini belgilaydigan asosiy moment bo'lib hisoblanadi. Murabbiy tomonidan jamoaning alohida olingan har bir o'yinchisiga e'tibor qaratilishi o'yinchining harakatlarini to'g'ri baholashga, unig yo'l qo'ygan xatolarini to'g'ri ajrim qilishga ko'maklashadi. Bu esa, o'z navbatida, muvaffaqiyat kaliti bo'lib hisoblanadi. Chunki alohida olingan har bir o'yinchining g'alabasi yoki mag'lubiyati butun jamoaga o'zining ta'sirini o'tkazadi.

Murabbiy uzun monologlar o'qimasligi lozim, uning ko'rsat-

maları qisqa, tushunarli bo'lishi va maksimum informatsiyani o'z ichiga olishi lozim. Bunday ko'rsatmalarning alohida olingan har bir o'yinchi va jamoaga muvaffaqiyat keltirish ehtimoli ko'proq bo'ladi. Agar o'yin paytida o'yinchilardan biri kurashga kirishishni ko'p marotaba eplay olmasa va shu tariqa jamoaning muvaffaqiyatiga putur etkazsa, u holda murabbiy qanday yo'l tutishi lozim?

Agar gap kurashda qandaydir ma'lum bir raqibbilanto'qnash kelish ustida boradigan bo'lsa, u holda individual tarbiyaviy ishlash vaziyatni yaxshi tomonga o'zgartiradi.

Agar o'yinchi raqibbilanbo'lgan kurashda g'alabani qo'lga kirita olmasa, yoki bu ishini oxirigacha uddalash uchun kuchi etmasa, u holda murabbiy bu qiyinchiliklarni bartaraf qilish uchun o'yin paytida pozitsion o'zgarishlar qilishi mumkin. O'yin paytida murabbiy bir o'yinchini kurashlarda qatnashishga ishtiyoqi va imkoniyati bo'lgan boshqa bir o'yinchi bilan almashtirishi mumkin.

Agar o'yinchini almashtirishnig iloji bo'lmasa yoki bundan ma'no bo'lmasa, u holda murabbiy himoyada o'ynayotgan o'yinchilar orasidan kurashlarni boy berayotgan o'yinchiga yordam beradigan va uni qo'llab-quvvatlaydigan futbolchini tanlashi lozim bo'ladi.

O'yin paytida murabbiy yordamchisi yoki o'yinni kuzatib borayotgan har qanday shaxs kurashlar to'g'risida qaydlar qilishi mumkin va bo'sh paytda buni o'yinchilar bilan batafsil muhokama qilishi mumkin. Kelgusida xatolardan qochish uchun keyinchalik bu vaziyatlarni o'quv mashg'ulotlarida ishlab chiqish mumkin bo'ladi. Kurashlarni ko'proq detalli kuzatish va qayd qilish uchun video apparaturadan foydalanish mumkin. O'quv mashg'ulotlari paytida ham, o'yin paytida ham kurashlardagi ijobiy va salbiy momentlarni tahlil qilish alohida olingan o'yinchilar va umuman butun jamoaning mahoratining ortishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

O'quv mashg'ulotlari paytida murabbiy har bir o'yinchining harakatlarini alohida kuzatadi, uning kurashlardagi kuchli va kuchsiz tomonlarini qayd qiladi. Va ma'lum bir mashqlar yordamida o'yin-chining ba'zi bir kamchiliklarini tuzatishga va uning kuchli tomonlarini rivojlantirishga harakat qiladi.

### **.Kurashlar paytidagi xususiy xatolar**

| Mudofaa (himoya)                                                                                                                                                                                                              | Hujum                                                                                                                                                                                                                           |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <p>Raqibgacha bo‘lgan masofani noto‘g‘ri tanlash</p> <p>Shoshqaloqlik bilan hujum qilish</p> <p>To‘pning uchish trayektoriyasini noto‘g‘ri hisoblash</p> <p>Ishonib-ishonmay hujum qilish</p> <p>O‘yin qoidalarini buzish</p> | <p>To‘pni olib yurishda asoslanmagan tavakkalchilik</p> <p>Kurashlarning kamligi</p> <p>Darvozaga qarab borishning to‘g‘ri bo‘lmagan yo‘llarini qidirish</p> <p>To‘pni qaytadan egallab olish uchun urinishlarning yo‘qligi</p> |

### **O‘yinni ijobiy-tajovuzkor usulda olibborish kriteriyalari**

| Hujum                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                  | Himoya                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                         |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <p>Birga-bir vaziyatlarda o‘zining maqsadiga erishish bilan g‘alaba qozonish</p> <p>O‘zining gavdasidan foydalanish bilan o‘yin qoidalarini buzmasdan, biroq qat‘iylik bilan raqib darvozasiga yaqinlashib borish</p> <p>To‘pni raqib darvozasi tomonga yolg‘iz o‘zi olibborishga qaror qilish</p> <p>Raqib darvozasiga olibboradigan to‘g‘ridan-to‘g‘ri yo‘lni qidirish</p> <p>Manevrni tugatgandan keyin boshqa hal qiluvchi harakatlarga kirishish</p> <p>To‘p yo‘qotilgan taqdirda uni qaytadan egallab olishga harakat qilish</p> | <p>O‘yinda o‘zining gavdasidan o‘yin qoidalarini buzmasdan va qat‘iylik bilan foydalanish</p> <p>Kurashga kirishishga urinib ko‘rish va uni yutib olish</p> <p>To‘p bilan kelayotgan raqibning harakatlarini qirqib qo‘yishga urinish va unga shoshilmasdan hujum qilish</p> <p>Hujum qilish uchun qo‘l keladigan momentni tanlash</p> <p>Raqibning to‘pni egallab olishiga xalaqit berish</p> <p>Raqib jamoa o‘yinчилarining harakatlarini blokirovkalash</p> |

### **O‘ta qo‘zg‘algan holatda hujum qilish**

|                                                           |                                        |                                                                            |                                                                       |                     |
|-----------------------------------------------------------|----------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------|---------------------|
| Raqibning oyog‘iga qaldirg‘och bo‘lib tashlanish (podkat) | Destruktiv tajovuzkorlik kriteriyalari | Raqib bilan kontaktga kirishishda elkalarni emas, tirsaklarni ishga solish | To‘pni bosh bilan qaytarishda raqibni qo‘l bilan itarish yoki tortish | Nazoratni yo‘qotish |
|-----------------------------------------------------------|----------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------|---------------------|

## **§9.1 O'yinchi qanday qobiliyatlarga ega bo'lishi zarur**

O'yin paytidagi harakatlar o'zining strukturasi bo'yicha murakkab bo'ladi va ularda kamida ikki ishtirok etadigan, doimo o'zgarib turadigan bir-biri bilan o'zaro harakatlarga kirishish aksiyalaridan boshlanadigan ko'p sonli omillarga bog'liq bo'ladi. O'yin maydonida g'alaba qozonish uchun o'yinchi ularga professional tayyorgarlik arayonida erishiladigan yaxshi jismoniy va psixologik tayyorgarlikka ega bo'lishi lozim.

O'yin maydonidagi o'yin vaziyatlarida mudofaa yoki hujumda baland bo'yli o'yinchilar, ayniqsa uchib kelayotgan to'pni bosh bilan qaytarish zarur bo'ladigan hollarda ustivorlikka ega bo'ladi. Biroq shunga qaramasdan o'yinchiga maydonda pozitsiya tanlashda murabbiy uning bo'yiga emas, balki uning o'yin sifatlariga tayanadi.

Professional yaroqlilik. 3Fitnes. Alohida olingan har bir o'yinchining yaxshi individual jismoniy tayyorgarligi o'yin maydonidagi kurashlarda muvaffaqiyatli ishtirok etish uchun bazis bo'lib xizmat qiladi. Bu quyidagi fikrlar bilan asoslanadi: Fitnes o'yinchiga to'p uchun kurashda ishonch bag'ishlaydi. Fitnes o'yinchiga to'pni uzatishda ishtirok etishda ko'maklashadi va to'p ko'pincha unda bo'ladi. O'yinchining yaxshi sporttayyorgarligi butun jamoaning g'alabasi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Jamoaning alohida olingan o'yinchisining fitnesi butun jamoaning o'yiniga asos bo'lib, butun o'yin jarayoni davomida hal qiluvchi element bo'lib hisoblanadi. Yaxshi sport tayyorgarligi mudofaada ham, hujumda ham qo'shimcha yordam beradi. Yaxshi sport formasiga ega bo'lgan o'yinchi to'p uchun kurashda yuqori yugurish tezligiga ega bo'ladi. Yaxshi jismoniy tayyorgarlikka ega bo'lgan futbolchi raqib bilan kontaktlar paytida ko'proq muvaffaqiyat qozonish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Yaxshi jismoniy tayyorgarlik uchib kelayotgan to'pni bosh bilan qaytarishda sakrash balandligining ortishiga ko'maklashadi. Chidamlilikli sportchi yaxshi jismoniy tayyorgarlik tufayli o'yin tugashi oldida ham kurashlarda muvaffaqiyatli qatnasha oladi.

Jismoniy yaroqlilik.4 Muvozanat (koordinitsiya).

O'yin maydonidagi bellashuv o'zida murakkab harakatlar tizimini taqdim qiladi. Bellashuvda ishtirok etadigan o'yinchi to'pning

harakatlanishini ham, o'z jamoasi o'yinchilarining harakatlarini ham, raqib o'yinchilarining harakatlarini ham kuzatishi lozim bo'ladi. Bunda bularning barchasini o'zining maydondagi harakatlari bilan solishtirishi lozim bo'ladi. Buning uchun quyida sanab o'tiladigan punktlar yaxshi yordam berishi mumkin:

Kenglikda yaxshi mo'ljall olish o'yinchiga o'zining pozitsiyasi, raqibning pozitsiyasi, o'zining jamoasining o'yinchilarining pozitsiyasi, to'p va darvozaning holatini to'g'ri baholash va yagona zanjirga bog'lashga ko'maklashadi. O'yinchining yaxshi reaksiyasi futbol maydonida turlicha vaziyatlarda vujudga keladigan akustik va vizual signallarni yaxshi qabul qilishga ko'maklashadi va unga bularning barchasini o'zining harakatlari bilan solishtirishga ko'maklashadi. Muvozanatni his qilish tuyg'usi o'yinchiga raqib bilan bevosita kontaktga kirishganda oyoqda qolish imkonini beradi. Differensiallash qobiliyati o'yinchiga o'yin maydonida vujudga kelgan vaziyatga to'g'ri baho berish imkonini beradi.

Harakatlardagi qayishqoqlik o'yinchiga futbol maydoni bo'ylab harakatlanishda va u yoki bu kurashlarda ishtirok etishda yordam beradi.

## **§9.2 Bellashuvdagi texnik elementlar**

Jamoalarning futbol maydonidagi har qanday uchrashuvining natijasi kurashlarnig qanday tugashiga bog'liq bo'ladi, ularning asosida ikkita tarkib toptiruvchi qism yotadi. O'yinchi to'pga egalik qilganda u to'pni himoya qilishga intiladi, raqib darvozasi tomonga qarab harakatlanadi va gol urishga harakat qiladi. Boshqa bir vaziyat-da esa o'yinchi to'pga egalik qilmaydi. Bunda u to'pni egallash, raqib darvozasi tomonga qarab harakatlanish va gol urishni o'z oldiga vazifa qilib qo'yadi.

Biroq har ikkala vaziyatda ham ular yordamida qo'yilgan maqsadlarga erishish mumkin bo'ladigan texnik priyomlarni bilish zarur bo'ladi. Bunday elementlarni bilish umumiy tanishuvdan boshlanadi, so'ngra ularni detalli o'rganish va ularning avtomatik tarzda bajarilishigacha erishish keladi, ana shu har qanday o'quv mashg'ulotining asosiy maqsadi bo'lib hisoblanadi.

### **§9.3 To'psiz harakatlar**

To'pga egalik qilmayotgan va kurashda ishtirok etadigan o'yinchi ikkita yo'nalishda harakat qiladi. U raqibning harakatlariga bog'liq ravishda futbol maydonining bo'sh joyiga yorib chiqishga intiladi. O'yinchi maydonda vujudga keladigan ko'zda tutilmagan o'yin vaziyatlariga mos ravishda optimal reaksiya ko'rsatish uchun gavdaning mos keluvchi holatini qabul qilishi lozim bo'ladi. Barqaror holatni qabul qilish va muvozanatni saqlash uchun oyoqlarni tizzadan biroz bukish va son kengligida yoyish lozim bo'ladi. Ana shunday holatni yugurish paytida ham saqlash kerak bo'ladi. Qadamlar unchalik katta bo'lmasligi lozim. Bunday holatda o'yinchining o'yin maydonidan itarilibtezlik olishi va tezkor reaksiyani saqlashi osonroq bo'ladi. Qo'llarning harakati yugurish sur'atiga mos kelishi va gavdaning holatini barqarorlashtirishga xizmat qilishi lozim.

To'pni bosh bilan qaytarish, ma'lumki, bitta yoki ikkita oyoqda sakrash paytida, tik turgan holatda yoki yugurish paytida amalga oshiriladi. Tizzadan engil bukilgan oyoqlar oyoqlarda sakrash baland-ligining ortishiga ko'maklashadigan engil zo'riqishni hosil qiladi. O'yinchi bir oyoqlab sakraganda ikkinchi oyog'ini siltash bilan sakrash kuchini oshiradi. Kurash paytida muvozanatni saqlash uchun qo'llar juda katta yordam berishi mumkin. To'pni bosh bilan qaytarishda to'pning tezligi gavdanig yoyilishiga sezilarli darajada bog'liq bo'ladi. Bunda zarba oldinga qarab yoki yon tomonga berilishi mumkin.

Kurashlarda bevosita ishtirok etishda o'yinchi qanday yiqilishni bilishi lozim. Shu sababli yon tomonga dumalab ketish, yon tomonga sirg'alib ketish, orqa yoki qorin bilan yiqilish kabi to'g'ri yiqilish mashqlari har qanday o'quv mashg'ulotlarining tarkibiy qismi bo'lishi lozim. Noto'g'ri yiqilish futbolchiga jarohat etkazishi mumkin, shu sababli to'g'ri yiqilishni o'rganish muhim bo'ladi. Yiqilgandan keyin darhol oyoqqa turish va o'yinni davom ettirish kerak bo'ladi.

### **§ 9.4 To'pning atrofidagi harakat faoliyatlar**

O'yin maydonida futbolchining to'psiz harakatlanishi butun

o'yinning tarkibiy qismi bo'lib hisoblanadi va kurashlar paytida sodir bo'ladigan jarayonlar bilan chambarchas bog'lanishda bo'ladi. Chunki to'pni egallash uchun qilinadigan harakatlar kurashga olib keladi. Kurash paytida o'yinchilardan biri to'pga egalik qiladi va uni yo'qotmaslikka intiladi, boshqasi esa aksincha, to'pni egallab olishga intiladi.

Har ikkala o'yinchi ham asos bo'lib hisoblanadigan quyidagi ba'zi bir talablarga e'tibor qaratishi lozim bo'ladi, ularning bajarilishi kurashda g'alaba qozonilishiga olib kelishi mumkin bo'ladi, ularni inkor qilish esa mag'lubiyatga olib keladi. To'pni uzatishda to'pning harakatlanish traektoriyasini to'g'ri baholash lozim bo'ladi.

Raqibning taxmin qilinadigan harakatlarini to'g'ri baholash lozim bo'ladi.

To'pga nisbatan va raqibning harakatlariga o'zining reaksiyasini to'g'ri baholash uchun ma'lum bir vaqt oralig'i zarur bo'ladi.

O'yin maydonida vujudga kelgan vaziyatni e'tiborga olish bilan o'zini qanday tutishning muvaffaqiyatga olib keladigan variantini ishlab chiqish zarur bo'ladi.

### **Bellashuvning ximoya va hujum tarkibiy qismlari**

| To'psiz                        | To'p bilan                         |
|--------------------------------|------------------------------------|
| Hammasi to'pning atrofida      |                                    |
| Ximoya                         | Hujum                              |
| Pozitsion o'yin                | Dribling                           |
| Zonal himoya                   | Maydonning bo'sh zonasini egallash |
| Shaxsan qo'riqlash             | Diagonal bo'yicha uzatish          |
| Podkat                         | Raqibni aldab o'tish               |
| Raqibning oyog'ini yoyibyorish | Devor usulida o'ynash              |
| Quvib o'tish                   | Aylanib o'tish                     |
| Siqib qo'yish                  | Itarish                            |

Bellashuvda raqib jamoalardan bittadan o'yinchi ishtirok etadigan vaziyatda, o'yinchi to'pga egalik qilib turibdimi yoki uni egallab

olish uchun kurash olib boradimi - bundan qat'iy nazar futbolchi uni muvaffaqiyatga olibboradigan turli-tuman priyomlardan foydalanishi mumkin bo'ladi. Biroq bu priyomlardan mahurat bilan foydalanish uchun ularni doimo o'quv mashg'ulotlarida ishlab chiqish zarur bo'ladi.

#### 1- usul: Blokirovka

a. To'p oyoq kaftining ichki tomoni bilan blokirovkalanadi, bunda oyoq cho'zilgan bo'lishi lozim. Muvozanatni saqlash uchun tayanch oyoq to'pga bevosita yaqin masofada joylashishi lozim.

b. To'p unda bo'lgan raqib jamoa o'yinchisi bilan kontaktga kirishganda unga jismoniy bosim o'tkazish uchun gavdaning yuqorigi qismi oldinga biroz egiladi. v. Tizzadan bukilgan oyoq bilan qaytarma harakat qilish yordamida to'p raqibning oyog'i ustidan ko'tarib olinadi, bunda raqib oyoqni bosib olishi mumkinligidan qochiladi.

g. Kurash paytida raqibbilanbevosita kontaktga kirishganda to'pni oyoq kaftining osti bilan blokirovkalash havfli bo'ladi.

#### 2- usul: Dribling

To'pning o'yinchi tomonidan futbol maydoni bo'ylab olib yurilishi ko'p sonli kurashlarni dunyoga keltirishi mumkin va har ikkala jamoadan bittadan o'yinchi ishtirok etadigan, ya'ni 1:1 nisbatdagi kurash vaziyati vujudga kelishi mumkin. Driblingning bunday formasida raqib aldamchi harakatlar yordamida aldab o'tiladi. Agar bunday holatda to'p tezkorlik bilan oldinga qarabharakatlansa, u holda dribling to'g'risida maydonning bo'sh uchastkasini egallashga yo'naltirilgan usul sifatida gapirish mumkin. Driblingning keyingi turi shundan iborat bo'ladiki, bunda o'yinchi to'pni mumkin qadar uzoqroq ushlabturadi.

Driblingni qo'llash turli xil mo'ljallashlar bilan chaqirilishi mumkin; agar o'yinchi to'pni egallab olsa, u maydonning raqib o'yinchilaridan xoli bo'lgan uchastkasini qidiradi. Bunday vaziyat paytida to'p uning tasarrufida bo'lgan o'yinchi maydonning tanlangan uchastkasiga qarab sekin harakatlanadi. Bunda uning e'tibori raqib o'yinchilarining harakatlariga nisbatan ham, o'z jamoasining o'yinchilarining harakatlariga nisbatan ham zaiflashmasligi lozim. Raqib unga to'g'ridan-to'g'ri hujum qilgan taqdirda u to'pni olibyurishni to'xtatadi va uni oldinda joylashgan sherigiga uzatadi.

Yakunda driblingni qachon o'yin jarayoniga kiritish lozim degan

savol paydo bo'ladi. Shunday qilib, dribling quyidagi vaziyatlarda qo'llaniladi:

To'pni uzatishning iloji yo'q, chunki yaqin-atrofdagi sheriklar raqib tomonidan blokirovkalangan.

Maqsadga erishish uchun katta masofani bosib o'tish zarur bo'ladi. Yoki raqib, yoki sherik o'yindan tashqari holatda bo'ladi.

To'p uning tasarrufida bo'lgan o'yinchi izidan kelayotgan sheriklarini kutishga majbur bo'ladi.

Atrofdan faqat raqib o'yinchilari joylashgan bo'ladi yoki uni raqib darvozaboni bilan uchrashuv kutadi.

Yon chiziq bo'ylab dribling raqib darvozasi oldida uning yordamida gol urish mumkin bo'ladigan taktik kenglikni yaratadi.

Agar raqib himoyasining o'yinchilari chiziqli bir-biri bilan katta interval hosil qilish bilan joylashgan bo'lsa, u holda ularning bir nechtasini aldab o'tish imkoniyati vujudga keladi.

### Dribling

| Turi        | Maqsadi        | Texnika        | Harakatlar       | Reaksiya            |
|-------------|----------------|----------------|------------------|---------------------|
| Keyincha    | Kurashda gol   | O'zinig        | Raqibning        | Himoyadagi          |
| lik kurash  | urishga        | gavdasini to'p | e'tiborini       | o'yinchi hujumga    |
| bilan       | yo'naltiril    | bilan          | susaytirish, u   | darvozaga           |
| dribling,   | gan dribling   | raqibning      | bilanto'g'ridan- | bo'lganto'g'ri      |
| aldamchi    | ni muvaffa     | orasiga        | to'g'ri          | yo'lni himoya       |
| harakatlar  | qiyatli amalga | joylashti      | kontaktdan       | qilish bilan        |
| (o'yinni    | oshirish       | rish, tayanch  | qochish, to'p    | unchalik ham tez    |
| tashkil     |                | oyoq           | bilan chapga     | bormaydi,           |
| qiladigan   |                | tomondan       | ketish           | raqibning yonida    |
| harakatlar) |                | itarishni      | bilanto'pga      | qolish bilan uning  |
|             |                | amalga         | o'ng tomonga     | har xil firiblariga |
|             |                | oshirish.      | zarbaberishni    | reaksiya            |
|             |                | To'pni         | imitatsiya       | ko'rsatadi,         |
|             |                | nazorat qilish | lash. Pastdan    | raqibning oyoqlari  |
|             |                | va uni         | uzatishlarni     | va ko'zlarining     |
|             |                | raqibharakatig | amalga           | harakatini          |
|             |                | a qarama-      | oshirish,        | kuzatadi, raqibning |
|             |                | qarshi         | aldamchi         | harakatlanishini    |

|                        |                                                                                                           |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                   |                                                                                                                                                                                                                                                                                                |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                   |
|------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
|                        |                                                                                                           | yo'nalishda                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                       | harakatlarni                                                                                                                                                                                                                                                                                   | mumkin qadar                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                      |
|                        |                                                                                                           | olibyurish.                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                       | qo'llash                                                                                                                                                                                                                                                                                       | uzoqroq                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                           |
|                        |                                                                                                           | O'yin                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                             | bilanto'pni                                                                                                                                                                                                                                                                                    | to'xtatibturadi, ikki                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                             |
|                        |                                                                                                           | vaziyatidan                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                       | uzatish yoki                                                                                                                                                                                                                                                                                   | qatlamli                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                          |
|                        |                                                                                                           | o'zining                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                          | qanotga                                                                                                                                                                                                                                                                                        | himoyadan                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                         |
|                        |                                                                                                           | imkoniyatla                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                       | oshirishni                                                                                                                                                                                                                                                                                     | foydalanish bilan                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                 |
|                        |                                                                                                           | rini yaxshi                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                       | imitatsiyalash                                                                                                                                                                                                                                                                                 | o'zining                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                          |
|                        |                                                                                                           | lash uchun                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                        |                                                                                                                                                                                                                                                                                                | darvozasini                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                       |
|                        |                                                                                                           | foydalanish                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                       |                                                                                                                                                                                                                                                                                                | himoya qiladi                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                     |
| To'pni                 | To'pni                                                                                                    | To'pni oyoq                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                       | Hujumni                                                                                                                                                                                                                                                                                        | Himoya                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                            |
| olibyurish             | oldinga                                                                                                   | yuzasining                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                        | amalga                                                                                                                                                                                                                                                                                         | guruhining                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                        |
| (o'yinni               | qarabharakatl                                                                                             | yuqorigi                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                          | oshirish,                                                                                                                                                                                                                                                                                      | o'yinchisi raqibni                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                |
| shakllanti             | an                                                                                                        | qismi                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                             | maydon                                                                                                                                                                                                                                                                                         | dribling holatidan                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                |
| radigan<br>harakatlar) | tirish bilan<br>masofani bosib<br>o'tish, gol urish<br>maqsadida raqib<br>o'yinchila rini<br>aldab o'tish | bilanolibyuris<br>h yugurish<br>sur'atining<br>ortishiga<br>ko'makla<br>shadi, tezlik<br>pasayganda<br>yoki harakat<br>yo'nalishi<br>o'zgarganda<br>oyoqlar<br>boshqacha<br>holatda<br>bo'lishi<br>mumkin.<br>To'pni<br>olibyurish,<br>uning<br>harakatini<br>nazorat qilish<br>o'yinning<br>muvaffa<br>qiyatli<br>borishiga<br>ko'makla<br>shadi | markazini<br>shiddatbilanbos<br>ib o'tish, to'pni<br>o'zining oldida<br>olibyurish,<br>jamoadosh<br>sheriklari<br>uchun ochilish,<br>raqibning<br>himoyasini<br>aldab o'tish<br>(o'quv<br>mashg'ulot<br>lari paytida<br>bunday<br>tayyorgarlik<br>ni qisman yoki<br>to'liq amalga<br>oshirish) | to'pni uzatish<br>holatiga o'tishga<br>majbur qiladi,<br>uning oldinga<br>qarabharakatlanish<br>ini blokirovka laydi,<br>darvoza oldidan<br>siqib chiqaradi, zonal<br>himoya yoki shaxsan<br>blokirovkalash<br>yordamida raqib<br>jamoasi<br>o'yinchilarining<br>zonaga kirib kelishiga<br>to'sqinlik qiladi, (o'quv<br>mashg'ulotlari paytida<br>bunday tayyorgarlikni<br>qisman yoki to'liq<br>amalga oshirish) |

|                                                                             |                                                                                                                    |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                               |                                                                                                                    |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                 |
|-----------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <p>To'pni ushlabturih (o'yinning taktikasini belgilaydigan harakatlari)</p> | <p>Maydon bo'ylab unchalik ko'p ko'chmasdan va darvoza tomonga qarab harakatlarni masdan to'pni nazorat qilish</p> | <p>To'pni unga bevosita yaqin masofada va o'yin maydonining raqibdan xoli bo'lgan zonalarida olib yurish. Harakatlanishning sekin lashtirilgan sur'ati, raqib bilan yaqinlashishdan qochish, o'yin maydonining yaxshi obzoriga ega bo'lish, unga to'pni uzatish mumkin bo'ladigan sherigini ko'rish maydonida ushlabturih</p> | <p>Raqibdan xavfsiz masofada to'pni nazorat qilish, o'yin vaziyatini kuzatish, to'pni uzatishga tayyor bo'lish</p> | <p>Himoya guruhi o'yinchilari hujum tashkil qilishga urinadi, agar hujum mudofaa bilan almasha, maydonning raqib tomondagi qismiga uzoqqa ketish tavsiya qilinmaydi, maydonning o'rta chizig'idan mudofaa pozitsiyasini egallash va maydon markazidagi diagonal paslarga maksimal darajada e'tibor qaratish</p> |
|-----------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|

### 3-usul: Aldamchi harakatlari.

Hujum qilishning ba'zi bir elementlari shu tariqa futbol tarixiga kirgan Jahon klassidagi hujumchilarning nomlari bilan ataladi. Bu Shundan dalolat beradiki, ijodiy faoliyatga moyilligi bo'lgan har qanday o'yinchi raqibni aldab o'tish va undan uzilib ketishga yordam beradigan, aldamchi harakatlari deb ataladigan o'ziga xos individual hujum qilish elementlarini yaratishga qodir bo'ladi. Bu yangiliklardan uning o'zi ham, boshqa futbolchilar ham foydalanishi mumkin. Aldamchi harakatlarning "o'zining" yoki "qarzga olingan" elementlarini avtomatizm darajasiga yetkazish va o'yin paytida ularni o'ylab o'tirmasdan qo'llash uchun o'quv mashg'ulotlari jarayonida bitta o'quv mashg'ulotida ularni takrorlash sonini 50 tagacha etkazish bilan ularning bajarilishini aniq maqsadli takomillashtirib borish zarur bo'ladi. Oddiy aldamchi harakat. To'pni olib borayotgan o'yinchi himoyadagi o'yinchiga qarab harakatlanadi, o'zini chapga tashlash bilan aldamchi qadamni amalga oshiradi, to'pni esa o'ng tomonga olib o'tadi, shu tariqa raqibini aldaydi.

To'pni uzatishni imitatsiyalash.

O'yinchi raqibga qarab harakatlanish bilan to'pni o'ziga bevosita

yaqin masofada olibyuradi. Bunda o'ng oyog'i bilanto'pga zarba berishni imitatsiyalaydi. Raqib o'yinchisi to'pning uchishini blokirov-kalash uchun o'zini shu tomonga tashlagan paytda u uni chap tomondan aylanib o'tib ketadi.

To'pga zarbaberishni imitatsiyalash.

To'pga egalik qilibturgan o'yinchi to'pni go'yo uzatmoqchiday yoki qanotga oshirmoqchiday bo'libto'pga zarbaberishni imitate-siyalaydi. Raqib o'yinchisi zarbani blokirovkalash uchun o'zini shu tomonga tashlaganda aldamchi harakatni amalga oshirgan o'yinchi to'pni oyoq kaftining ichki tomoni bilanboshqa tomonga olib o'tadi.

Pastlatib uzatish.

O'yinchi oyoq kaftining ichki tomoni bilanto'pni kutilmaganda raqibining yoyilgan oyoqlari orasidan sherigiga uzatadi. Shundan keyin tezda chapga yoki o'ngga sakraydi.

4-usul: Itarish. O'yin qoidalarida kurash paytida raqibni o'zining gavdasi bilan itarish kabi o'yin elementi ko'zda tutilgan. O'yinchi itarish harakatlarini elkasi bilan yoki gavgagi qisilgan tirsagi bilan amalga oshiradi. Shu tariqa u raqibini muvozanatdan chiqarishga, to'pni egallab olishga yoki to'pni nazorat qilishni saqlab qolishga harakat qiladi. Agar turtish kutilmaganda bajarilsa to'pni egallab turgan o'yinchi muvozana-tini yo'qotadi va to'pni ham yo'qotadi. Bunda tirsaklar yoki qo'llarni qo'llash o'yin qoidalari bilan qat'iyana ta'qiqlanadi. To'pga egalik qilibturgan o'yinchi to'p bilan raqibning orasidan joy egallash bilan itarishga qarshi turishga harakat qiladi va o'yin sur'atini yoki harakatlanish yo'nalishini o'zgartirishga harakat qiladi. O'quv mashg'u-lotlarida bu elementni alohida, biroq albatta quyidagi o'yin vaziyatlarida ishlab chiqish mumkin: Tinch holatda yoki qo'llarni gavgaga qisgan holda harakatlanish bilan itarish, avval to'psiz, keyin esa to'p bilan.

Bo'yi har xil bo'lgan o'yinchilarni itarish. Har xil jismoniy kuchga ega bo'lgan o'yinchilarni itarish. To'p bilan yoki to'psiz sekin yugurish paytida yoki sprintercha yugurish paytida itarish. Aldamchi harakatlar-ning elementlarini qo'llash, tezlik va harakat yo'nalishini o'zgartirish bilan itarish. To'pni egallab olish maqsadida korpusni biroz burish bilan elka bilan itarish. To'p bilan yoki to'psiz sakrash bilan itarish.

Agar o'yinchi to'pni egallab olsa va uning maqsadi raqib

darvozasini ishg'ol qilish bo'lsa, u holda u Ushbu masofani mumkin qadar tezroq bosib o'tish uchun darvoza tomonga qarab katta tezlik bilan harakatlanishi lozim bo'ladi. Bunda to'p oyoq yuzasini yuqorigi qismi bilan olib yuriladi. To'pni olib yurishning bunday usulida optimal yugurish tezligiga erishiladi. To'p uning tasarrufida bo'lgan o'yinchi raqib o'yinchisi bilan uchrashganda uni aylanib o'tishi, kurashda ishtirok etishi yoki to'pni o'zining sherigiga uzatishi mumkin.

Kurashlarda bevosita ishtirok etish faqatgina endilikda dribling qo'llashning iloji bo'lmagan hollarda sodir bo'ladi. Bunda to'p uning tasarrufida bo'lgan o'yinchi kurashni muvaffaqiyatli yakunlash va to'pni saqlab qolish uchun aldamchi harakatlarning elementlaridan foydalanishi lozim bo'ladi.

Taklif qilinadigan jadval uning maqsadlari, bajarish texnikasi, o'yinchilarning harakatlari va ularning reaksiyasi bilan driblingning uchta turini taqdim qiladi.

| Turi           | Maqsadi                                                                                                      | Boshlang'ich pozitsiya                                                                                | Texnika                                                                                                                                              | Xavf-xatar                                                                                                                     |
|----------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Asosiy tekling | Paslar, qanotga oshirishlar, Darvozaga zarbalar, to'pni egallabturgan raqibi ning driblingining oldini olish | Himoyadagi o'yinchi ning to'pni egallabturgan o'yinchi ning oldida yoki u bilan yonma-yon joylashishi | Himoyadagi o'yinchi raqib bilan jismoniy kontaktga kirishmasdan to'pning harakatini blokirovka laydi yoki to'pni oyog'i bilan olib qo'yishga urinadi | -O'yin elementini tashkil qiladigan tekling bu elementga murojaat qiladigan o'yinchining jarohatlari shiga olib kelishi mumkin |
| Sirg'aluvchi   | To'pni                                                                                                       | Asosiy                                                                                                | Himoyadagi                                                                                                                                           |                                                                                                                                |
| tekling        | egallabturgan                                                                                                | teklingni                                                                                             | o'yinchi maydon                                                                                                                                      | -To'g'ri                                                                                                                       |
|                | o'yinchini                                                                                                   | qo'llashning                                                                                          | bo'yab to'pga                                                                                                                                        | kelmaydigan                                                                                                                    |
|                | to'pdan                                                                                                      | iloji                                                                                                 | qarab sirg'aladi,                                                                                                                                    | momentda                                                                                                                       |
|                | ajratish                                                                                                     | bo'lmagan                                                                                             | to'pning harakatini                                                                                                                                  | amalg                                                                                                                          |
|                |                                                                                                              | vaziyatda                                                                                             | blokirovka                                                                                                                                           | oshirilgan yoki                                                                                                                |
|                |                                                                                                              | himoyadagi                                                                                            | laydi yoki uni yon                                                                                                                                   | yomon                                                                                                                          |
|                |                                                                                                              | o'yinchining                                                                                          | tomonga                                                                                                                                              | muvofiqlash                                                                                                                    |

|                                                                  |  |                                                                                                             |                                                                                                                                                                                      |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                            |
|------------------------------------------------------------------|--|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
|                                                                  |  | to'pni                                                                                                      | tepibyuboradi,                                                                                                                                                                       | tirish                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                     |
|                                                                  |  | egallabturgan                                                                                               | Shundan keyin u                                                                                                                                                                      | bilanbajarilgan                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                            |
|                                                                  |  | o'yinchining                                                                                                | yana oyoqqa                                                                                                                                                                          | tekling o'yin                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                              |
|                                                                  |  | oldida,                                                                                                     | turadi                                                                                                                                                                               | qoidalari                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                  |
|                                                                  |  | orqasida yoki                                                                                               |                                                                                                                                                                                      | ning                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                       |
|                                                                  |  | u bilan                                                                                                     |                                                                                                                                                                                      | buzilishiga                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                |
|                                                                  |  | yonma-yon                                                                                                   |                                                                                                                                                                                      | yoki                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                       |
|                                                                  |  | joylashishi                                                                                                 |                                                                                                                                                                                      | jarohatlarga                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                               |
| Oyoqning                                                         |  | Himoyadagi                                                                                                  | Himoyadagi                                                                                                                                                                           | olib kelishi                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                               |
| tovoni                                                           |  | o'yinchi                                                                                                    | o'yinchi to'pga                                                                                                                                                                      | mumkin                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                     |
| yordamida                                                        |  | to'pni                                                                                                      | tomon yo'nalishda                                                                                                                                                                    |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                            |
| sirg'aluvchi tekling                                             |  | egallabturgan o'yinchining oldida yoki u bilan yonma-yon harakatlanadi                                      | xuddi to'siqlar osha yugurishdagi kabi holatni qabul qiladi va oyoqning tagi bilanto'pni egallab olishga yoki uni raqibning oyog'i ostidan tepibyuborishga urinadi                   | -Muvaffa qiyatli chiqmagan tekling to'pning yo'qotili shiga, jarima zarbasiga, o'n bir metrlik jarima zarbasiga, ogohlanti rish olishga yoki maydondan haydab chiqarishga olib kelishi mumkin -O'zining darvozasi zonasida qoidani buzish bilan amalga oshirilgan tekling raqib jamoa tomonidan gol urilishiga olib kelishi mumkin -Himoyadagi o'yinchi tomonidan amalga oshirilgan tekling to'pni egallabturgan raqibning yiqilishiga olib kelishi mumkin |
| Oyoq kaftining ichki tomoni yordamida tekling                    |  | Himoyadagi o'yinchi to'pni egallabturgan o'yinchi bilan yonma-yon yoki deyarli uning orqasida harakatlanadi | Himoyadagi o'yinchi to'pga qarab sirg'aladi, uni maydon yuzasida oyoq kaftining ichki tomoni bilanblokirovkalay di, uni shu tariqa ushlaturadi va tezda ko'tariladi va oyoqqa turadi |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                            |
| Oyoq ko'tarilishi ning ichki va yuqorigi qismi yordamida tekling |  | Himoyadagi o'yinchi to'pni egallabturgan o'yinchi bilan yonma-yon yoki undan biroz orqaroqda harakatlanadi  | Himoyadagi o'yinchi oyoq ko'tarilishi ning ichki va yuqorigi qismi yordamida to'pni egallab olishga va uni raqibdan teskari tomonga olib ketishga harakat qiladi                     |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                            |

6-usul: Darvozaga zarba berish.

Unchalik ko'p bo'lmasada, biroq har holda o'yinchilar ba'zan erkin holatdan darvozaga zarba berishga muvaffaq bo'ladilar. To'g'ri, aksariyat hollarda to'pni egallabturgan o'yinchi darvozaga zarba berishga yo'l qo'ymaslik uchun raqib tomonidan blokirovkalanadi. Bunday kurashlarda bombardimig stretegik va taktik holatini yaxshilashi mumkin bo'lgan maxsus tavsiyalar amal qiladi.

Darvoza tomonga to'g'ri zarba berish faqatgina boshqa yaxshiroq variantlar bo'lmagan taqdirda amalga oshiriladi.

To'p uning tasarrufida bo'lgan o'yinchi aldamchi harakatlar yordamida raqibni aldab o'tishga va darvozaga zarba berishga urinishi lozim.

Darvozaga zarba berishda zarbaning kuchi emas, uning qanchalik aniqligi muhim bo'ladi. Himoyachi va darvozaabonda reaksiya ko'rsatish uchun mumkin qadar oz vaqt qolishi uchun zarba berish momentini mumkin qadar uzoqroq vaqt yashirish lozim bo'ladi (yashirin zarba).

Agar o'yinchining harakatlanish tezligi raqibga qaraganda yuqori bo'lsa, darvozaga zarba berish jarayonida u o'z-o'ziga pas berishdan foydalanishi mumkin. Pasni qabul qilishda o'yinchi to'pni qarshi olishga yugurishi yoki uni quvib etishi lozim bo'ladi.

Hujumchi o'zining harakatlarini darvozaabon va raqib jamoa o'yinchilarining harakatlarini kuzatish natijalari asosida qurishi lozim.

O'z jamoasining o'yinchisiga to'p uzatishni amalga oshirish faqatgina u darvozaga zarbaberish uchun eng yaxshi pozitsiyada bo'lgan holatda ma'noga ega bo'ladi.

7-usul: Bosh bilan o'ynash.

Uchrashuv paytida o'yin maydonida to'p bilan barcha manipulyasiyalarni pastlatib bajarish mantiqqa to'g'ri keladiganday bo'lib tuyuladi. Biroq darvoza oldidagi xavfni bartaraf qilish uchun to'pning darvozaabon tomonidan qaytarib yuborilishi, burchak zarbasini qaytarish, qanotdan yuqorilatib oshirilgan to'pni qaytarish, jarima zarbasini qaytarish, yon chiziqdan tashlab berilgan to'pni qaytarish kabi ko'plab vaziyatlar bo'ladiki - bunda to'pning manipulyasiyasini boshbilan amalga oshirishga to'g'ri keladi.

Murakkab bo'lmagan o'yin vaziyatida to'pni bosh bilan qaytarish

amalda unchalik qiyin bo'lmaydi, biroq kurash paytida bu harakatni bajarish juda qiyinlashadi. raqib bilan kurashda to'pni bosh bilan egallab olish uchun barqaror holatda turish, tana va bo'yinning mos keluvchi muskullari esa zo'rliq holatda bo'lishi zarur bo'ladi.

Quyida "Bosh bilan o'ynash" o'yin elementini ishlab chiqishga yo'naltiriladigan mashqlar keltirilgan: Yugurish yoki sakrash holatidan bosh bilan zarba berish

Bitta yoki ikkala oyoqda sakrash bilan bosh bilan zarba berish

Gavdaning to'pga nisbatan to'g'ri yoki yon tomoni bilan turgan holatida bosh bilan zarba berish. Qadamlab yurish holatida bosh bilan zarba berish. To'pni to'xtatish uchun bosh bilan zarba berish.

To'pning uchishiga oldinga, yon tomonga, orqaga ma'lum bir yo'nalishni berish uchun bosh bilan zarba berish. Peshona yoki boshning orqa qismi bilan zarba berish.

Futbolga endigina kirib kelayotgan futbolchilar bosh bilan zarba berishni mashq qilayotganlarida yumshoq, elastik qoplamali to'pdan foydalanishlari lozim.

Yuqorida keltirilgan barcha mashqlar o'quv mashg'ulotlari paytida o'yinchilar tomonidan individual tarzda, o'yin maydonida vujudga kelishi mumkin bo'lgan turlicha o'yin vaziyatlarida bajarilishi lozim. Mazkur usulni ishlab chiqishning birinchi bosqichida ko'zda tutiladigan raqib bor kuchi bilan qarshilik ko'rsatmasligi lozim.

## **§9.5 Bellashuv qanday shakllantiriladi**

O'yin maydonida kurashning muvaffaqiyatli yakun topishi o'yinchilar o'yindan oldin yoki o'yin jarayonida ularning oldiga qo'yilgan vazifalarni qanday bajarishiga bevosita bog'liq bo'ladi. Jamoaning har bir o'yinchisi yaxshi texnik va jismoniy tayyorgarlikka ega bo'lishi, yaxshi muvofiqlashtirishni bilishi va o'yin jarayonida undan yaxshi foydalanishi lozim. Bundan tashqari o'yinchining psixologik tayyorgarligi ham muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Bellashuvda yutib chiqish uchun umumiy ko'rsatmalar. Agar o'yinchi tayyorgarlikning barcha - jismoniy, ruhiy, texnika mental jihatlariga ega bo'lsa, u kurashga kirishishga qodir bo'ladi, uni tajovuzkor ruhda va qat'iyat bilan, barcha texnik priyomlarni qoidalarni buzmaganda holda qo'llash bilan olib boradi. Bunday o'yinchi raqibga izchillik

bilanhujum qilishga va butun o'yin davomida shunday holatni saqlashga qodir bo'ladi.

Kurashga kirishishdan oldin o'yinchi o'zining harakatlari o'zini qanchalik oqlashi, to'p uchun kurashga kirishishda o'zining imkoniyatlari qanchalik yuqori ekanligi to'g'risida intuitiv ravishda o'ylab ko'rishi kerak bo'ladi. Shu bilanbirgalikda bir qator boshqa savollar ham paydo bo'ladi: Kurash qanday formada qabul qilinishi lozim? To'p uchun kurash olibborishning qaysi vositalarini qo'llash mumkin? Kurash boy berilgan taqdirda jamoadosh sherigi tomonidan xavfsizlik va himoya qanday ta'minlangan?

Agar o'yinchi quyida keltiriladigan tavsiyalarga amal qilsa, u holda uning kurashda muvaffaqiyat qozonishi ta'minlanadi:

O'yinni profilxtarzda idrok qilish, o'yin vaziyatlarini oldindan his qilish, raqibning harakatlarini oldindan ko'ra bilish

O'yinchi o'yin davomida o'zining kuchli tayyorgarlikjihatlari - tezlik, aldamchi harakatlarni qo'llashi lozim, to'pni olibyurishda epchil bo'lishi lozim Raqibtayyorgarligining kuchsiz tomonlaridan o'zining foydasi uchun foydalanish To'p yo'qotilganda yoki unga egalik qilinganda tezda yangi o'yin vaziyatiga o'tish

O'zining bilimlari va tajribasiga to'g'ri baho bergan holda qat'iyatbilan kurashga kirishish. To'p uchun kurashda o'ylangan harakatlardan chekinmaslik.

Quyida sanab o'tiladigan mezonlardan hujum qilishda ham, himoyalanishda ham bellashuvlarda foydalanilishi mumkin. Hujum qilish kriteriyalari to'pni egallash va uni o'zida ushlab turishda ishonch. To'p bilan zich kontaktda bo'lish hisobiga uni ishonchli nazorat qilish. To'pni o'zinig gavgdasi bilan raqibdan himoya qilish.

Aldamchi harakatlarning elementlaridan foydalanish bilan qat'iy tarzda dribling qo'llash. O'z jamoasining o'yinchilariga qisqa paslar berish. To'pni uzatgandan keyin o'yin maydonining bo'sh zonasini qidirish. Tashabbuskorlik va tavakkal qilishga tayyorlik, har qanday vaziyatda to'pni egallab turishga bo'lgan ishtiyoq.

To'p bilan ijodiy ishlash. Himoyalanish kriteriyalari.

O'zining maydondagi majburiyatlariga muvofiq pozitsion o'yin olib borish (shaxsan qo'riqlash yoki zonal himoya), o'yinni doimo nazorat ostida ushlash. Raqib jamoaning hujumchisini blokirovkalash, uning darvoza tomonga qarabharakatlanishiga

xalaqitberish, to'p uchun kurashga kirishish. Hujumchini qat'iyat bilan o'zining harakatlar ritmidan chiqarish, uni xato qilishga majbur qilish uchun unga o'rnatilgan qoidalarni buzmaganda holda jismoniy ta'sir o'tkazish. Raqibning oyog'i ostidan to'pni tepib yuborish yoki raqibni quvib o'tishga urinish Hujumchiga nisbatan shiddat bilan, biroq qoidalarni buzmaganda holda tekling elementlarini qo'llash. To'pni olib kelayotgan raqib o'yinchisining atrofida son jihatidan ustunlikka erishish. Imkon qadar erga yiqilib tushmaslik. O'yin qoidalarini buzmaslik lozim, chunki bu to'pning raqib jamoa tasarrufiga o'tishiga olib keladi.

Kurashda o'yinchining mentalligi kurashning muvaffaqiyatli yakunlanishini tarkibtoptiradigan hal qiluvchi omil bo'lib hisoblanadi. Kurash boy berilgan taqdirda o'yinchi tezda mag'lubiyat holatidan chiqishi va o'zining kuchiga bo'lgan ishonchsizlikni eng olishi zarur bo'ladi. To'pni egallab olgan raqib jamoa o'yinchisiga to'pdan foydalanish imkonini bermaslik, unga qaytadan hujum qilish, u bilan qaytadan kurashga kirishish va bunda g'alaba qozonishga intilish lozim. O'ziga bo'lgan ishonchni yo'qotgan o'yinchiga jamoadosh sherigi yordamga etib kelishi mumkin, u to'p uchun kurashda son jihatidan ustunlikni yaratadi.

### **§9.6 Bellashuvning texnikasini egallashning mahoratini oshirish**

Bellashtog'risida yuqorida nimaiki aytilgan bo'lsa, har qanday yoshdagi va har qanday tayyorgarlik darajasiga ega bo'lgan futbolchi uchun qo'l keladi. Biroq mahorat va shug'ullanganlik darajasi o'qitishning maqsadi va sportchining yoshiga bog'liq bo'ladi.

### **§9.7 Bolalik yoshidagi futbol**

Bolalik yoshidanoq faol tarzda futbolga qo'shilgan odam har qanday maqtovg'a arziydi. Biroq hamma sportchi ham yoshlik paytida o'zining rolini to'g'ri anglayvermaydi va o'yin maydonida raqiblarga nisbatan ham, jamoadoshlariga nisbatan ham o'zining munosabatini to'g'ri quravermaydi. Shu sababli yosh futbolchi to'pni egallab olish va o'zining o'yinini ko'rsatish uchun o'z jamoasining o'yinchisiga

hujum qiladigan vaziyatlar ko'p uchraydi. Boshqalarda taassurot uyg'otish va o'zini ko'rsatish uchun yosh o'yinchi ko'pincha futbolning jamoaviy ruhiga mos kelmaydigan harakatlarni sodir qiladi, ular ota-onalari va qarindoshlarining xato tasavvurlariga ko'ra unga foyda keltiradiganday bo'lib tuyuladigan kuchli intilishni namoyon qiladi. Bunday vaziyatlarda murabbiy o'zining o'yinchilarini o'qitishda bolalar psixikasining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olishi va maksimal darajada e'tiborli va ehtiyotkor bo'lishi lozim. U raqibga har qanday jismoniy ta'sir o'tkazishni ta'qiqlashi va tananing har qanday qismini zarba berish uchun ta'qiqlangan zona deb e'lon qilishi lozim. Bunday ehtiyotkorlik choralari yosh sportchida xafagarchilik vujudga kelmasligi va futboldan hafsalasi pir bo'lmasligi uchun ishonchli to'siq bo'lib xizmat qiladi. Biroq oradan qandaydir vaqt o'tgandan keyin murabbiy raqibga jismoniy ta'sir ko'rsatishining ba'zi bir elementlarini ko'rsatib berish - bajarish prinsipi asosida kiritishi mumkin.

10 yoshgacha kurash harakatlarini o'rgatish bu priyomning konkret elementlarini mashq qilmasdan o'yin formasida o'tkaziladi. Shu tariqa bolalar bu priyomni o'rganadilar va zaruriy tajribani hosil qiladilar. Kim tezkor bo'lsa, u har doim to'p bilan birga bo'ladi. Kimki aldamchi harakatlarni ko'proq qo'llasa va to'pni yaxshi olib yursa, raqib uning harakatlarini oldindan ko'ra bilishi qiyin bo'ladi. Kimki o'ziga ishonsa - u muvaffaqiyatga erishadi. Kim yuqoriroqqa sakray olsa, u har doim bosh bilan zarba berishda ustunlikka ega bo'ladi. Bu yoshdagi futbolchilarda xatolarning ildiz otishi murabbiy uchun etarlicha qiyinchiliklarni tug'diradi. Shu sababli murabbiy muvaffaqiyatga bo'lgan intilishni shakllantirish va futbol maydonidagi o'yin yosh futbolchilarga quvonch keltirishi uchun yosh futbolchi-larning kuchli jihatlariga alohida e'tibor qaratishi lozim bo'ladi.

## **§9.7 O'smirlik yoshidagi futbol**

Kurashning konkret elementlarini ishlab chiqish bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini olibborish D/C guruhlaridanoq boshlanishi mumkin bo'ladi. Murabbiy o'zining shogirdlarini o'qitishda bu yoshdagi futbolchilarning xulq-atvori va xarakterining o'ziga xos xususiyatlari

va turli jihatlarini e'tiborga olishi lozim bo'ladi. U o'yinlar oldidan ularning his-tuyg'ulari turlicha bo'lishini, ularning o'yin paytida vujudga keladigan turli vaziyatlarga qanday reaksiya ko'rsatishini va turlicha vaziyatlarda o'zini qo'lga ola bilishini hisobga olishi lozim bo'ladi.

Yosh futbolchilar kurashga qandaydir bir mardlikni his qilish bilan kirishadilar. To'pni egallab olishga bo'lgan ishtiyoq ulami yolg'iz harakat qilishga undaydi. SHu sababli bunday fazada bo'lgan futbolchilar murabbiy o'quv mashg'ulotlari tizimiga kurashning texnik elementlarini avvalgilarga qaraganda murakkabroq formada kiritishiga tayyor bo'ladilar, bunda murabbiy ularning e'tiborini raqibga nisbatan o'zini qanday tutish prinsiplariga qaratishi lozim bo'ladi.

Kurashdagi harakatlarni mashq qilish alohida misollar va elementlarda emas, o'quv mashg'ulotining o'yin jarayoni majmuasida sodir bo'lishi lozim. Butun o'quv mashg'ulotlari jarayonini shunday tashkil qilish kerak bo'ladiki, bunda yosh futbolchilar faqatgina sheriklarining xatolarini emas, o'zlarining xatolarini ham ko'ra olsun. Bunday ko'rgazmali o'qitish yosh futbolchilarning ko'nikmalari va tajribasini rivojlantirishda katta rol o'ynaydi. Bunday o'qitish jarayonida o'yinchilarda o'zining harakatlariga to'g'ri baho berish tuyg'usi paydo bo'ladi, bundan tashqari, kurashning boshqa futbolchilar tomonidan bajarilgan - ularga yoqib qolgan elementlarini ular o'zlarining arsenallariga kiritishi mumkin bo'ladi. Bunday rivojlanish fazasida futbolchilarda voqea-hodisalarni oldindan ko'ra bilish tuyg'usi, to'pni egallab olishda raqibning harakatlariga yazshi reaksiya ko'rsatish qobiliyati paydo bo'ladi. Bundan tashqari muvofiqlashtirish qobiliyati paydo bo'ladi va rivojlanadi.

S va D guruhlaridagi o'smirlar uchun o'quv mashg'ulotlarining mumkin bo'lgan mazmuni.

Maqsad: o'yinning murakkab formalariga erishish. To'p bilan raqibning yonida bo'lganda o'yinning turli elementlaridan foydalanish bilanto'pni yo'qotmaslikka harakat qilish To'p bilan raqibning yonidan ketish. To'pga egalik qilgandan keyin raqibni aldash, zarurat bo'lganda aldamchi harakatlar va devor usulida o'ynashni qo'llash bilanto'pni o'zida ushlabturish To'pga egalik

qilgandan keyin harakatlanish yo'nalishini o'zgartirish bilan raqibning yonidan uzoqlashish. To'p bilan kelayotgan raqibga ro'paradan, qat'iyat bilan, biroq shoshma-shosharlik qilmasdan hujum qilish

To'p bilan kelayotgan raqibning harakatlarini blokirovkalash va to'pni egallab olish

Barchaharakatlarni mos keluvchi vaqtda va o'yin vaziyatiga mos keladigan sur'atda amalga oshirish.

### **§9.8 O'yinning konkret formalaridan umumiy formalar sari**

V va A guruhlardagi yosh futbolchilar shunday o'tish yoshida bo'ladilarki, bunda ular o'zlarining kuchiga bo'lgan psixologik ishonchsizlikni his qiladilar, ular ayniqsa o'zlarining nomlariga bildirilgan tanqidni yoqtirmaydilar. Bundan tashqari ular o'ta maksimalist bo'ladilar va ularning har biri o'zini supermen rolida ko'radi. O'tish yoshining bu davri o'zida shaxsning shakllanishining bosqichlaridan birini taqdim qiladi. Bu paytda yosh futbolchilar o'zlarining muvaffaqiyatga erishish imkoniyatlarini bilishga urinadilar, ularga realistlik baho beradilar, ulami mahoratning yangi – murakkabroq elementlari bilan murakkablashtirish orqali ilgari o'zlashtirilgan ko'nikmalarni takomillashtirishga urinadilar. Bu davrda ular hatto o'yin sur'ati yuqori bo'lgantaqdirda ham maydon bo'ylab ishonchliroq harakatlana boshlaydilar. Biroq ba'zan o'yinda erishilgan yutuqlarga mag'lubiyatlar ham hamrohlik qiladi.

Yosh futbolchilar ularning kelgusida sportchi va shaxs sifatida rivojlanishlari uchun har tomonlama o'qitishga muhtoj bo'ladi. Bu kurashlarga ham taalluqli bo'ladi. Ikkala oyoq bilan o'ynashni o'rganish.

Bunda kurash paytida bitta oyoq bilan o'ynash imkoniyati vujudga kelishi mumkin. Ma'lum bir o'yin pozitsiyalari va o'yin manerasiga asta-sekin ixtisoslashish.

Yosh futbolchilarni ularni shaxs sifatida rivojlantirishga ham, ulardagi o'yin ko'nikmalarini rivojlantirishga ham yo'naltirilgan har tomonlama o'qitish zarur bo'ladi. O'yin texnikasini rivojlantirish ustida aniq maqsadli ishlash. O'yin maydonida kimki to'pga texnik jihatdan yaxshi egalik qilsa, u to'p bilan uzoqroq muddat birgabo'ladi

va to'p uchun kurashda unchalik ham jon koyitmaydi. Bularning hammasi o'yinda quvonch olib keladi.

Xavfsiz o'ynashning taktik priyomlari katta yoshdagi yosh futbolchilarga to'g'ri keladi. Bunday priyomlar o'yinda muvaffaqiyatga erishish uchun xizmat qilishi mumkin, agar o'yin sur'ati sekinlashsa, bunda o'yindan quvonch olish yo'qoladi. Yosh o'yinchi o'zini ko'proq himoyada emas, hujumda ko'radi. Chunki ular o'yinning asosiy ma'nosini urilgan gollarning sonida deb biladilar, raqib jamoa o'yinchilarining istagi ham xuddi shunday ekanligini mutlaqo hisobga olmaydilar.

Har bir alohida olingan o'yinchiga taktik vazifalar qo'yilishi o'yinga bo'lgan qiziqishning pasayishiga olib keladi. Chunki bu yosh futbolchilarda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan xatolardan qo'rqishni chaqiradi, bu esa o'yinchilarning harakatlarini jilovlab qo'yadi.

O'quv mashg'ulotlari paytida bosh bilan o'ynashning umumiy texnikasiga o'qitishga yo'l qo'yiladi. Yosh futbolchilar futbolda faqatgina oyoqlar emas, balki o'yinni tashkil qiladigan tarkibiy qismlardan biri sifatida bosh ham o'ynashini bilib oladilar.

### **§9.10 Bellashuvning pozitsion ahamiyati va uning o'quv mashg'ulotlaridagi o'rni**

Ilgari aytib o'tilganidek o'yin maydonidagi kurashlarning muvaffaqiyatli yakun topishi o'yinning muvaffaqiyatli tugashini belgilaydi. Bunig uchun o'quv mashg'ulotlari paytida jamoaning alohida olingan o'yinchilari tomonidan ham, jamoadagi alohida o'yinchilar guruhi tomonidan ham, va butun jamoa tomonidan ham kurash olib borilishi taktikasiga katta e'tibor qaratish lozim bo'ladi. O'quv mashg'ulotlarining barchabosqichlarida kurash olib borishning turli tarkibiy qismlari harakatga keltirilishi mumkin.

Faza: Chigal yozish.

Futbolchi to'p bilan mustaqil ravishda shug'ullanadi va quyidagi elementlarni bajaradi: O'ng va chap oyoq bilan dribling, to'pga zarbaberishni imitatsiyalash, aldamchi harakatlar, sur'at va harakatlanish yo'nalishini o'zgartirish. Avval o'rganilgan tryuklar va fintlarni mashq qilish va takomillashtirish individual tajribasiga muvofiq to'p bilan har xil harakatlarni eksperiment qilib ko'rish.

Ijodiy va individual qayta ishlash bilan yangi fintlarni ishlab chiqish.

Asosiy faza.

Bu faza jarayonida o'yinchining o'yin maydoni bo'ylab harakatini tarkib toptiradigan barcha elementlar-jismoniy, texnik-taktik va koordinatsion tayyorgarlik o'z qo'llanilishiga ega bo'ladi. Kurash paytida vujudga kelishi mumkin bo'lgan, o'yinning tarkibiy qismi bo'lib hisoblanadigan konkret vaziyatlarni mashq qilishga alohida e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Jismoniy tayyorgarlik sohasidan energiya va reaksiyani kuchaytirish uchun o'yinchining harakatlanish tezligini rivojlantirishga qaratilgan mashqlardan (tezlanish olish, sprint) foydalaniladi. Bu mashqlarning barchasi to'p bilan va to'psiz bajariladi. Texnik-taktik sohadan dribling, darvozaga zarba berish, yakkama-yakka va guruh y o'yinda raqibni aldash, shuningdek son jihatidan ustun va son jihatidan ozchilik bo'lgan vaziyatlardagi mashqlardan foydalaniladi.

Yakuniy faza.

Har qanday o'quv mashg'ulotini qo'yilgan ma'lum bir vazifani ishlab chiqish bilan tugatish lozim bo'ladi. Masalan, aldamchi harakatlarning elementlaridan foydalanish bilan raqibni aldab o'tish va darvozaga zarbaberish.

Bellashuv paytida o'zini qanday tutishga o'qitish jarayonini uslubiy jihatdan uchta bosqichga ajratish mumkin.

1- bosqich. Mashqlarni imkon qadar tez-tez konkret vazifalarning variantlarini almashtirish bilan turlicha shartlarda bajarish (umumiy forma), ularni takrorlash va bu elementlarning avtomatik tarzda bajarilish holatigacha yetkazish mumkin.

2- bosqich. Mashqlar o'zgaruvchan shartlarda raqib o'yinchilarining ishtiroki bilan o'yin jarayonida (to'liq bo'lmagan faollik bilan va to'liq faollik bilan) bajariladi. Ushbu fazada qo'yilgan vazifaning optimal yechimlarini qidirishda jamoa o'yinchilarining qanchalik yaxshi o'ynay olishi muhim ahamiyat kasb etadi.

3- bosqich. Musobaqalarning o'quv mashg'ulotlarining ham, musobaqalarning o'zining ham ajralmas qismini tashkil qiladigan turlicha o'yin formalariga kurashdagi harakatlarning avvaldan ishlab chiqilgan formalarini kiritish lozim bo'ladi.

O'yinning turli elementlarini ishlab chiqishga nisbatan yuqorida

tasvirlangan uslubiy yondashuv birinchi navbatda professional futbolchilar uchun qo‘l keladi va muvaffaqiyatga erishishga yo‘naltililadi. Bunda ba‘zi bir fazalarga alohida e‘tibor bilan qarash va ba‘zi bir o‘yin vaziyatlari bilan maxsus o‘quv uchun imkon qadar alohida vaqt ajratish lozim bo‘ladi. O‘quv mashg‘ulotining umuman olganda o‘yinchilarni haqiqiy o‘yinga yaqinlashtiradigan bunday turini yosh futbolchilarga ham, havaskor futbolchilarga ham qo‘llash mumkin. Garchi buning uchun murabbiy va jamoada kuchli asoslangan sabablar bo‘lishi kerak bo‘lsada, o‘quv mashg‘ulotlari paytida u yoki bu vazifalarni ishlab chiqish ko‘proq vaqtni talab qiladi. O‘quv mashg‘ulotlari paytida son jihatidan ustun bo‘lish vaziyatidan ham, son jihatidan ozchilik bo‘lish vaziyatidan ham, raqib qisman faol bo‘ladigan vaziyatdan ham, to‘liq faol buladigan vaziyatdan ham “oddiydan murakkabga qarab” prinsipi bo‘yicha foydalanish lozim bo‘ladi.

| BELLASHUV                      |                                            |         |                                               |
|--------------------------------|--------------------------------------------|---------|-----------------------------------------------|
| ASOS BO‘LIB HISOBLANADIGAN ASP |                                            | PEKTLAR |                                               |
| Jismoniy tayyorgarlik          | Koordinatsion tayyorgarlik                 |         | Texnik-taktik tayyorgarlik                    |
| O‘yin vaziyatlari              |                                            |         | O‘yin vaziyatlari                             |
| Son jihatidan ustunlik         | O‘yinchilarnig soni teng                   |         | Son jihatidan ozchilik                        |
| Maqsad                         | Son jihatidan ustun bo‘lganda hujum qilish |         | Son jihatidan ozchilik bo‘lganda hujum qilish |
| Yolg‘iz o‘ynash                |                                            | 1:1     | 1:2 yoki 1:3                                  |

|                         |                                                                                                               |       |                             |
|-------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------|-----------------------------|
| Guruhiy o'yin           | O'yinchilar hisobiga<br>5:3<br>Neytral o'yinchi<br>hisobiga 1+3:2<br>Darvozabon hisobiga:<br>Darvozabon + 4:2 | 4:4   | O'yinchilar hisobiga<br>4:6 |
| Jamoa bo'lib<br>o'ynash |                                                                                                               | 11:11 |                             |

### Nazorat savollari

1. Bellashuvlarda murabbiyning ahamiyati qanday?
2. O'yinchi qanday qobiliyatlarga ega bo'lishi zarur?
3. Bellashuvdagi texnik elementlar deganda nimalar tushunasiz?
4. Futbolsilarni maydonda to'psiz harakatlar deganday qanday harakatlarni tushunasiz?
5. Bellashuv qanday shakllantiriladi?
6. To'pning atrofidagi harakat faoliyatlar bo'yicha qanday ma'lumotlarga egasiz?
7. Bellashuvning texnikasini egallashning mahoratini oshirish shartmi va kerakmi?
8. Bolalik yoshidagi futbol tushunchasi nimani o'z ichiga oladi?
9. O'smirlik yoshidagi futbol tushunchasi nimani o'z ichiga oladi?
10. O'yinning konkret formalaridan umumiy formalar sari o'tish deganda nimani tushunasiz?

## **X BOB. BELLASHUVDA MUVAFFAQIYATLI YAKKKURASH OLIB BORISH UCHUN ASOSIY O‘QUV MASHQLARI**

Kurashlar futbolning asosini hosil qiladi, va har ikkala jamoaning darvozasi oldida vujudga keladigan vaziyat va umuman o‘yinning qanday yakun topishi ulaming natijaviyligiga bog‘liq bo‘ladi. Kurash olib borishning yuqori mahoratiga bu san‘atning yuqori darajasini egallashni ta‘minlaydigan o‘quv mashg‘ulotlarida erishish mumkin. Ilgari aytib o‘tilganidek, jarayon va kurashning muvaffaqiyatli yakun topishiga turli aspektlar katta ta‘sir ko‘rsatadi: raqibning harakatlariga reaksiya ko‘rsatish tezligi va kurashga kirishish tezligi bilanbir qatorda alohida olingan har bir o‘yinchining o‘yinning qanday yakun topishiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgantexnik-taktik qobiliyatlari muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

O‘quv mashg‘ulotlari paytida jismoniy tayyorgarlik jarayoni futbol o‘ynashning umumiy talablariga mos kelishi lozim. Bu shuni bildiradiki, har qanday o‘quv mashg‘uloti jismoniy tayyorgarlik elementlarini o‘z ichiga olishi va shu tariqa uni real o‘yin sharoitlariga yaqinlashtirishi lozim.

**Chunki bu talablarga amal qilish jamoaga yaxshi jismoniy tayyorgarlik bilanbir qatorda o‘yinchilarning texnik-taktik ko‘nikmalarini yaxshilashni ham olib keladi.**

O‘yinni kuzatish bilan kelgusida o‘quv mashg‘ulotlari jarayonida qo‘l keladigan vaziyatlarni tahlil qilish mumkin.

Tezkor dribling sharoitlarida o‘yin maydonining bo‘sh zonalarini aniqlash. Tezlanish olish, fintlarni qo‘llash, harakatlanish sur‘ati va yo‘nalishini o‘zgartirish yordamida raqib jamoaning himoyachisidan uzilib ketish.

Raqib son jihatidan ustun bo‘lganda foydali pozitsiyani saqlash.

Jismoniy tayyorgarlik paytida kurash va turlicha o‘yin vaziyatlarini ishlab chiqishda quyidagi aspektlarga e‘tibor qaratish zarur bo‘ladi:

Tezlik Qo‘yilgan vazifalarni o‘yin vaziyatlarida bajarish tezligi

Qadam tashlash shiddati

Tezlanish olishning tezkorligi

Qayishqoqlik  
Epchillik  
Muvozanat  
To'pni egallash  
Reaksiya  
Harakatlanish imkoniyatlari  
Iroda kuchi

Bu aspektlarni mashq qilishni imkon qadar o'yin vaziyatlariga yaqin vaziyatlarda, o'yin maydonida to'p bilan o'tkazish lozim bo'ladi. Muvaffaqiyatga umid uyg'otadigan o'yinchilar bilan tayyor-garlikning maksimal samarasiga erishish uchun o'quv mashg'ulotini to'psiz ham o'tkazish mumkin. Aytaylik, agar tezlanish olish tezkor-ligi ishlab chiqilayotgan bo'lsa, u holda bu o'quv mashg'ulotini to'psiz ham o'tkazish mumkin. Chunki yaxshi texnik tayyorgarlikka ega bo'lgan o'yinchi o'zining butun e'tiborini to'pga qaratadi, konkret qo'yilgan vazifa esa kamroq samara bilan bajariladi. O'yin jarayonida to'pga yoki raqibga qarab harakatlanish futbolning muhim tarkib toptiruvchi elementi bo'lib hisoblanadi. O'quv mashg'uloti paytida o'yinchiga shunday sharoitni yaratish ustida gap boradiki, bunda u tufayli o'yinchi qo'yilgan vazifalarni kelgusidagi vaziyatlarda tezroq va samaraliroq bajaradigan, raqib ustidan g'alaba qozona oladigan bo'lsin.

Asosiy o'quv mashg'uloti quyidagi mashqlarni o'z ichiga oladi.

Chidamlilikni rivojlantirish uchun o'quv mashqlari Texnik-taktik aspektlarni rivojlantirish uchun o'quv mashqlari. Muvozanatni rivojlantirish uchun o'quv mashqlari.

Asosiy o'quv mashg'ulotining Ushbubarcha uchta elementi tabiiy va chambarchas tarzda bir-biri bilan bog'langan. Agar o'quv mashg'ulotining boshida chidamlilikni rivojlantirish uchun mashqlar bajarilsa, u holda texnik-taktik va koordinatsion ko'nikmalar ham rivojlantiriladi, biroq ular ikkinchi planda turadi. Biroq tayyorgarlikning bitta aspektini rivojlantirishda boshqalarini ham esdan chiqarmaslik zarur, ularni ham rejali ravishda va bosqichma-bosqich rivojlantirish lozim bo'ladi. Biroq baribir o'quv mashg'ulotlarining barcha uchta turi ham muhim ahamiyat kasb etadi va ularning birortasini hisobga olmaslik mumkin emas. Chunki faqat ularning jamlanmasigina to'p uchun kurashda va umuman o'yinda g'alabaga olib keladi.

## **§10.1 Chidamlilikni rivojlantirish uchun o'quv mashqlari**

Kurash paytidagi harakatlarni mashq qilishning har bir formasi har doim o'yinchining jismoniy tayyorgarligi bo'yicha talablarni o'z ichiga oladi. Tezlanish olishning tezkorligi va u bilan bog'liq bo'lgan tez yugurish elementi, harakatlanish sur'ati va yo'nalishini o'zgartirish bo'yicha tayyorgarlik kurashda baribir ustivor aspect bo'lib qolaveradi.

Shu munosabat bilan quyidagi momentlarga e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Futbolning asosida qisqa masofalarga tezlanish olishlar yotadi, shu sababli to'psiz yugurib o'tish masofasi taxminan 20 metrni tashkil qiladi.

Tezkorlikni mashq qilish o'yinchi o'zini o'yinga to'liq bag'ishlagan holatda ijobiy natija beradi, shu sababli chigal yozish mashqlarini o'tkazish lozim bo'ladi.

Agar futbolchi charchasa, tezkorlikni mashq qilish muvaffaqiyatga olib kelmaydi. Tezkorlikni mashq qilish paytida yuklamani aniq dozalash va dam olish vaqtini taqsimlash muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Yuklama 3 sekunddan 6 sekundgacha bo'lganda faol dam olish fazasi bir minutni tashkil qiladi. O'yinni kuzatish natijalaridan quyidagi vaziyatlar kelib chiqadi. Ikkita o'yinchi o'yin maydonining egallanmagan sohasida bo'lgan to'pning izidan bir-birining atrofida katta tezlik bilan yuguradi. To'p uning tasarrufida bo'lgan o'yinchi tezkor tezlanish olish hisobiga raqibdan uzilib ketishga urinib ko'rish mumkin. To'psiz o'yinchi raqibdan harakatlanish sur'ati va tezkorligini o'zgartirish yordamida uzilib ketishi mumkin va o'z jamoasi-ning o'yinchilari uchun erkin bo'lib qoladi.

Zich qilib qisib qo'yilgan o'yinchi qisqa masofaga tezlanish olish va kutilmaganda burilish hisobiga raqibdan uzilib ketadi va devor usulida o'ynash uchun yana qaytadan tayyor bo'ladi.

O'yinchining kurashda o'zini qanday tutishining muhimlikda boshqalaridan qolishmaydigan yana bir aspekti bu raqibga qarshi harakat qila olish imkoniyatidir. Buning uchun futbolchiga iroda kuchi, ephillik va jismoniy kuch zarur bo'ladi. Juft-juftbo'lib o'quv paytida bu sifatlarni takomillashtirish va mahorat darajasini oshirish mumkin bo'ladi.

1- mashq


Sherigi bilan musobaqalashgan holda tez yugurish.

Maydonda ikkita baravar yugurish yo‘lakchasi quyidagi masofalarga bo‘lingan holda joylashtiriladi: yugurishni boshlash joydan 5 m masofa engil yugurish uchun, 20 m masofa tez yugurish uchun, oxirgi 15-20 m masofa yugurish tezligini belgilangan to‘xtash joyigachan kamaytirish uchun mo‘ljallangan. Ikkinchi yugurish yo‘lakchasida natijalarni solishtirish kechadi. Shug‘ullanuvchilar to‘xtaganlaridan so‘ng start oldiga yengil yugurgan holda qaytadilar.

Alternative

Bu dastur ko‘p bora takrorlanishi mumkin.

Uzoq masofali yugurish yo‘lakchalari kamaytirish mumkin.



1-rasm


2- mashq

Sprint-engil yugurish-sprint

Belgilangan 10 m masofagachan shug‘ullanuvchilar yengil yugurib kelishlari bilan rahbarni ishorasi bilan sprintyugurishga o‘tishadi. Sprintyugurish masofasi 15, 7, 15,10m masoflarga o‘zgartirilibturiladi. Sug‘ullanuvchilarni yugurib bo‘lganlaridan so‘ng startga qaytadilar.

Alternative

Har bir yugurishdan so‘ng shug‘ullanuvchi bir daqiqa to‘p bilan ishlashi mumkin. Majmuani tugagandan so‘ng 5 daqiqa dam olish uchun to‘p bilan ishlanadi va yugurishlar takrorlanadi.




2- rasm

### 3- mashq

Yo'nalishini o'zgartirgan holda sprint

Maydon bo'ylab 10-15 daqiqa engil yugurishdan so'ng shug'ullanuvchilar sprint yugurishga o'tishadi. Bunda ular yo'nalishini o'zgartirib o'nga, oldinga, chapga, oldinga va startga qayta yugurish harakatlanishadi.



3- rasm

### 4- mashq

Turli holatlardan sprint

Belgilangan 12 m masofaga turli holatlarda sprintyugurish: o'tirgan holda, qorin bilan yotgan holda, chalqancha yotgan holda, qo'llarga tayangan holda va tizza bilan turgan holda.

Alternativ:

Har bir yugurish harakatidan so'ng 30 soniya dam olishdan keyin harakatni boshlash kerak.

#### 5- mashq Itarish

Ikki shug‘ullanuvchi bir-birini qo‘llarini ushlagan holda oyoqlarini yelka kengligida ochib qarama-qarshi joylashadilar. Rah-barni ishorasi bilan bir-birlarini itarib, turgan holatdan chiqarib yuborishga harakat qilishadi. Birinchi shu holatdan chiqqan o‘yinchi yutqazgan hisoblanadi.

#### 6 mashq Yonga tortish

Ikki shug‘ullanuvchi qarama-qarshi turgan holda oyoqlari bilan qo‘lay joylashib olishadi. Rahbarni ishorasi bilan bir-birlarini yon tomonga tortib chiqarishga harakat qilishadi.

#### 7- mashq. Tanani orqa qismi bilan itarish.

Bir-biriga tanani orqa bilan o‘tirib qo‘llarini ushlagan holda o‘ng-ga itarishga harakat qilishadi

8- mashq. Turtib chiqarish Ikki shug‘ullanuvchi bir-birini yugurish paytida yugurish yo‘lakchasida turtib chiqarishga harakat qiladi.

9- mashq. Ikki shug‘ullanuvchi qarama-qarshi begilgan masofada turgan holda to‘pni yuqoridan biri-biriga tashlab beradi. Bunda shug‘ullanuvchilar to‘pni barmoqlari bilanteginishi kerak.

Alternativlar:

Yuqoridan tushayotgan to‘pga ikki qo‘l bilanteginish mumkin.

Yuqoridan tushayotgan to‘pni bosh bilan urib yuborish mumkin.

Yuqoridan kelayotgan to‘pni bosh bilan darvozaga yo‘naltirish mumkin.



4-rasm


#### 10- mashq

Yuqori tezlikdagi yo‘nalish

Maydonda shug'ullanuvchilar qo'yidagi yo'nalish bo'yicha harakatlarini bajarishadi. Bunda 60 soniya engil yugurish, 10 m masofaga sprinter yugurish, 60 soniya engil yugurish, oldinga, orqaga va oldinga 5 m sprinter yugurish, 60 soniya engil yugurish, 4x5 zigzag bo'lib sprinter yugurish. Bu yo'nalishni shug'ullanuvchi to'p va to'psiz bajarishi mumkin.

#### 11- mashq

Yuqori tezlikda to'pni olib yurish. Maydonda 4m masofa oraliqda bayroqchalar bilan belgilangan yo'nalish o'rnatiladi. Shug'ullanuvchilar mana shu bayroqlarni orasidan yuqori tezlikda to'pni olib yurishlari kerak. Mashqni bajarib bo'lganlaridan so'ng 1 daqiqa dam olishlari va mashqni boshidan boshlashlari kerak.



5-rasm

12- mashq Sprinter musobaqasi. Ikki shug'ullanuvchi murabbiyni yonida joylashgan holda to'pni murabbiy tomonidan bo'sh hududga tepib berishini kutib turadi. To'p tepib berilgandan so'ng, ikki shug'ullanuvchi yuqori tezlikda harakatlangan holda mana shu to'pga etib kelishga harakat qilishadi. Orqaga bir-biriga to'pni oshirib bergan holda qaytishadi.

### §10.2 Muvozanatni rivojlantirish uchun o'quv mashqlari

O'yinchida muvozanatni saqlash, maydon bo'ylab harakatlanishning yaxshi ritmi, kenglikda mo'ljal ola bilish va vaziyatni differensiallay olish kabi yaxshi muvozanatlay olish qobiliyati futbolchini maydon bo'ylab harakatlanishga ko'p tomonlama samarali o'qitishning asosida yotadigan elementlar bo'lib hisoblanadi. Bundan tashqari yaxshi muvozanatlay olish qobiliyati sportchining

jismoniy tayyorgarligi va uning texnik-taktik mahorati bilan bog'liq bo'ladi.

O'yinchida muvozanatni ishlab chiqish mashqlari quyidagi muhimlikda boshqalaridan qolishmaydigan aspektlarni yaxshilashga yo'naltiriladi, aynan esa: Kinetik differensiallay olish qobiliyati. Bu ko'nikma avvalambor to'pni his qilishda ifodalanadi. Bu turli xil o'yin vaziyatlarida raqib o'yinchilarini aldab o'tishda har doim to'pni nazorat qilishni bildiradi.

Kengdikda mo'ljal ola bilish qobiliyati. Bu qobiliyat periferik ko'rishni rivojlantirish uchun zarurdir. Chunki bu qobiliyatning bo'lishi to'pning o'yin maydonining qaysi uchastkasida ekanligini, raqib o'yinchilarining harakatlarini ham, o'z jamoasining o'yinchilarining harakatlarini ham to'g'ri qayd qilish imkonini beradi. Oxir-oqibatda o'yinchiga ma'lum bir o'yin vaziyatida raqibning manevrlariga tezkor reaksiya ko'rsatish bilan o'zining harakatlarini to'g'ri qurish imkonini beradi.

Muvozanat saqlay olish qobiliyati. Bu qobiliyat avvalambor kurashlar paytida zarur bo'ladi. Chunki raqibni aldab o'tishda o'yinchi muvozanatni saqlashi va ma'lum bir traektoriya bo'ylabharakatlanishi lozim bo'ladi.

Tezkor reaksiya ko'rsata olish qobiliyati. Raqiblar yoki jamoadosh sheriklarining harakatlariga tezkor reaksiya ko'rsatish qobiliyati o'yinchiga turli xil o'yin vaziyatlarida ustivor holatda qolish imkonini beradi.

Optimal ritm bilan harakatlanish qobiliyati. Futbolchining to'p bilan yoki to'psiz maydonda harakatlanishi tejamli va samarali bo'lishi lozim.

Kurash olib borish nuqtai-nazaridan muvozanatni rivojlantirish uchun o'quv mashqlari shunday darajada o'tkazilishi kerakki, bunda o'yinchi raqib bilan jismoniy kontaktga kirishganda doimo o'zgaribturadigan o'yin vaziyatlarida to'p bilan yoki to'psiz ratsional ravishda va tezda reaksiya ko'rsata olsun. Yaxshi koordinatsion tayyorgarlikka ega bo'lgan o'yinchilar quyidagi jihatlar bilan ajralib turadi.

Mahorat va manevrchanlik tezlanish olishda tezkorlik

To'p bilanharakatlarni bajarishda ishonch

Raqibning mo'ljalini o'z vaqtida payqash Harakatlarni tezda

“o‘ylab ko‘rish” qobiliyati Raqiblar uchun unga qarshilik ko‘rsatish qiyin bo‘lishi

Harakatlarning qo‘qqisdanligi.

O‘yinni kuzatish natijalari bo‘yicha muvozanatlashning yuqori darajasini talab qiladigan quyidagi vaziyatlar aniqlanadi:

Ikkita o‘yinchi o‘rtasida to‘p uchun o‘yin qoidalarini buzmasdan olib boriladigan kurash.To‘pni raqibning oyog‘i ostidan tepib yuborish.To‘p uchun kurashda ishtirok etayotgan ikkita raqib tomonidan yuqoridan uchib kelayotgan to‘pning qaytarilishi.

Bellashuvga nisbatan qo‘llanilganda muvozanatni rivojlantirish uchun o‘quv mashqlari o‘yinchilar tayyorgarligining muhim tarkibiy qismi bo‘lib hisoblanadi. Shu sababli murabbiy quyida sanab o‘tiladigan ko‘rmatmalarga ijodiy yondashishi va shu tariqa o‘quv mashg‘ulotlari jarayonini to‘g‘ri va samarali tashkil qilishi zarur bo‘ladi.

1- ko‘rsatma. O‘yinchilarni tashabbuskorlikka undash, asosiy o‘quv mashg‘ulotlariga qiziqarli qo‘shimcha bo‘lishi mumkin bo‘ladigan o‘yin kombinatsiyalari va mashqlarni yaratish.

1- ko‘rsatma. Muvozanatni rivojlantirish uchun o‘quv mashqlarini o‘yinchilarni tayyorlashning har bir fazasida qo‘llash.

2- ko‘rsatma. Muvozanatni rivojlantirish uchun barcha mashqlar chap tomonni ham, o‘ng tomonni ham hisobga olish bilan amalga oshiriladi.

3- ko‘rsatma. Mashqlar jamlanmasi o‘yinchining jismoniy tayyorgarlik darajasiga mos kelishi lozim, bunda talablarning oshirilishiga ham, pasaytirilishiga ham yo‘l qo‘ymaslik lozim.

4- ko‘rsatma. Muvozanatni rivojlantirishni mashq qilish o‘yin maydonidagi o‘yin texnikasini rivojlantirishga yo‘naltiriladi.

5- ko‘rsatma. O‘quv mashg‘ulotlarini o‘yin maydonidagi real o‘yin vaziyatlariga imkon qadar yaqinlashtirilgan formada o‘tkazish lozim.

7- ko‘rsatma. Har tomonlama va samarali o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish uchun turlicha to‘plardan foydalanish kerak bo‘ladi (tennis to‘plari, regbi to‘plari, penoplastik to‘plar va boshqalar).

Mashqlarni tanlashda uchta aspektni hisobga olish lozim bo‘ladi: kurash paytidagi harakatlarni o‘rganish, bu harakatlarni mustahkamlash va ularni avtomatizm darajasiga etkazish.

Mashqlar ro'yxati.

Bu mashqlarni bajarish har bir o'yinchida to'p bo'lishi lozimligini ko'zda tutadi. Bu mashqlarning maqsadi raqib bilan kurash jarayonida o'yinchining to'pni nazorat qilish qobiliyatini ishlab chiqish va takomillashtirishdan iborat bo'ladi.

O'yinchi o'yin maydonining oldindan belgilangan uchastkasida to'pni oyog'i bilan (chap yoki o'ng) olib yuradi.

O'yinchi to'pni oldindan belgilangan territoriyada olib yuradi, bunda harakat yo'nalishini o'zgartirish orqali boshqa o'yinchilar bilan kurashga kirishishdan qochadi.

O'yinchi to'pni oyog'i bilan va doimo o'zgarib turadigan harakatlantirish yo'nalishida olib yuradi, bu mashqni bajarish sur'atini o'zgartiradi.

O'yinchi to'pni turli xil aldamchi harakatlarning elementlaridan foydalanish bilan maydonning oldindan chegaralangan territoriyasida olib yuradi.

Mashq bajariladigan territoriya o'lchamlarini kamaytirish hisobiga dribblingni murakkablashtirish. Murabbiyning signali bo'yicha 10 s davomida to'pni olib yurish tezligi maksimal darajada oshiriladi. Murabbiyning signali bo'yicha to'p yuqorilatib oldinga qarab uzatiladi, o'yinchi to'pni egallash maqsadida to'pni quvib yetish uchun yuguradi. O'yinchi to'pni tananing har xil uchastkalari - chap oyoq, o'ng oyoq, son, bosh va hokazolar bilan qaytarish bilano'p bilan har xil harakatlarni bajarish.

To'p qo'l bilan oldinga qarab yuqorilatib engil irg'atiladi, o'yinchi uni egallash uchun oldinga qarab yuguradi. To'p qo'l bilan yuqoriga qarab irg'atiladi, o'yinchi uni boshi bilan qabul qiladi va nazorat ostiga oladi.

O'yinchi to'pni egri-bugri traektoriya bo'ylab, bayroqchani aylanib o'tish bilan olib yuradi. Oldingi mashqdagi harakat bajariladi, bunda har bir bayroqchaga o'ng yoki chap qo'l bilan teginish zarur bo'ladi. O'yinchi to'pni oyog'i bilan olib yuradi, murabbiyning signali bo'yicha uni to'xtatadi va harakatni boshqa yo'nalishda qaytadan boshlaydi. O'yinchi to'pni oyoq bilan olib yuradi, to'pga oyoq bilan oldinga qaratib to'g'ri zarba beradi, uni quvib o'tadi, uni yoyilgan oyoqlari orasidan o'tkazadi va nazorat ostiga oladi. To'p yuqoriga yo'llanadi, keyinchalik u erga urilishi ham mumkin, o'yinchi

uni oyog'i yoki soni bilan yana yuqoriga yo'llaydi, so'ngra to'pni to'xtatadi va nazorat ostiga oladi. O'yinchi to'pni olibyuradi, oyog'ining tagi bilan uni to'xtatadi, to'pni oyoq kaftining ichki tomoni bilan qarama-qarshi tomonga qarabolib ketadi. To'p yuqoriga irg'itiladi, ko'krak yoki oyoq bilanto'xtatiladi, o'yinchi driblingga kirishadi


Qo'l bilan o'ynash: O'yinchi to'pni o'ng yoki chap qo'li bilan maydon yuzasiga uradi. O'yinchi oyoqlarni bukib o'tirish va turish bilanto'pni qo'l bilan maydon yuzasiga uradi. O'yinchi bir oyoqda turish bilanto'pni qo'li bilan maydon yuzasiga uradi. O'yinchi bir oyoqda sakrash bilanto'pni qo'li bilan maydon yuzasiga uradi. O'yinchi doimo harakatlanish yo'nalishini o'zgartirish bilan maydon bo'ylab sekin yugurishda to'pni qo'li bilan maydon yuzasiga uradi.

O'yinchi tik turgan holatda to'pni tana atrofida aylantirish bilan maydon yuzasiga uradi. Oyoqlar yoyiladi, o'yinchi to'pni qo'li bilan yoyilgan oyoqlar orasidan maydon yuzasiga uradi. To'pni qo'l bilan maydon yuzasiga urish jarayonida o'yinchi o'tiradi va turadi. O'yinchi qorni bilan yotadi, to'pni qo'li bilan maydon yuzasiga uradi va o'rnidan turadi. Snaryadlar bilan va ularsiz muvozanatni rivojlantirish uchun o'quv mashqlari. Halqa va havo sharidan foydalanish bilan muvozanat saqlash va yugurish mashqlari.

Aylantiriladigan sakrash arqonidan foydalanish bilan sakrashlarning har xil turlari. Sakrashlar, burilishlar, sirg'alishlar bilan birgalikda texnik elementlarni ishlab chiqish bo'yicha mashqlarni bajarish. O'quv mashg'ulotlari paytida ikkita to'pdan foydalanish. O'quv mashg'ulotlari jarayoniga bir paytning o'zida ikkita turlicha to'plarni kiritish. Ikkita o'yinchi yerda yotgan bitta halqaning ichida bir-biriga qarama-qarshi holatda turadi, ularning har biri aldamchi harakatlarni qo'llash bilan oldinda turgan o'yinchiga tegmasdan uni aylanib o'tish bilanhalqadan hatlab o'tishga urinadi. Har ikkala o'yinchi doimo harakatda bo'lishi lozim. 4 kv m o'lchamli maydonda o'yinchi to'pni maydon yuzasiga shunday uradiki, bunda uning raqibi to'pga tegina olmasin va uni egallay olmasin. Bunda o'yinchilar va to'p maydonchani chegaralaridan tashqariga chiqmasligi lozim. To'g'ri yiqilish va maydon yuzasidan tezda turish mashqlarini bajarish o'yinchilar uchun qiziqarli bo'ladi. O'yinchilar bitta va ikkita oyoqda sakrash bilan to'pni bosh bilan qaytarishni imitatsiyalaydilar. Ikkita o'yinchi raqibini turtish bilan yo'lakdan chiqaribyorishga harakat qilgan

holda yugurish yo‘lagi bo‘ylab yuguradilar. Oldindan chegara-langani terriyoriyada bajariladigan mashqlar va o‘yinlar. Himoya-dagi o‘yinchi to‘pni egallab turgan, turli xil aldamchi harakatlarni yordamida kurashga kirishishni orqaga surayotgan raqibini siqib qo‘yadi.

O‘yinchi to‘pni maydon bo‘ylab olib yuradi. Himoyachi elkasi bilan ponaga o‘xshab to‘p bilan o‘yinchi orasiga suqilib kirishga va to‘pni olib qo‘yishga urinadi. To‘pni egallab turgan o‘yinchi aldamchi harakatlarni amalga oshirish va korpusni burish bilan uni ta‘qib qilayotgan raqibdan uzilib ketishga harakat qiladi.



O‘yin maydonining yuzasida yotgan to‘p sirg‘aluvchi tekling bilan o‘ng va chap oyoq, oyoqning tagi, oyoq kafti ko‘tarilishining tashqi yoki ichki qismi bilan navbatma-navbat yon tomonga tepib yuboriladi. O‘yinchi to‘pni maydon bo‘ylab sekin olib yuradi. Himoyachi sirg‘aluvchi teklingni qo‘llash bilan raqib vaqtning qandaydir bir momentida to‘p ustidan nazoratni yo‘qotgan paytda to‘pni olib qo‘yishga harakat qiladi.

Maydonda yotgan to‘plar sirg‘aluvchi tekling yordamida mumkin qadar katta sur‘at bilan ma‘lum bir zonaga yo‘naltiriladi.


1: 1 vaziyatda to‘pga egalik qilish uchun kurash bo‘lib o‘tadi. Uzatilgan to‘p sirg‘aluvchi tekling yordamida pas bergan o‘yinchiga qaytariladi yoki darvoza tomonga qaytarib yuboriladi.

Bir-birining ro‘parasida turgan ikkita o‘yinchi to‘pni bir-biriga yo‘llaydi, bunda o‘yinчилardan birortasi ham o‘z o‘rnidan siljish huquqiga ega bo‘lmaydi.

Ikkita o‘yinchi juft bo‘lib to‘p bilan jonglyorlik qiladi, beshta zarbadan keyin to‘p boshqa futbolchiga uzatiladi. O‘yinchi to‘pni maydon bo‘ylab olib yuradi, murabbiy ular bilan yonma-yon yugurish bilan harakatlanish sur‘ati va yo‘nalishini o‘zgartirish bo‘yicha ko‘rsatmalar beradi. 15x15 o‘lchamli o‘yin maydonida beshta o‘yinchi to‘p bilan joylashadi (dribling), ular to‘pni egallash uchun

harakat qiladigan beshta to'psiz o'yinchining hujumlarini qaytaradi. 15x15 o'lchamli o'yin maydonida beshta o'yinchi futbol to'pi bilan va beshta o'yinchi tennis to'pi bilan joylashadi va to'plarni ushlab olishga o'ynaydi.


13- mashq. Oldindan ma'lum bo'lgan yo'nalishda to'p bilan harakatlanish mashqi yengil yugurish-sprintr-kirish. Shug'ullanuvchilar engil yugurgan holda birinchi hududga kelishadi, ikkinchisida sprintr va uchunchi hududda esa, finishga harakat qilish boshlanadi.maydondagi bayroqlarni yo'nalishi o'zgartirilishi, yoki vazifa engil va murakkablashtirilishi mumkin.Yugurishda masofani oshirib borish



14-mashq


Shug'ullanuvchilar birinchi bayroq orasini aylanib o'tishlaridan so'ng, ikkinchisi uzoqroq masofada joylashgan bayroqni aylanib o'tishadi. Har bir bayroqda masofa uzoqroq bodib boradi.

Uchburchak shaklidagi joylashgan yo'nalishda yugurish Shug'ullanuvchilar maydonda belgilangan uchburchak shaklidan joylashgan bayroqchalarni aylanib o'tishlari kerak.



16- mashq. Sakkiz shaklida maydonda yugurish

Shug'ullanuvchilar birinchi bayroqchagacha yengil yugurishadi, so'ng qolgan bayroqchalarni tez yugurgan holda aylanib oboradilar.




17- mashq. To‘g‘ri bo‘lmagan yo‘nalishda yugurish  
Shug‘ullanuvchi ilon izi bo‘ylab bayroqchalarni aylanib o‘tgan holda joyiga startga qaytib yugurib keladilar.

### **§10.3 Texnik-taktik holatlarni rivojlantirish uchun o‘quv mashqlari**

Muvozanatni rivojlantirish uchun o‘quv mashqlarining maqsadi - o‘yinchilarda to‘pga ko‘nikish hissini hosil qilish va o‘yin maydonida to‘p bilan muvaffaqiyatli manipulyasiyalarni amalga oshirishdan iborat bo‘ladi. Bu bunday turdagi mashqlarning birinchi galdagi vazifasi bo‘lib hisoblanadi. Texnik-taktik aspektlarni rivojlantiradigan mashqlarga keladigan bo‘lsak, bu aspektlarning o‘quv mashg‘ulotlari paytidagi asosiy momentlari o‘yinchilarda raqib jamoa o‘yinchilari bilan kurash paytida to‘pni egallab olish va uni ushlab turish, to‘p yo‘qotilgan taqdirda esa uni qaytarib olish uchun kurash olib borish tuyg‘usini hosil qilishdan iborat bo‘ladi. Bunday o‘quv mashg‘u-lotining asosida yotadigan asosiy aspektlar quyidagi mashqlarda keltiriladi.

18- mashq. Belgilangan 15x15 m masofadaga hududda, 2:1 o‘yin vaziyati.


Maqsadi: Ikki kishidan iborat shug‘ullanuvchilar uzoq vaqt davomida to‘pni nazoratga olgan holda harakatlanishlari kerak. Agar himoyadagi o‘yinchi to‘pni olib qo‘ysa, to‘pni oldirib qo‘ygan futbolchi bilan joy almashadi.



19-mashq

Belgilangan 15x20 m masofadagi hududda, 3:2 o'yin vaziyati.


Uch kishilik guruhga oid maqsad: bu guruh to'pni oldirmagan holda 10 marotaba to'pni bir-birlariga yetkazib berishlari kerak. To'pni qabul qilgan o'yinchi to'pni ikki marotaba teginishi mumkin. Mashqni murakkablashtirish ham mumkin. Ikki kishilik guruhga oid maqsad: himoyalalanayotgan o'yinchilar 15 soniya ichida to'pni olib qo'yishga harakat qilishadi. Agar har bir olib qo'yilgan to'p uchun bir ochko beriladi.



20-mashq

Belgilangan 20x20 m masofadaga hududda, 5:3 o'yin vaziyati.

Besh kishilik guruhga oid maqsad: tanlab olingan besh kishi 1 dan 5 gacha raqamlab chiqiladi. To'pni oshirib berish tartibi ham mana shu holatda amalga oshiriladi. Agar uchinchi raqamli o'yinchi 4 raqamga oshiribbera olmasa 2 raqamga qaytarishi mumkin. Uch kishilik guruhga oid maqsad: bu guruhdagi o'yinchilar 10 soniya ichida to'pni olib qo'yishga harakat qilgan holda o'zlarida ushlab turishlari kerak. 10 soniyada to'pni olib qo'ysalar bir ochko beriladi.




21-mashq


Mashq belgilangan hududda amalga oshiriladi. Bunda ikki guruhga to'rtadan o'yinchi tanlab olinadi. Bundan tashqari burchaklarda neytral o'yinchilar joylashadilar.

Variantlar: To'p bilan harakatlanayotgan o'yinchilar 10 marotaba to'p oshirib berish harakatlarini amalga oshirishlari bilan o'zlarini


hisoblariga bir ochkoni yozib quyadilar. Bunda ularga to'pni qabul qilib o'zlariga oshirib berish harakatlarini bajaruvchi burchaklarda joylashgan o'yinchilar yordam beradilar. To'p bilan harakatlanayotgan o'yinchilar 20 marotaba to'p oshirib berish harakatlarini amalga oshirishlari bilan o'zlarini hisoblariga bir ochkoni yozib quyadilar. Ularga qarama-qashi joylashgan neytral futbolchilar yordam beradi. Qolgan ikki neytral o'yinchi himoya vazifasini bajaruvchi futbolchilarni to'p olib qo'yishlari bilan yordam beradi.




22-mashq. Mashq maydonni cheklanmagan hududida, 3+1:3 o'yin vaziyati To'p bilan harakatlanuvchi futbolchilarga neytral o'yinchi yordam beradi. Bunda bu o'yinchi to'pni qabul qilishi bilanto'p olgan guruh o'yinchisiga oshiribberadi. Agar to'p oldirib qo'yilsya neytral o'yinchi to'pni egalik qilgan guruhga yordam beradi.



23-mashq. Belgilangan 20x20 m masofadagi hududda, 4:6 o'yin vaziyati Mashqdagi to'rt kishidan iborat guruh uzoq vaqt davomida to'pni o'zlarida saqlab to'rishlari kerak. Olti kishilik guruh esa, kisha vaqt ichida ulardan olib qo'yishlari shart. Agar olib qo'yishsa, 4 kishilik guruhga qaytarib beradi.




24- mashq. Mashq maydonni cheklanmagan hududida, neytral o'yinchi bilan 1:1 o'yin vaziyati hujumchiga neytral o'yinchidan to'pni olishga to'sqinlik qilinadi. Aldamchi harakatlarni amalga oshirgan holda neytral o'yinchidan to'pni olishga harakat qiladi. To'pni olishi bilan oldirib qo'ymaslikka harakat qiladi. Agar to'pni oldirib qo'ysa, jamoasi ochko yo'qotadi. Himoya harakatlaridan qutilib chiqqan holda neytral o'yinchidan to'pni qabul qilishga harakat qiladi. Bu yerda to'pni bosh bilan urgan holda neytral o'yinchiga qaytaradi. Himoyadan qutilib chiqqan holda to'pni olishi va qaytarib berishga ulgurishi kerak. Himoyadan otilib chiqqan holda to'pni olishi himoyadagi o'yinchini aldamchi harakatlar bilan aldashi va neytral o'yinchiga qaytarishi kerak. Himoyadan qo'tilib chiqqan holda to'pni olishi va darvozaga zarba berishi kerak.




Mashq maydonni cheklanmagan hududida, neytral o'yinchi bilan 1:1 o'yin vaziyati

Himoyadan qo'tilib chiqqan holda to'pni olishi, neytral o'yinchi bilan devor kombinatsiyasini amalga oshrib darvozaga zarba berishi kerak.



26- mashq. Mashq maydonni cheklanmagan hududida, neytral o'yinchi bilan 1:1 o'yin vaziyati Neytral o'yinchini oldinga to'p oshirib berishi bilan to'pga etib olishlari va darvozaga zarba berishlari kerak.

27- mashq




Ikki o'yinchi darvozadan 35 m masofa uzoqlikda joylashsa, murabbiy to'pni o'ynatgan holda (jongler) qilgan holda jarima maydonining chizig'ida bo'ladi. Murabbiy to'pni o'ynatib erga

qo'yishi bilan o'yinchilar to'pni olish uchun harakat qilishadi. Mashqni kim birinchi darvozaga zarba bilan yakunlasa shu yutadi. Variantlar: Murabbiy to'pni o'ynatmasdan tepaga tepishi mumkin.

Murabbiy to'pni qanotlarga tepib berishi mumkin. Murabbiy to'pni o'yinchilar tomon tepib berishi mumkin.


#### 28- mashq



Ikki o'yinchi bir-biridan 35 m masofa uzoqlikda joylashadi. Bir o'yinchi darvoza tomon yo'naltiradi. Ikki o'yinchi to'p uchun kurashga kirishdi. Kim darvozaga zarbani amalga oshirsashu g'olib hisoblanadi.

29- mashq. Barcha o'yinchilar sherik bo'lib maydon markazida raqamlangan holda joylashadilar. Murabbiyning raqam etishi bilan mana shu raqamli sheriklar harakatni boshalshadi. Bunda to'p bilan harakatlanayotgani hujumchi darvozaga to'pni olib yurib zarba berishga harakat qilsa, to'psiz o'yinchi bunga haraqit qiladi.

Variantlar: Darvozabon vazifasidagi o'yinchini qo'yish mumkin. Agar himoyachi yutsa, maydon markaziga to'pni olib borib qo'yadi



#### 30- mashq

Himoya va hujum vazifasida o'yin olib boradigan o'yinchilar o'z joylarini egallashlari bilan murabbiy qanotga to'pni tepib beradi. Bu to'pga ikki o'yinchi harakatlangan holda ko'rash olibboradi. Hujumchi to'pni olishi bilan darvozani ishg'ol etishga urinsa, himoyachi bu harakatlarini bartaraf etadi.

#### **§10.4 1:1 yoki 1:2 o'yin vaziyatlari**

Futbolchilarni har qanday tayyorlash maksimal darajada real o'yinga yaqinlashtirilgan bo'lishi lozim. Chunki real o'yinni tarkib toptiradigan elementlarni ishlab chiqish futbolchilarni o'yin maydonida oldinda kutib turgan uchrashuvlarga tayyorlashga samarali ta'sir ko'rsatadi.

O'yin maydonida futbol jarayonlarini kuzatish natijalari bo'yicha quyidagi o'yin vaziyatlarini ajratib ko'rsatish mumkin. Hujumchi yugurishda raqib jamoaning himoyadagi o'yinchisidan o'zib ketadi, to'pning harakatini nazorat qiladi, o'yin vaziyatini darvozaga zarba berish bilan yakunlaydi.

O'zini quvib o'tishga imkon bergan himoyachi raqibni quvib etishga harakat qiladi, o'yin qoidalarini buzmaganda holda tekling elementlarini qo'llash bilan raqibdan to'pni qaytarib olishga urinadi.

Mos keluvchi jamoaning darvozaboni hujum qilib kelayotgan hujumchini qarshi olishga yugurib chiqadi va tez harakat qilish bilanto'pni qaytaradi.

Hujumchi har xil fintlar va aldamchi harakatlarni qo'llash bilan himoyachini aldab o'tadi va darvozaga zarba beradi.

Himoyadagi o'yinchi qarshi hujumga o'tish bilan o'yin qoidalarini buzmaganda holda hujumchidan to'pni olib qo'yishi mumkin bo'ladi.

To'p bilan hujum qilayotgan o'yinchi raqib jamoaning himoya-chisini aldab o'tgandan keyin himoyalananayotgan jamoa himoyalalanish zonasida son jihatidan ustun bo'lishi sababli boshqa himoyachi bilan to'qnash keladi, shu tariqa hujumchi raqibning ustun bo'lgan kuchlariga qarshi borishiga to'g'ri keladi. Quyida jamoaning harqanday o'yinchisi o'yin maydonidagi uchrashuv paytida himoyachi funksiyasini ham, hujumchi funksiyasini ham bajarishi mumkinligidan kelib chiqqan holda himoya chizig'ining o'yinchilari ham, hujumchilar ham ishlab chiqishlari lozim bo'lgan mashqlar keltiriladi.

## **§10.5 Hujumdagi o'yinchining muvaffaqiyatga olibboradigan harakatlari**

To'pni o'zidan bevosita yaqin masofada olib yurish.

To'pni gavdasi bilan to'sish. Harakatlanish sur'ati va yo'nalishini o'zgartirish. Raqibni blokirovkalash paytida to'p ustidan nazoratni saqlab qolish. Har doim mo'ljal olishni saqlab qolish. O'zining jamoasi va raqib jamoa o'yinchilarining harakatlarini har doim ko'rish maydonida ushlab turish. Yugurish paytida raqib hujumchisiga bo'sh kelmaslik. Har xil tryuklar, fintlar, aldamchi harakatlardan foydalanish bilan raqibhimoyachisini aldab o'tish. O'z vaqtida to'pni uzatish uchun qulay momentni tanlash. Darvozaga zarba berish uchun turli imkoniyatlardan foydalanish.

### **HIMOYADAGI O'YINCHINING MUVAFFAQIYATGA OLIBBORADIGAN HARAKATLARI DARVOZABONNING MUVAFFAQIYAT**

To'pni egallab turgan raqib jamoa o'yinchisining old tomonida joylashish. Kurashish paytida kuch ishlatishdan foydalanish. O'yin vaziyatidan kelib chiqqan holda pozitsion kurash olib borish (ichki chiziqda). Himoyalanishning turli xil priyomlaridan foydalanish bilan raqib jamoa hujumchisining harakatlariga tez va to'g'ri reaksiya ko'rsatish. Raqib jamoaning o'yinchilarini maydon markazidan imkon qadar siqib chiqarish. Zonal himoya paytida o'zining jamoasining o'yinchisidan raqibni qabul qilib olish. Jamoadosh sherigi kurashni boy bergan taqdirda unga o'z vaqtida yordamga etib kelish. To'pga egalik qilish bilanoq darhol qarshi hujumga o'tish.

### **GA OLIBBORADIGAN HARAKATLARI**

Zamonaviy futbolda darvozabonning hissasiga himoyada ham, hujumda ham kattagina vazifalar to'g'ri keladi, ular quyidagilardan iborat bo'ladi. Darvoza va jarima maydonchasini himoya qilish. To'p bilan harakatlanib kelayotgan raqib hujumchisiga qarshi o'z vaqtida darvozadan chiqish.

Raqib bilan kurashish paytida yuqoridan uchib kelayotgan to'pni muvaffaqiyatli qaytarish. Old tomonda joylashgan o'yinchilarning xatolariga tezlik bilan reaksiya ko'rsatish. Hech qachon e'tiborni

yo'qotmaslik. Keskin vaziyatlar paytida o'z jamoasining o'yinchilari o'rtasida to'p uzatishlarda ishtirok etish. To'pni egallab olgandan keyin darhol hujum boshlash.

Kurashda har bir jamoadan bittadan o'yinchi ishtirok etadigan vaziyat futbolning mohiyatining o'ziga xos ifodalanishi bo'lib hisoblanadi. To'p uning tasarrufida bo'lgan o'yinchi o'zining oldida turgan raqibini aldab o'tishga, imkon qadar gol urishga yoki to'pni jamoadosh sherigiga uzatishga harakat qiladi. Biroq o'yin paytida boshqa plandagi vaziyatlar ham vujudga keladi, bunda hujumchining oldida raqib jamoaning bitta emas, ikkita yoki bir nechta himoyadagi o'yinchilari paydo bo'ladi. Bunda ularning oldiga qo'yilgan gol urish vazifasi anchagina murakkablashadi. Uni muvaffaqiyatli hal qilish uchun bunday vaziyatlarni ishlab chiqishga bag'ishlanadigan ko'plab o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish lozim bo'ladi.

31- mashq. Belgilangan 20x10 m masofadaga hududda, 1:1 o'yin vaziyati

Variantlar: Mashqni boshlashdan oldin har bir o'yinchi 10 m masofadagi chiziqqa to'pni olib borishi kerakligi to'g'risida tushuntiriladi. Kim ko'proq bir daqiqa ichida shu vazifani bajardi. Har bir o'yinchi murabbiydan ikkitadan burchaklarni olib to'pni mana shu burchaklardan olib o'tishi kerak. Har bir o'yinchi to'rtta burchakni aylanib o'tishi kerak.



32- mashq


Maydon marakazdagi belgilangan 20x10 m masofadaga hududda kichik darvozalar o'rnatiladi.

Variantlar: O'yinchi to'pni olib yurgan holda darvozalarni har tomonidan kesib o'tadi. Har bir o'yinchilardan biri belgilangan zonadan zarba berishi mumkin.

Gol faqatgina erdan borgan holda hisoblanadi.


Maydon marakazdagi belgilangan 20x10 m masofadaga hududda fishkalardan uchburchak darvozalar o'rnatiladi

O'yinchi faqatgina raqib o'yinchisini aldab o'tgan holda urishga ruxsat beriladi.



33-mashq

Variantlar: O'yinchilar darvozaga ketma-ket uchta darvozaga zarba yo'llashlari mumkin. Har bir darvoza raqamlanadi. Murabbiy aytgan nomerli darvozaga o'yinchilar gol urishlari mumkin. O'yinchilar o'zlari tomondagi darvozaga raqibga to'pni olidirib qo'ymagan holda zarba berishlari mumkin.



34- mashq. Maydon marakazdagi belgilangan 20x10 m masofadagi hudud belgilanib ikki 10 metrlik chiziqqa kichik darvozalar o'rnatiladi


Variantlar: O'yinlar ikki darvoza oralig'ida 1: 1 o'yin vaziyatida o'tadi.

Ikki kichik darvoza oralig'ida 1:1 o'yin vaziyatida o'yinlar gol bo'lgunga qadar olib boriladi. 30 soniya ichida gol urilsa shergiga to'pni beradi. Agar urolmasa to'pni raqib o'yinchisiga etkazib beradi. Eng tez gol urish musobaqasini o'tkazish. Bunda gol urilgandan so'ng qarama- qarshi darvozaga keyingi o'yinchi gol urish vaqti qayd etiladi.

35- Mashq. Maydon marakazdagi belgilangan 20x10 m masofada hudud belgilanib ikki tomonga 2 metrlik darvozalar o'rnatiladi Mana shu darvozadarning ikki tomonidan 50 sm kichik darvozalar ham o'rnatiladi. Variantlar: 1:1 o'yin vaziyatida o'tadi .bunda har bir darvozaga urilgan gol jamoaga bir ochkoni olib kelsa, darvoza yonidagi

kichik darvozalar urilsa, uch ochkoga baholanadi.

O'yinchilarni aniqliklarini oshrish uchun darvozadan ma'lum masofa belgilanib qo'yiladi. Bunda o'yinchi urgan masofasishunda ochkoga baholanadi. Agar kichik darvozaga urilsa ochkolari ikki hissa oshiriladi.




### 36- mashq

Maydon marakazdagi belgilangan 10x10 m masofada hudud belgilanib har tomonga darvozalar o'rnatiladi

Variantlar: Har bir o'yinchi ikki darvoza oralig'ida joylashgan holda o'ziga yaqin bo'lgan darvozalarni qo'riqlaydi.


To'pni yo'qotgunga qadar uch darvozaga bittadan gol urish?



### 37-mashq

Maydon marakazdagi belgilangan 10x10 m masofada hudud belgilanib har bir burchagiga darvozalar o'rnatiladi

Variantlar: To'p bilan harakatlangan o'yinchi to'rtta darvozaga gol urishi kerak. Turli darvozalarga urilgan gollar 1 dan 4 gacha baholanadi. O'yinchi o'zi qaysi darvozaga gol urishini o'zi hal qiladi. Shunday qilib belgilangan vaqtda ochko yig'adilar. O'yinchi turli darvozalarga urilgan gollar 1 dan 4 gacha baholanadi. Agar gol urilgan darvozaga yana urilsa, raqib jamoa o'yinchisi bu ochkoni bekor qilishi mumkin.




38-mashq

Maydon marakazdagi belgilangan 20x10 m masofada hudud belgilanib 1:1 o'yin vaziyati hamda neytral darvozabon bilan harakatlanish.

Variantlar: Ikkala o'yinchi 1:1 vaziyatida yuzaga chiqarishadi. To'p bilan muomila qilayotgan o'yinchi to'psi harakatlanayotgan va darvozabonni aldab o'tgan holda darvozaga zarba beradi. Agar darvozabon to'pni olib qo'ysa maydonga tepib beradi. Ikkala o'yinchi 1:1 vaziyatida yuzaga chiqarib darvozaga gol urishga harakat qiladilar. Agar zarbani darvozabon egallab olsa, zarba bergan o'yinchi bilan alashadilar.

Har bir ikki daqiqada o'yinchilar darvozabon bilan almashadilar. Bunda darvozabon bilan almashgunga qadar kim ko'p gol urishga.




39-mashq

Maydon marakazdagi belgilangan 20x10 m masofada hudud belgilanib bir darvoza va darvozabon bilan harakatlanish. Darvozadan 5 m masofada chiziq chiziladi. Variantlar: 1:1 o'yin vaziyatida to'p bilan harakatlangan o'yinchi 5 m masofaga uzoq bo'lgan joydan darvozaga zarba beradi.

To'p bilan harakatlangan o'yinchi 5 m masofadan darvozaga zarba beradi.

Agar belgilangan chiziq ichidan zarba berilsa o'yinchidan ochko olib tashlanadi. Har bir urilgan gol ikki ochko olib keladi. Darvozabon bilan aldagan holda urilsa ochkolari ikki baravar ko'payadi.



40-mashq


Maydon marakazdagi belgilangan 20x15 m masofada hudud belgilanib 1:2 yoki 1:3 o'yin vaziyatida olibborish.

Bunday holatlarda to'p bilan harakatlanayotgan o'yichiga ikki, uch yoki ko'roq bo'lgan kishilar harakatlanishi o'quv mashg'ulot jarayonida ko'p bora foydalaniladi. Maydonga kichik darvoza urnatiladi.

Variantlar: 1:2 o'yin vaziyatida, to'p bilan harakatlanayotgan o'yinchi darvozaga zarbaberishdan oldin ikki kishini aldab o'tishi kerak. Bunda himoyachilar hujum yo'lini to'sishga harakat qiladilar.

1:2 o'yin vaziyatida 30 soniya ichida o'yinchilar darvozaga gol urishlari lozim. Himoyachilar bir marotaba hujumchiga qarshilik qilishi mumkin.

1:2 o'yin vaziyatida 1 daqiqa ichida o'yinchilar darvozaga zarba berishlari lozim. Himoyachilar hujumchiga faol qarshilik qilgan holda to'pni olib qo'yishga harakat qiladilar.




41-mashq

Maydon marakazdagi belgilangan 20x15 m masofada hudud belgilanib bir tomoniga bitta darvoza ikkinchi tomoniga esa ikkita darvoza o'rnatiladi.

Variantlar: Mashq davomida bir hujumchi ikki darvozaga gol urishi mumkin bo'lsa, ikki himoyachi esa bitta darvozaga zarba yo'llashlari mumkin. Shunday qilib o'yin turli vaziyat va qarshiliklar asosida kechadi. 1:1 o'yin vaziyatida qarshilik qilayotgan tomon

to'pga ikki marotaba teginishi mumkin. 1:2 o'yin vaziyatida bir o'yinchiga himoyachilar tomonidan 7 m masofaga yaqinlashmagan holda qarshilik qilishlari mumkin.



### Nazorat savollari

1. Bellashuvda muvaffaqiyatli yakkakurash olib borish uchun asosiy o'quv mashqlarini bilasiz?

2. Chidamlilikni rivojlantirish uchun qanday o'quv mashqlari bilasiz?

3. Texnik-taktik aspektlarni rivojlantirish uchun qanday o'quv mashqlari bilasiz?

4. 1:1 yoki 1:2 o'yin vaziyatlari qayday vaziyatlar hisoblanadi?

5. Hujumdagi o'yinchining muvaffaqiyatga olib boradigan harakatlari o'z ichiga nimalarni oladi?

6. Himoyadagi o'yinchining muvaffaqiyatga olib boradigan harakatlari o'z ichiga oladi?

7. Darvozabonning muvaffaqiyatga olib boradigan harakatlari o'z ichiga nimalarni oladi?

## **XI BOB. GURUHIY TAKTIK O'YIN VAZIYATLARI**

O'yin paytida vujudga keladigan guruh taktik vaziyatlarni o'quv mashg'ulotlari paytida ishlab chiqish ularning har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan uchta guruhga bo'linadi.

### **A. SON JIHATIDAN USTUNLIK BO'LGAN VAZIYAT.**

Maydondagi o'yinchilar hisobiga 6:4 yoki 5:2. Neytral o'yinchi hisobiga, masalan 1+3:3. To'p jamoaning tasarrufida bo'lgan va jamoa hujum qilayotgan holatda darvozabon hisobiga, 1 darvozabon+4:4. Son jihatidan ustunlik elementlari bilan o'quv mashg'ulotlari o'yinchilarning texnik-taktik tayyorgarlik darajasini oshirish uchun son jihatidan ustun bo'lgan jamoa bilanham, son jihatidan ozchilik bo'lgan jamoa bilan ham o'tkazilishi mumkin.

### **B. SON JIHATIDAN TENG BO'LGAN VAZIYAT.**

Son jihatidan tenglik vaziyati o'yin maydonidagi real o'yin paytida ko'p martalab vujudga keladi. Bunday vaziyatdagi o'yin elementlarini ishlab chiqishda 4:4 yoki 6:6 tadan iborat bo'lgan o'yinchilar guruhidan foydalanish mumkin. Bir-biriga qarama-qarshi turgan har bir tomonning oldiga konkret vazifani qo'yish (hujum qilish yoki himoyalash), yoki o'quv mashg'ulotlari jarayonida qo'yilgan vazifani o'zgartirish mumkin.

### **S. SON JIHATIDAN OZCHILIK BO'LGAN VAZIYAT.**

Maydondagi o'yinchilar hisobiga, masalan 3:5 yoki 4:6. Bitta neytral o'yinchi hisobiga, 3:3+1. Son jihatidan ozchilik bo'lgan vaziyatdagi o'yin elementlari professional mahoratni oshirish uchun son jihatidan ozchilik bo'lgan guruhlarda ham, son jihatidan ustun bo'lgan guruhlarda ham ishlab chiqilishi mumkin.

Yuqorida keltirilgan ko'rsatmalar qandaydir-bir qaror topgan sxema bo'lib hisoblanmaydi, ulardan o'quv mashg'ulotlari paytida amaliy ish uchun engildan murakkabga qarab, oddiydan majmuaviy tizimga qarabboradigan uslubiy tavsiyalar sifatida foydalanilishi mumkin. Futbol maydonida vaqtning ma'lum bir momentida son jihatidan ustun bo'lgan jamoa to'pga egalik qilish uchun son jihatidan ozchilik bo'lgan jamoaga qaraganda kamroq kuch sarflaydi. Uning uchun to'p bilan kelayotgan raqibni blokirovkalash, to'pni egallab olish osonroq bo'ladi. Shu sababli jamoaning oldiga qo'yilgan vazifa u yoki bu tomondagi o'yinchilarning soniga bog'liq ravishda osonlashishi yoki

murakkablashishi mumkin. Agar son jihatidan ustunlik jamoada bitta neytral o'yinchi yoki darvozabon hisobiga yaratilsa, u holda bunday son jihatidan ustunlik katta afzalliklarga ega bo'ladi, shu sababli talablarning kamayishi unchalik sezilarli bo'lmaydi.

Har ikkala jamoaning o'yinchilari son jihatidan teng bo'lgan vaziyatda har bir jamoaning oldiga turlicha vazifalar qo'yiladi, chunki ular bir xil sharoitlarga ega bo'ladi. Shu sababli to'pni egallash uchun kurash olibborish har ikkala jamoa uchun teng darajada murakkab bo'ladi, chunki to'pni egallash va raqibning doimiy bosimi ostida uni ushlaturish oson kechmaydi.

O'yin maydonidagi uchrashuv paytida son jihatidan ozchilik bo'lib o'ynayotgan jamoa oldiga qo'yiladigan talablar anchagina qattiq bo'ladi. Chunki himoyalanayotgan har qanday jamoa to'pning yaqinida son jihatidan ustun bo'lgan vaziyatni yaratishga intiladi. Shu sababli to'pga egalik qilib turgan hujumchilar odatda ikkita yoki uchta himoyachi bilan kurashga kirishadi.

### **§11.1 “Maydondagi o'yinchilar hisobiga son jihatidan ustunlik” vaziyatiga o'quv mashqlari**

1:1 o'yin vaziyatidan farqli o'laroq, son jihatidan ustunlik o'quv mashg'ulotlari paytida o'yinchilarning tayyorgarligi uchun katta istiqbollarni yuzaga keltiradi. Chunki son jihatidan ustunlik bo'lgan jamoaning har qanday o'yinchisito'p uchun kurash olibborayotgan vaziyatlarda jamoadosh sherigining yordam berishiga umid qilishi mumkin bo'ladi. Shu sababli unda to'pni egallab olish uchun kurashni muvaffaqiyatli yakunlash va darvozaga zarba berish ehtimoli ko'proq bo'ladi.

To'p uning tasarrufida bo'lgan o'yinchi, va son jihatidan ustunlikda o'ynayotgan jamoa vujudga kelgan vaziyatni o'zining foydasiga hal qilish va g'alabaga erishish imkoniyatiga ko'proq ega bo'ladi.

O'yinchi raqibbilanbevosita kurashga kirishishi va unda g'alaba qozonishi mumkin.

O'yinchi kurash paytida raqibini aldab o'tishi va to'pni jamoadosh sherigiga uzatishi mumkin. O'yinchi o'z jamoasining o'yinchisi bilanbirgalikda turli xil harakatlar kombinatsiyalarini uyushtirish hisobiga raqibini aldab o'tishi mumkin.

O'quv mashg'ulotlari paytida jamoadagi o'yinchilar guruhlarining harakatlarini ham, ularning o'zaro harakatlarini ham ishlab chiqish zarur bo'ladi. Markaziy himoya blogi, o'rta chiziq guruhi, maydonning chap va o'ng qismlarida joylashadigan o'yinchilar, o'rta chiziqdagi hujumchilar, bombardirlar va hokazolarning harakatlarini birlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. O'quv mashg'ulotlari paytida jamoadagi turli guruhlarining harakatlaridan alohida-alohida foydalanish, yoki ularning o'zaro harakatlaridan foydalanish murabbiyning o'yindagi taktik vazifalar to'g'risidagi tasavvuriga bog'liq bo'ladi.

Real o'yin paytida vujudga kelishi mumkin bo'lgan tahminiylar vaziyatlar.

Hujumchi tezlanish olish bilan himoyachidan uzilib ketgandan keyin o'z jamoasining o'rta chiziq o'yinchisidan pasni qabul qilib oladi, gol urish uchun darvozaga zarba berishga urinadi. Hujumchi maydon markazidan qanotga qarab start oladi, bunda u raqib jamoasining himoyachisini o'zining izidan ergashtirib ketadi va shu tariqa o'rta chiziqning boshqa hujumchisiga raqib darvozasi tomonga qarab harakatlanish va gol urish uchun imkoniyat yaratadi. Hujumchi uzatilgan to'pni qabul qilib oladi, uni qaytarib uzatadi, himoyachidan uziladi, to'pni qaytadan qabul qilib oladi va darvozaga zarba beradi. Darvozabon to'pni qanot himoyachisiga uzatadi, u to'pni yon chiziq bo'ylab raqib darvozasi tomonga shiddat bilan olib ketadi, devor usulida o'ynash bilan raqib jamoaning o'rta chiziqdagi o'yinchilarini aldab o'tadi. So'ngra to'pni darvoza chizig'ining yaqinidan qanotdan turib o'z jamoasining darvoza oldida turgan o'yinchilariga uzatadi.

Kuzatishlar natijalarining bu barcha unchalik ko'p sonli bo'lmagan misollari shuni ko'rsatadiki, futbol maydonida o'yinni o'zining foydasiga muvaffaqiyatli hal qilish uchun juda ko'p sonli imkoniyatlar vujudga keladi. Bunday vaziyatlarni futbolchilarni tayyorlashning elementi sifatida o'quv mashg'ulotlariga kiritish, o'yinchi himoyachi yoki hujumchi bo'lishidan qat'iy nazar sportchilarning mahoratini takomillashtirish uchun juda muhim bo'ladi.

## **HUJUMCHINING MUVAFFAQIYATGA OLIB BORADIGAN HARAKATLARI**

Tez yugurish yordamida o'yin maydonida raqib o'yinchilaridan holi bo'lgan pozitsiyani egallash va uzatiladigan to'pni qabul qilib olishga tayyor bo'lish. Raqib o'yinchilaridan holi bo'lgan zonani egallashda o'z jamoasining to'pni egallab turgan o'yinchisi o'yinni davom ettira olishi uchun himoyachini o'zining izidan ergashtirib ketish. To'pni egallab turgan o'z jamoasining o'yinchisi oldiga to'pni qabul qilish yoki shunday harakatlarni imitatsiyalash uchun yugurib kelish. O'z jamoasining o'yinchisi bilan devor usulida o'ynash yordamida raqibni aldab o'tish. Gavda bilanto'sish yordamida to'pni raqibdan himoya qilish. O'z jamoasining o'yinchisi qulay pozitsiyani egallamaguncha raqib jamoa o'yinchilarining barcha hujumlarini qaytarish bilan to'pni o'zida ushlab turish. To'pni bosh bilan qaytarishda g'olib chiqish. Masofani osonroq bosib o'tish maqsadida to'pni yon chiziq bo'ylab olib yurish.

## **HIMOYACHINING MUVAFFAQIYATGA OLIB BORADIGAN HARAKATLARI**

Aql bilan pozitsion o'yin olibborish hisobiga raqibning to'pni uzatish imkoniyatini blokirovkalash. Raqib o'yinchisining harakatlanish traektoriyasini imkon qadar oldindan ko'ra bilish va o'zining harakatlarini vaziyatga muvofiq qurish. Darvozabon va o'zining jamoasining o'yinchilari bilanturli xil vaziyatlardagi taktik harakatlarni oldindan ishlab chiqish. Raqibning mo'ljalini oldindan ko'ra bilish. To'p bilan kelayotgan raqibni blokirovkalash hisobiga uning to'pni boshqa jamoadosh sherigiga uzatishiga yo'l qo'ymaslik yoki buni qiyinlashtirib qo'yish. Himoyadagi o'yinchilar raqib o'yinchilari hujumga o'tish uchun qayta guruhlanayotgan paytda bu hujumning oldini olish uchun raqib jamoaning o'yinchilariga hujum qiladilar. O'quv mashg'ulotlari paytida turli xil o'yin bloklarini ishlab chiqishda darvozabonning hissasiga hujumda ham, himoyada ham o'ziga xos maxsus majburiyatlar to'g'ri keladi.


## **DARVOZABONNING HUJUMDA MUVAFFAQIYATGA OLIB BORADIGAN HARAKATLARI**

Muvaffaqiyatli himoyalanişdan keyin qaytadan hujum boshlash. To'pni o'zining jamoasining o'yinchilariga uzatish mumkinligi imkoniyatini e'tiborga olish. Raqibning mo'ljaliini oldindan ko'ra bilish. Orqaga pas berilganda to'pni o'z jamoasining o'yinchilariga uzatish uchun tayyor turish. O'yinga to'laonli kirishish.

## **DARVOZABONNING HIMOYADA MUVAFFAQIYATGA OLIB BORADIGAN HARAKATLARI**


Ishonchli pozitsion o'yin olib borish hisobiga raqibning darvoza tomonga yo'llagan to'pini egallab olish. To'p bilan kelayotgan raqibni qarshi olish uchun qulay moment va vaziyatda jarima zonasiga chiqishdan foydalanish. O'z jamoasi o'yinchilarining ruhini ko'tarish. Raqib darvoza tomonga yorib kirgan taqdirda unga gol urishga halaqit berish. Texnikani ishonchli qo'llay olish (to'pni ushlab olish, to'pni qo'l bilan qaytarish, to'pni oyoq bilan qaytarish va hokazolar).

42-mashq. Mashq 20x10 maydonda o'tkaziladi bitta kichkina darvozabilan, o'yinni 2:1 vaziyatida. Jamoaning son jihatdan ustunligini mashq qilishning vazifasini asosidir. Barcha o'yinchilarga to'pga teginish 2 marta ruxsat beriladi darvozaga zarba berish qachon ruhsat etiladi, qachonki jamoaning o'yinchilarning son jihatdan ustun bo'lganda to'pga teginishlari 2 marta bo'lganida.



43-mashq. Mashq 20x10 maydonda o'tkaziladi ikkita kichkina darvoza bilan, o'yinni 3:2 vaziyatida. Jamoaning son jihatdan ustunligini mashq qilishning vazifasini asosidir. Darvozaga kachon zarba beriladi qachonki raqib jamoa aldab o'tilgandan keyin darvozaga faqat hujumchigina zarba berishi mumkin.


Mashqni bajarishda qo'shimcha vazifa jamoa son jihatdan kamchiligida to'pga egalik qilgan o'yinchi ko'proq o'zi bilan olib yurishi kerak.




44-mashq. Mashq 30x20 maydonda o'tkaziladi ikkita kichkina darvoza bilan, o'yinni 5:3 vaziyatida. Jamoaning son jihatdan ustunligini mashq qilishning vazifasini asosidir. Jamoa o'yinni to'xtatmay o'ynaydi to'pni bir-birlariga oshirib.

Jamoaning son jihatdan ustunligini mashq qilishning vazifasini asosidir.


Uchta himoya o'yinchilari zona mudofasini tashkillashtiradi, chunki raqib jamoa o'yinchilari bir-birlariga to'pni oshirishiga halaqit qilishi uchun.




45-mashq. Mashqni bajarishda 5:4 o'yin vaziyati bo'yicha bitta katta darvoza bilan birga ikkita kichik darvozalar kerak bo'ladi. Jamoaning son jihatdan ustunligini mashq qilishning vazifasini asosidir. Oyoqning tashqi bilan pastdan yoki havodan yondan to'p oshirishlarini bajarish kerak va oyoq yoki bosh yordamida darvozaga to'pni yo'llash. Jamoaning son jihatdan kamchiligi mashq qilishning vazifasini asosidir.



46 -mashq. Mashq 40x20 maydonda o'tkaziladi ikkita kichkina darvoza bilan, o'yinni 6:4 vaziyatida. Jamoaning son jihatdan ustunligini mashq qilishning vazifasini asosidir. Darvozaga zarba berishdan oldin son jihatidan ustun bo'lgan jamoa to'pga 5ta teginish qilishlari shart. Darvozaga zarba berishdan oldin son jihatidan ustun bo'lgan jamoaning barcha o'yinchilari bir marotabadan to'pga teginish qilishlari lozim.



